

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**ABDURAXMON ABDUXALIMOV**

**O‘ZBEKISTON QISHLOQ AHOLISINING IJTIMOIIY  
HAYOTI TARIXIDAN  
(Farg‘ona vodiysining Andijon, Farg‘ona va Namangan  
viloyatlari misolida, 1991–2020 yillar)**

**O‘quv qo‘llanma**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan**

Toshkent – 2022

**UO‘K  
KBK  
K**

**Abduxalimov, Abduraxmon.**

O‘zbekiston qishloq aholisining ijtimoiy hayoti tarixidan (Farg‘ona vodiysining Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari misolida, 1991–2020 yillar) [Matn] // A.A.Abduxalimov. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2022, 126 bet.

ISBN 978-9943-

Mazkur o‘quv qo‘llanma respublika o‘quv yurtlarining 1-bosqich talabalari uchun “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidagi “O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar”, “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar” mavzulari bo‘yicha tayyorlangan o‘quv adabiyoti bo‘lib, unda mustaqillik yillarida vodiy viloyatlari qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va kundalik turmush tarzi tahlil etilgan.

Настоящее учебное пособие представляет собой учебную литературу, подготовленную для студентов первого курса высших учебных заведений республики по темам «Социальные изменения в Республике Узбекистан», «Реформы, реализуемые в сфере образования в Республике Узбекистан» учебной дисциплины «Новейшая история Узбекистана», в которой анализируются социально-экономические условия и повседневный образ жизни сёл областей Ферганской долины в годы независимости.

This textbook is a textbook prepared for first-year students of higher educational institutions of the republic on the topics "Social changes in the Republic of Uzbekistan", "Reforms implemented in the field of education in the Republic of Uzbekistan" of the discipline "Recent history of Uzbekistan", which analyzes social - economic conditions and daily lifestyle of the villages of the regions of the Ferghana Valley during the years of independence.

**UO‘K  
KBK**

Mas’ul muharrir:

**O.K.Komilov**

tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

**A.A.YERMETOV**

tarix fanlari doktori, professor

**M.X.Xadjamuratova**

tarix fanlari nomzodi, dotsent

*O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil -----dagi --- sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan (Ro‘yxatga olish raqami -----)*

ISBN 978-9943-

**A.A.Abduxalimov  
«Fan va texnologiya» nashriyoti,  
Toshkent, 2022.**

## KIRISH

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi demokratik va insonparvar jamiyat barpo etishga hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga keng yo‘l ochib berdi. Bu borada ayniqsa, mamlakatni, xususan, qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, uning ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilish, bu yerdagi aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha bir qancha tadbirlarning muntazam o‘tkazilishi hamda olib borilayotgan ishlarning negizini tashkil qilganligini alohida e‘tirof etish joizdir.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmonida o‘z aksini topgan.

Albatta bugungi kunda aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu borada Farg‘ona vodiysi qishloq aholisini ijtimoiy muhofaza qilish, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ish bilan ta‘minlash, qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilash, qishloqlarni obodonlashtirish, tabiiy gaz, elektr energiyasi va toza ichimlik suvi tarmoqlarini barpo etish, qishloq vrachlik punktlarining faoliyati, ularning moddiy-texnikaviy ta‘minoti, laboratoriya, tibbiy asbob-uskunalar va mutaxassislar bilan ta‘minlanish, aholining turli kasalliklarga chalinish dinamikasi, aholiga tez va sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda mavjud muammolarni bartaf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta‘kidlash o‘rinliki, Farg‘ona vodiysi aholisin jumladan, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ijtimoiy-demografik xususiyatlardan kelib chiqib, respublika yer maydonining 4,3 foizni egallagan Farg‘ona vodiysida mamlakat aholisining deyarli 30 foizga yaqini

istiqomat qiladi.

2020 yilning birinchi yarmida mamlakatda rasman ish bilan band bo'lmagan 1 mln 400 mingga yaqin ayollar va yoshlar mavjud bo'lib, ishsizlik darajasi xotin-qizlar o'rtasida 13 foizni, yoshlar o'rtasida esa 15 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, Farg'ona va Andijon viloyatlarida bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu masalaga alohida to'xtalar ekan, «Meni eng ko'p o'ylantiradigan masala bu yoshlar va xotin-qizlardir, ularga e'tibor, ko'mak kerak. Bilimi, qo'lida kasb-hunari bo'lsa, hayotda o'z o'rnini topib ketadi, dunyoqarashi ham boshqa bo'ladi. Ota-onasi, oilasi ham davlatdan rozi bo'ladi», – deb ta'kidlagan edi.

Ushbu o'quv qo'llanmada Farg'ona vodiysi viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy hayoti va kundalik turmush tarzi arxiv materiallari va manbalar asosida tahlil qilish, og'zaki tarix usuli orqali qishloqlarda istiqomat qiluvchi nuroniylar va aholining ziyoli vakillari bilan olib borilgan suhbatlar asosida birlamchi manbalar yordamida tadqiq qilingan. O'quv qo'llanma yuzasidan bildirilgan barcha fikr-mulohazalarni muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi.

## **BIRINCHI BO‘LIM**

# **ISTIQLOL YILLARIDA FARG‘ONA VODIYSIDA AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH VA ISH BILAN TA‘MINLASH MASALALARI HAMDA QISHLOQLARDA UY-JOYLARNING BUNYOD ETILISHI**

### **1.1. Vodiy qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishi**

Istiqlol arafasida O‘zbekistonda qishloq aholisining ijtimoiy muhofazalash borasida qisman chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatda 1989 yilgi aholini xatlovdan o‘tkazish natijalariga ko‘ra, respublika qishloq aholisining 45,3 foizini kolxozchilar, 38,7 foizini sovxoz ishchilari tashkil etgan bo‘lsa, 16 foizi sanoat, xizmat ko‘rsatish, davlat tashkilotlari hamda boshqaruv sohalarida xizmat qilgan. 1991 yilda mamlakat aholisining 59,5 foizi qishloqlarda istiqomat qilgan. Bu ko‘rsatkich 2004 yilda 63 foizni tashkil etgan. Tug‘ilish ko‘p bo‘lgani sababli bu davrda ish bilan ta‘minlash masalasi ham dolzarb muammolar qatoridan joy olgan.

1991–2001 yillarda qishloqda bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda yangi xo‘jalik tizimi shakllandi. Qishloqlarda kooperativ, davlat, dehqon-fermer xo‘jaliklari hamda aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari kabi mulkchilik shakllari amal qila boshladi. Islohotlar va institutsional o‘zgarishlar natijasida O‘zbekiston zamonaviy fermer xo‘jaligi davlatiga aylandi. Buning natijasida Farg‘ona vodiysi viloyatlari ham agrar hududdan ishlab chiqarish va sanoati rivojlangan hududga aylandilar. Bu borada Andijon viloyatida mehnat bozoriga qo‘shimcha 30 ming 200 kishi kirib kelganligi yangi ish o‘rinlari yaratishni taqozo etdi. Shu davrda 198 ming 400 ta yoki har yili o‘rtacha 20 mingtadan yangi ishchi o‘rinlari barpo etildi. Birgina 2001 yilning o‘zida bu ko‘rsatkich 32 ming 480 tani tashkil etdi. Bu davrda faoliyat ko‘rsatgan 89 ta qo‘shma korxonalar hisobiga qo‘shimcha 9 mingga yaqin yangi ishchi o‘rinlari yaratildi.

Ma‘lumki, mamlakatning boshqa hududlari orasida Farg‘ona vodiysi qulay tabiiy-geografik sharoiti hamda mo‘tadil iqlimi bilan ajralib turadi. Xususan, XX asr oxiri–XXI asr boshlariga kelib Farg‘ona vodiysi viloyatlarida shakllangan

ijtimoiy-demografik xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo'ldi: respublika yer maydonining 4,3 foizni egallagan Farg'ona vodiysida mamlakat aholisining deyarli 30 foizga yaqini jamlangan; umumiy maydoni 18,2 ming kvadrat kilometr (bundan keyingi o'rinlarda -km<sup>2</sup>) tashkil etadi; shundan, Andijon viloyati 4,2 ming km<sup>2</sup>, Namangan viloyati 7,4 ming km<sup>2</sup>, Farg'ona viloyati 6,8 ming km<sup>2</sup> hududni egallagan. 1994 yil ma'lumotlariga ko'ra, 1 km<sup>2</sup> ga respublika bo'yicha o'rtacha 49,6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Andijonda 464,6 nafar, Namanganda 215,1 nafar va Farg'onada 337,7 nafarni tashkil etgan. 2004 yilga kelib, tegishli ravishda respublika bo'yicha 57,7 nafarni tashkil etib, Andijonda 551,2 nafar, Namanganda 275,3 nafar va Farg'onada 419,6 nafarga to'g'ri kelgan. 2013 yilda esa Andijonda 561 nafar, Namanganda 330 nafar va Farg'onada 460 nafardan iborat bo'ldi.

1998 yilda mazkur hududda istiqomat qilgan aholi respublika aholisining 27,2 foizini tashkil qilgan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> da 357 kishidan iborat bo'lib, mamlakat ko'rsatkichlaridan qariyb 7 barobar ko'p bo'lgan. Eng yuqori aholi zichligi Andijon viloyatida kuzatilib, 1 km<sup>2</sup> hududga 500 kishi to'g'ri kelgan. Mazkur viloyat bu borada nafaqat O'zbekistonda, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida ham yetakchi o'rinni egallagan.

Farg'ona vodiysida shakllangan ijtimoiy-demografik holatni urbanizatsiya ko'rsatkichining pastligi bilan bog'liq, deb aytish mumkin. Xususan, Farg'ona vodiysi qadimdan urbanizatsion jarayonlar tez rivojlangan hudud bo'lib hisoblansa-da, hozirgi davrga kelib vodiy viloyatlarida urbanizatsiya ko'rsatkichlari respublikaning o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan past. Masalan, 1990 yillar boshlarida O'zbekistonda aholining 39,0 foiz shaharlarda istiqomat qilgan bo'lsa, vodiya bu ko'rsatkich 34,5 foizdan ortmagan.

1993 yil boshida respublika bo'yicha 39,4 foiz aholi shaharlarda istiqomat qilgan bo'lsa, vodiy bo'yicha bu ko'rsatkich o'rtacha 33,3 foizga teng bo'lgan. Boshqacha aytganda, vodiyni mavjud 5 mln 889 ming aholisidan deyarli 4 mln nafarga yaqini qishloqlarda istiqomat qilgan. Vaqt o'tishi bilan aholi soni yanada ortib borgan. 2006 yilga kelib vodiy aholisining 68,9 foizi qishloqlarda hayot

kechirgan. Bu ko'rsatkich Andijonda 70,5 foizni, Namanganda 62,8 foizni va Farg'onada 71,9 foizni tashkil etgan.

2014 yilga kelib vodiya urbanizatsiya ko'rsatkichi keskin tarzda o'sdi. Xususan, Andijonda 52,7 foiz, Namanganda 63,9 foiz va Farg'onada 57,2 foizga qadar ko'tarildi. Vodiy viloyatlari bo'yicha o'rtacha 57,9 foizga teng bo'ldi. Urbanizatsiya darajasi bo'yicha Qo'rg'ontepa tumani alohida ajralib turadi. Ushbu tumanda yirik sanoat korxonalarining bunyod etilishi (47,5 foiz) ni tashkil etadi. Shuningdek, Asaka (23,3 foiz) va Shahrixon (29,0 foiz) tumanlarida ham bu ko'rsatkich nisbatan yuqori. Hozirgi zamon urbanizatsiyasining muhim shakli-shaharlar aglomeratsiyasi (Asaka, Andijon, Kuyganyor va Poytug' shaharlari) shakllandi.

Farg'ona mintaqasida o'rganilgan davrda demografik vaziyat murakkablashdi. Farg'ona vodiysi viloyatlarida jami 40 ta qishloq tumanlari, 28 ta shahar va 391 ta shaharchalar va 1 ming 867 ta qishloqlar mavjud bo'lib, aholi soni 2000 yilga kelib vodiya aholisining umumiy soni 6 mln 774 ming 800 kishi bo'lsa, shundan, 4 mln 618 ming 700 nafari qishloq joylarida istiqomat qilgan. 2020 yilda mavjud 9 mln 690 ming 500 nafar aholidan 4 mln 123 ming 800 nafari qishloqlar ulushiga to'g'ri kelgan. Yuqoridagi raqamlardan shuni ko'rish mumkinki, qishloq aholisining tadbirkor, ishbilarmon va ziyoli vakillari 2000 yilga nisbatan 2020 yilda ko'proq shahar hududlariga borib joylashgan. Shuningdek, mehnatga yaraqli aholi vakillari shahar joylariga ish izlab borgan va doimiy ish o'rnini bilan ta'minlangan. Biz quyidagi jadval orqali vodiya viloyatlari aholisini umumiy, shahar va qishloqlar kesimida quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

### *1.1-jadval*

#### **Mintaqada aholi soni (yil boshiga, ming kishi)**

	Jami aholi	shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
2000 yil			
Vodiy viloyatlari aholisi	26 450,7	2 156,2	4 618,7
Andijon	2 186,2	657,5	1 528,7
Namangan	1 924,3	722,6	1 201,7

Farg‘ona		2 664,4	776,1	1888,3
2010 yil				
Vodiy viloyatlari aholisi		7 882,2	4 617,7	3 262,5
Andijon		2 549,1	1 358,4	1190,7
Namangan		2 258,5	1 458,8	799,7
Farg‘ona		3 074,6	1 802,5	1272,1
2020 yil				
Vodiy viloyatlari aholisi		9 689,8	5 566,7	4 123,8
Andijon		3 127,7	1633,9	1 493,8
Namangan		2 810,8	1815,1	995,7
Farg‘ona		3752	2117,7	1 634,3

Millatlararo munosabatlarda o‘ziga xos jarayonlar Farg‘ona vodiysi viloyatlarida o‘zbek xalqi vakillari son jihatidan ustunlikka ega bo‘lsa-da, vodiylardan respublikaning ko‘p millatli hududlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda Andijon va Farg‘ona tuman va shaharlarida 102, Namangan viloyatida esa 50 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Barcha shahar va qishloq fuqarolar yig‘inlari o‘ramida ko‘p millatli mahallalar, yarmi o‘zbek va yarmi boshqa etnoslardan tashkil topgan oilalar mavjud.

O‘zbekistonda bozor munosabatlarini joriy etishdan avval aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari ko‘rildi. Bu hukumat tomonidan amalga oshirilgan aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarda o‘z ifodasini topdi. Bozor munosabatlariga o‘tishni jadallashtirish davrida faol ijtimoiy siyosatning eng muhim vazifalar qatoriga qo‘yilishi bir qancha omillar bilan bog‘liq bo‘ldi.

Birinchi, mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromad, o‘rtacha oylik ish haqi va pensiyalar, oziq-ovqat mahsulotlari, pulli xizmat va uy-joy maydoni jihatidan sobiq Ittifoq bo‘yicha eng so‘nggi o‘rinlardan birida edi. Ikkinchi, bozor islohotlarining dastlabki bosqichida aholining ommaviy ravishda qashshoqlashishiga, umumiy ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslikdan iborat ijtimoiy himoya mexanizmini takomillashtirishga



erishishdan iborat bo'lgan.

Sovet tuzumi davrida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari, respublikaga xos demografik jarayonlar chuqur tahlil qilinmaganligi natijasida 1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab ishsizlik muammosi yana ko'zga tashlana boshlagan. Bir tomondan mehnat resurslari sonining o'sishi tezlashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi ish o'rinlarini tashkil qilish deyarli to'xtab qolgan edi. 80-yillarning oxirlarga kelib demografik holat yanada yomonlashdi. Respublikada mehnatga loyiq bo'lgan 1 mln 680 ming kishi xalq xo'jaligiga jalb qilinmay, 780 ming mehnatga loyiq bo'lgan aholi ortiqcha ishchi kuchi sifatida ishlab chiqarishdan chetda qolgan edi.

O'zbekistonda amalga oshirilib kelayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi, birinchidan, fuqarolar huquqlarining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanganligi, ikkinchidan, aholining o'zini o'zi himoya qilish salohiyatini faollashtirish uchun sharoitlar va amaliy mexanizmni, uchinchidan, ob'ektiv sharoitlar oqibatida bozor munosabatlarida faol ishtirok etishga imkoniyati bo'lmagan aholining ayrim tabaqalari va toifalarini aniq ko'zlab, manzilli himoya qilishga yo'naltirildi. 1991 - 1996 yillar mobaynida eng kam ish haqi va pensiyalardan soliq olinmagan.

Ushbu davrdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va aholini ijtimoiy ko'llab-quvvatlash borasida 1994 yil 1 iyulda tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Unda ko'p bolali onalar imtiyozli ravishda 50 yoshda pensiyaga chiqishi, bolasi 3 yoshga to'lgunga qadar bo'lgan davr uchun ishlagan yoki ishlamagan davridan qat'i nazar unga ish staji hisoblanishi belgilab qo'yilgan.

Bu davrda onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga ham e'tibor qaratilib, 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga beriladigan oylik nafaqa barcha farzandli onalarga ularning daromadlaridan qat'i nazar joriy etilgan. Shu bilan birga chaqaloq ikki yoshga to'lguncha uning parvarishi bilan band onalarga ham eng kam ish haqining 20 foiz miqdoridagi nafaqa puli to'langan.

1992 yili shu maqsadlarda 27 million (bundan keyin - mln) 57 ming 333 so‘m mablag‘ sarflangan bo‘lsa, 1996 yilga kelib pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 241 ming 593 nafarga yoki 1995 yilga nisbatan 9 ming 344 kishiga (ishlayotgan pensionerlar bilan birgalikda) ko‘payganligini ko‘rish mumkin. Qishloq fuqarolar yig‘inlariga kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam berish maqsadida viloyat moliya boshqarmasi tomonidan bank muassasalariga 25 mln 624 ming so‘m harajat qilish belgilangan bo‘lsa-da, moliya bo‘limlari tomonidan Buloqboshi, Izboskan va Komsomolobod (hozirgi Ulug‘nor) tumanlariga budjetdan ajratilgan mablag‘lar bank muassasalariga qarorda belgilangan muddatdan kech yetkazib berilgan.

Ijtimoiy himoya bo‘yicha qaror ijrosi yuzasidan Namangan viloyatidagi 918 ta mahalla uchun jamg‘arma bankida maxsus hisob raqami ochilib, moddiy yordam tayinlash haqida ariza bilan maxsus komissiyaga murojaat qilgan 39 ming 95 nafar fuqarolardan 35 ming 49 nafariga mahalla fuqarolar yig‘ini (bundan keyingi o‘rinlarda – MFY) tomonidan moddiy yordam tayinlangan.

Farg‘ona viloyatida farmon va qaror talablarini amalda bajarish uchun shahar va tumanlardagi jamg‘arma banklar MFYlar bilan birgalikda 1994 yil 13 dekabr holatiga asosan 428 maxsus hisob varaqasi olgan. Bu hisob varaqalariga 1994 yilning oktabr, noyabr va dekabr oylari uchun 32 mln 847 ming so‘m mablag‘ tushgan. Ro‘yxat bo‘yicha bunday fuqarolar soni 102 ming 702 nafar bo‘lib, ularga ajratilgan moddiy yordam 20 mln 910,7 ming so‘mni tashkil etgan.

1992 yilda viloyat qishloqlaridagi aholiga pensiya va nafaqalar to‘lovi uchun salkam 4 milliard (bundan keyingi o‘rinlarda - mlrd) so‘m mablag‘ sarflanib, tashkilotlar va homiylar tomonidan kam ta‘minlangan oilalarga 9 mlrd so‘mlik yordam berilgan. 1993 yilning birinchi choragi uchun esa pensiya oluvchilarga 3 mlrd so‘m mablag‘ to‘langan.

Mustaqillik yillarida zaxiralar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, aholini ijtimoiy himoya qilishning mohiyatan yangi mexanizmi yaratildi, aholini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ham o‘zgarib bordi.

Barcha nafaqalar va moddiy yordam faqat oila orqali ko'rsatiladigan bo'ldi. Ularni asosan kam ta'minlangan oilalar, keksalar va bolalar o'z boshladilar. Aholining turli qatlamlariga qat'i tabaqalashtirilgan tarzda yondashilganlik ijtimoiy himoya yangi tizimining eng muhim xususiyatidir. Avvalo, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir 1991 yildayoq «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Prezident Farmoni, «Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi, «Aholi sog'ligini saqlash to'g'risida»gi, «Turli sohalar xodimlarining ijtimoiy muhofazasini ta'minlash to'g'risida»gi, «Yolg'iz keksalar, nogironlar va pensionerlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish to'g'risida»gi, «Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida»gi Farmon va boshqa bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Masalan, Andijon viloyatida 1997 yilning 9 oyi mobaynida aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalariga mahalliy budjet mablag'laridan 1,6 mlrd so'm sarflanib, kam ta'minlangan, yordamga muhtoj oilalarga 88 mln so'm nafaqa pullari berilgan.

Bu davrda Farg'ona viloyatida 4 ming 15 nafar ro'yxatga olingan yakka-yolg'iz fuqarolarning 3 ming 78 nafari ijtimoiy himoyaga olingan. Turli toifadagi pensioner-nogironlar, ko'p bolali oilalarga 4 ming 963 ta kvartira bepul xususiyashtirilib berilgan. Ular kommunal xizmatlardan ozod etilgan hamda jamoat transportlarida bepul yurishlari uchun imtiyozlar yaratilgan.

2002 yil 25 yanvardagi «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida»gi Farmon esa ijtimoiy himoya siyosatining navbatdagi qonuniy ifodasi bo'ldi. Unga ko'ra, bolasi ikki yoshga to'lgunga qadar uni parvarish qilish bo'yicha ishlamaydigan onalarga beriladigan oylik nafaqalar miqdori 2002 yil 1 fevralidan boshlab eng kam ish haqining 170 foizi, 2003 yilning 1 yanvaridan boshlab esa eng kam ish

haqining 200 foizi miqdorida belgilandi.

Aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash, uning samarasini ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, iste'mol bozorini mustahkamlash natijasida islohotlarning boshlang'ich bosqichidayoq aholi turmush darajasini saqlab qolish va uning keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkoni yaratildi. Umr ko'rish darajasi uzaydi, go'daklar o'limi va jinoyatchilik kamaydi. Ijtimoiy himoya borasida yuz bergan sezilarli o'zgarishlar natijasida Namangan viloyatida 1994 yilda aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi 69,5 yosh bo'lgan bo'lsa, 2004 yilga kelib 71,8 yoshga to'g'ri kelgan yoki 2-3 yilga ko'paygan, shu jumladan, erkaklarning yoshi 67,2 yoshdan 70,0 yoshga, ayollarniki esa 71,7 yoshdan 73,7 yoshga uzaygan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentabrdagi «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi Qaroriga asosan, umumiy kasallik oqibatida nogironlik pensiyasini tayinlash nogironlik boshlangan vaqtga nisbatan quyidagicha ish staji mavjud bo'lganda tayinlanishi belgilandi.

### *1.2-jadval*

#### **Nogironlik pensiyasini tayinlanishi**

<b>Yosh</b>	<b>Ish staji (yillarda)</b>
20 yoshdan 23 yoshga yetgunga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga yetgunga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga yetgunga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga yetgunga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga yetgunga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga yetgunga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga yetgunga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga yetgunga qadar	17
56 yosh va undan katta yosh	20

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki mazkur qarorning qabul qilinishi

ijtimoiy himoya borasidagi amalga oshirilgan ishlarning amaliy ifodasi bo'lgan.

Hududlar bo'yicha pensionerlarga tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdorini tahlil qilsak, 2010 yilda respublikada 274 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich Andijon viloyatida 244 ming, Namangan viloyatida 241 ming va Farg'ona viloyatida 249 ming 100 so'mni tashkil etgan. 2015 yilda esa 438 ming 200 so'm respublikada, 378 ming 500 so'm Andijon viloyatida, 381 ming 100 so'm Namangan viloyatida hamda 395 ming 600 so'm Farg'ona viloyatida bo'lsa, 2020 yilga kelib respublikada 733 ming 200 so'mga, Andijonda 618 ming 300 so'mga, Namangan viloyatida 627 ming 800 so'mga va Farg'ona viloyatida esa 654 ming 500 so'mga ortganini quyidagi 1.3-jadval asosida tahlil qilish mumkin.

**1.3-jadval**

**Hududlar bo'yicha pensionerlarga tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori (yil oxiriga, ming so'm)**

<b>Hudud</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>
O'zbekiston Respublikasi	274.0	438.2	733.2
Andijon viloyati	244.0	378.5	618.3
Namangan viloyati	241.0	381.1	627.8
Farg'ona viloyati	249.1	395.6	654.5

**1.4-jadval**

**Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning hududlar bo'yicha soni (yil oxiriga, ming kishi)**

<b>Hudud</b>	<b>2000</b>	<b>2010</b>	<b>2020</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	3 087	3 265.8	3 878.4
Andijon viloyati	288	290.9	358.0
Namangan viloyati	220.1	249.3	298.9
Farg'ona viloyati	347.4	369.5	442.9

Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning hududlar bo'yicha tahlil qilsak, 2000 yilda har 10 ming kishidan 3 ming 87 nafari respublika bo'yicha ijtimoiy nafaqa va pensiya bilan ta'minlangan bo'lsa 2020 yilga kelib bu ko'rsatkich, 3 ming 878 nafarga ortgan. Bu raqamlar Andijon viloyatida 288 ming nafardan 358 ming nafarga, Namangan viloyatida 220 ming 100 nafardan 298 ming 900 nafarga hamda Farg'ona viloyatida 374 ming 400 nafardan 442 ming 900 nafarga ortganini 1.4-jadval orqali ko'rish mumkin.

O'tish davrining eng muhim muammolaridan biri ishsizlik muammosidir. Ishsizlik bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy hol hisoblanadi. Sobiq Ittifoq davrida aholi bandligini ta'minlashga, demografik jarayonga e'tiborsizlik bilan qaralishi mustaqillik arafasida respublikada, ayniqsa, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida, mehnat resurslarning o'sishiga va ishsizlikning yildan-yilga ortishiga olib keldi. 1991-1995 yillarda mamlakatda yuz bergan iqtisodiy tushkunlik oqibatida ishsizlikning yanada avj olish xavfi paydo bo'ldi. Shu yillardan boshlab davlat ishsizlikni rasman tan oldi. Ishsizlar ro'yxatga olinib, ularga ishsizlik maqomi berila boshlandi, ular uchun mehnat bozorlari orqali ish qidirildi, vaqtinchalik nafaqalar belgilandi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi bu davrda eng past bo'lgan va 1992 yilda 0,2 foiz, 1993 yilda 0,3 foizga teng bo'ldi, 1994 yildan boshlab hozirgi kungacha 0,4-0,5 foizdan ortmadi. Ammo bu raqamlar asosan ishsiz qolib, mehnat birjalariga murojaat qilganlar sonini aks ettirdi. Xalqaro metodologiya asosida hisoblanadigan bo'lsa, O'zbekistonda ishsizlik darajasi o'rtacha 10 foizga teng ekanligi e'tirof etilgan. Aholi zich joylashgan va o'ziga xos muammoli xususiyatlarga ega bo'lgan Farg'ona vodiysida bu ko'rsatkich yuqori bo'lishi tabiiydir.

Shunday qilib, Farg'ona vodiysida ishsizlikning kelib chiqish sabablari jihatidan ishsizlarni quyidagi turkumlarga bo'lish mumkin:

- ishlab chiqarishning qisqarishi, korxonalarining yopilishi natijasida ish joylarini yo'qotgan shaxslar;
- o'z ixtiyori bilan ish joyidan bo'shab, muayyan vaqt davomida yangi ish

joyini topolmagan shaxslar;

- ishchi kuchi bozoriga birinchi bor kirib kelayotgan shaxslar yoshlar, o'quv muassasalarini bitirganlar, ishsiz ayollar;

- uzoq muddatli tanaffusdan so'ng mehnat bozoriga qaytib kelgan shaxslar.

O'z o'rnida, aholini ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish muhim vazifalardan biri xisoblanadi. Shuning uchun 1992 yil 13 yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi va amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu hujjat mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida fuqarolarning ish o'rinlariga ega bo'lishlari uchun huquqiy jihatdan kafolatlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu o'rinda Respublika Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 31 dekabrda «Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish respublika jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarorini ham ta'kidlab o'tish lozim.

O'tish davrida, bir tomondan, mehnat yoshidagi aholining salmog'i ortib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ishsizlikning ochiq va yashirin ko'rsatkichlari doimo o'zgarib borishi tabiiy. Qolaversa, respublika iqtisodiyoti hozirgi kunda ham barcha mehnat yoshidagi resurslarni o'ziga jalb qila olmasligi, ayniqsa, qishloq xo'jaligida ortiqcha mehnat resurslarining ko'pligi ularning xorijiy mamlakatlarga mehnat migrantlari sifatida ketishiga sabab bo'lmoqda. Mehnat resurslarining qishloqdan shaharga migratsiyasi, kadrlarning respublikadan tashqariga ketish surati yildan-yilga ortdi. Shuningdek, mazkur mehnat migrantlarining yashash joylaridagi yaqinlariga yuborgan pul jo'natmalari evaziga qishloq joylarining iqtisodiy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada mehnat migranti sifatida xorijga chiqqan fuqarolar va ularning oila azolari, yashash xonadonlari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlanib, ularning moddiy ehtiyojlari qondirildi.

Masalan, biz oilada 5 nafar o'g'ilmiz deydi suhbatdoshim, Jalaquduq tumani Teshiktosh qishlog'ida istiqomat qiluvchi Baxromjon Ibragimov. O'rta maktabni tugatgach akalarim bilan Rossiya davlatiga ishlagani bordik. 2 nafar akam zavodga, 1 nafari yuk tushuruvchi bo'lib katta magazinga ishga joylashdi. Men

yana bir akam bilan mahalliy aholi uchun qurilayotgan uy-joylardan ish topdik. Dastlab qiyinchiliklar bo'ldi, sabr qilib mehnat qilishimiz natijasida daromad yomon bo'lmadi. Ota-onamiz va yaqinlarimizga yuborgan mablag'lar evaziga 3 ta akamga uy-joy qildik. 2 ta akam va men uylandim. Shuningdek, yana qo'yimcha jamg'arilgan pullar evaziga «Nexia» va «Damas» avtomashinalarini sotib oldik. Xozirda oilamiz mahallamizda o'ziga yarasha xonadonlardan biridir.

Andijon viloyati mehnat birjalariga 1991 yil davomida 46 ming 69 nafar fuqaro ishlash istagini bildirib, murojaat qilgan bo'lsa, shundan 32 ming 927 nafarining talabi qondirilgan. Ularning 18 ming 173 nafari mehnat birjalari tomonidan, 4 ming 754 nafari esa mustaqil ravishda ish bilan ta'minlangan. 13 ming 142 nafar fuqarolar uchun ish topish masalasi muammoligicha qolgan. 1993 yilning 9 oyi ichida ishga joylashtirish masalasi bo'yicha 15 ming 438 nafar fuqarodan murojaatlar kelib tushib, ularning 11 ming 355 nafari ishga joylashtirilgan. Mehnat birjasi ro'yxatida turib, ish izlayotgan 1 ming 808 kishidan 1 ming 86 nafari ishsiz, deb tan olingan.

1997 yil holatiga ko'ra, Andijon viloyati qishloqlarida jami aholining 70,8 foizi istiqomat qilgan. Bu davrda viloyat mehnat organlariga ish so'rab murojaat qilgan fuqarolardan 769 nafari ommaviy kasblarni va 1 ming 868 nafari milliy hunarmandchilikni o'rganishga, 1 ming 605 nafari esa jamoat ishlariga yuborilgan. Shuningdek, 246 nafari majburan muddatidan oldin nafaqaga chiqarilgan. Yaratilgan ishchi o'rinlarning 71 foizi qishloq joylariga to'g'ri kelgan. Qishloqda ish bilan band bo'lganlar asosan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatganlar. 1999 yilda viloyat mehnat organlariga ish so'rab, murojaat etgan 31 ming 825 nafar fuqarodan 24 ming 455 nafari ish bilan ta'minlangan. Undan 22 ming 570 nafari mustaqil ravishda ishga joylashgan. Viloyat bo'yicha yil davomida jami 47 ming 25 nafar fuqaro ish bilan ta'minlangan.

Farg'ona vodiysi viloyatlari qishloq joylarida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholini ish bilan ta'minlash masalasida xususiy tadbirkorlarning o'rni kattadir. So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi



natijasida deyarli har bir qishloqda tadbirkorlik bilan shug‘ullanib kelayotgan ishbilarmonlar topiladi. Ashashunday insonlar qatoriga Ortiqali Xusanov, Otabek Komilov va Rustam Qo‘chqorovlarni kiritishimiz mumkin.

Andijon viloyati Marhamat tumani Marhmat qishlog‘ida istiqomat qiluvchi “Turon o‘quvchi yoshlar va nogironlar o‘quv ishlab chiqarish markazi” direktori, xalq deputatlari Marhamat tumani kengashi deputati, Ortiqali Xusanov asli kasbi pedagog, rus-tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi. Tinib tinchimagan bu insonni nafaqat tuman, viloyat, balki respublikada ham yaxshi bilishadi. Sababi o‘zi 2 guruh nogironi bo‘lishiga qaramay Marhamat tumani markazidagi qarovsiz joyda Ma’naviyat bog‘i, bepul kutubxona va o‘quv markazi tashkil etgan.

Uning so‘zlariga ko‘ra tadbirkorlik faoliyatini dastlab 1995 yilda maktab binosida boshlagan. Mehnat darsida o‘quvchilarga haq to‘lash evaziga tikuvchilik, to‘quvchilik va duradgorlik maxsulotlarini ishlab chiqara boshlagan. U vaqtlarda tadbirkor degan atama bo‘lmagan bunday ish bilan shug‘ullangan odamlarga “chayqovchi” deb nom berilgan. Xattoki, ularga nisbatan oila a‘zolari va yaqinlari ham boshqacha muomalada bo‘lgan. Dastlabki davrlarda 2-3 kishi bilan ish boshlagan bo‘lsam bugungi kunga kelib, ishchilar soni 30 nafardan ortib ketdi. Ular asosan, o‘quv markazida, kompyuter kurslarida va kutubxonada faoliyat yuritadilar. Men ko‘proq nogironlarni ish bilan ta‘minlashni ma‘qul ko‘raman. Chunki ular ham inson ularda sog‘lom odamlarga nisbatan o‘ziga bo‘lgan ishonch kuchliroq bo‘ladi. Masalan hayotimizga kompyuter texnologiyalari kirib kela boshlagan dastlabki davrlarda bir qo‘li yo‘q qizcha (ismini oshkor qilishni istamadi) o‘quv markazimizga kirib keldi va kompyuterda Word, Excel, Power point kabi dasturlarni o‘rganish istagi borligini aytdi. Biz uni o‘qitib, mutaxassis sifatida sertifikat berdik. Hozirda u qiz bir tashkilotda kotiba ish yurituvchi lavozimida faoliyat yuritmoqda. Bundaylar soni juda ham ko‘p men sizga bitta misol keltirdim holos, deydi suhbatdoshimiz.

Yana bir 47 yoshli tadbirkor Andijon viloyati Jalaquduq tumanida istiqomat qiluvchi Komilov Otabek Odilovich o‘zining yashash xonadonida tikuv tirkotaj sexi tashkil qilgan. Sexda asosan mahalliy bozorga mavsumga qarab, ko‘ylak,

shim, kamzul, kurtka, palto kabi kiyim kechaklar tikiladi. Tadbirkor dastlab 5 ta tikuv mashinasi bilan faoliyat boshlagan bo‘lib, bugungi kunda uning soni 30 dan ortib ketgan. Shuningdek, qishloq xotin-qizlarining 40 nafarini doimiy ish joyi bilan ta’minlagan.

Andijon tumani Orol qishloqida istiqomat qiluvchi fuqaro Qo‘chqorov Rustam Qurbonaliyevich esa tadbirkorlikni boshlash maqsadida 2012 yilda pishgan g‘isht ishlab chiqarish zavodini ishga tushurgan. 1 ta 24x24 o‘lchamli humdon va 20 nafar ishchi bilan faoliyat boshlagan tadbirkor, bugungi kunga kelib 80 nafar qishloq aholisini ish bilan ta’minlagan. Zavodda 1992 yilda yiliga 1 mln dona pishiq g‘isht ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2 ta 48x48 o‘lchamli humdonda pishirilgan g‘ishtlar soni 2020 yilga kelib, 20 mln donaga yetgan.

So‘nggi yillarda ham aholini ish bilan ta’minlash borasida olib borilgan islohotlarga qaramay, aholi sonining ortishi bilan ishsizlik darajasi ham keskin ortib borgan. Misol uchun, 2000 yilda respublika aholisining 0,4 foizi ishsiz bo‘lgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib bu raqam 10,5 foizni tashkil etgan. Andijon viloyatida 0,3 foizdan, 10,9 foizga, Namangan viloyatida 0,5 foizdan 10,9 foizga va Farg‘ona viloyatida 0,2 foizdan 10,9 foizga ortganini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

### *1.5-jadval*

#### **Ishsizlik darajasi (foizda)**

<b>Hudud</b>	<b>2000 yil</b>	<b>2010 yil</b>	<b>2020 yil</b>
O‘zbekiston Respublikasi	0,4	5,4	10,5
Andijon viloyati	0,3	5,8	10,9
Namangan viloyati	0,5	5,9	10,6
Farg‘ona viloyati	0,2	5,7	10,9

Bu davrda davlat budjeti mablag‘lari bilan bir qatorda homiylik mablag‘lari ham keng jalb etilishi natijasida qishloqda ishsizlar sonining qisqarishiga olib keldi. Vodiy qishloqlarida aholi bandligi tizimi moddiy ishlab chiqarish, savdo-sotiq, umumiy ovqatlanish sohalaridagi bandlik hisobiga oshdi.

1991-1995 yillarda mehnatga yaroqli yoshdagi aholini ish bilan ta'minlash yuzasidan ishlab chiqilgan hukumat Dasturi doirasida ish bilan band bo'lganlar salmog'i 59 foizdan 70 foizga ortgan bo'lsa-da, bu masala hamon dolzarbligicha qolgan edi. Bu muammolarni 2000-2020 yillar davomida ham kuzatilganligini quyida berilgan jadval orqali ham ko'rish mumkin.

**1.6-jadval**

**Bandlik darajasi (foizda).**

	2000 yil	2010 yil	2020 yil
O'zbekiston Respublikasi	69,4	66,9	66,1
Andijon	70,9	69,3	67,1
Namangan	60,8	57,4	64,4
Farg'ona	72,5	69,4	64,6

Mazkur yo'nalishdagi muammolar tadqiqotning keyingi yillarida ham ko'zga tashlanganligini quyidagi 1.5-jadvalda ko'rib o'tish mumkin. Masalan, 2000 yilda respublika aholisining 69,4 foizi ish bilan band bo'lsa, 2010 yili 66,9 foiz, 2020 yilda 66,1 foizi doimiy ish o'rinlariga ega bo'lgan. Andijon viloyatida bu ko'rsatkich 70,9 foizdan 67,1 foizga va Farg'ona viloyatida 72,5 foizdan 64,6 foizga kamaygan bo'lsa, Namangan viloyatida 60,8 foizdan 64,4 foizga ortgan.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan raqamlarning asosiy sabablaridan biri aholi sonining ortishi va demografik jarayonlar bilan bog'lansa, ikkinchi sababi vodiy viloyatlari qishloqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishdagi yuzaga kelayotgan muammolar bilan izohlanadi.

Respublikada 2009 yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilinishi natijasida qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilash, qishloq joylarida ishlab chiqarish korhonalari va ijtimoiy infratuzilmani yanada barqarorlashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etilishini jadallashtirish dasturi asosida Farg'ona viloyati qishloq joylarida 13 mingga yaqin ishchi o'rinlari yaratilgan. Mazkur viloyatda sanoat

tizimini rivojlantirish hamda mahalliyashtirish dasturi asosida 35 ta korxonada texnik va texnologik qayta jihozlash, modernizatsiyalash hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan hamda 15 ta sanoat korxonasi ishga tushirilgan. 2010 yilda bandlik dasturi doirasida yaratilgan ish o'rinlarining 70,2 foizi qishloq joylariga to'g'ri kelgan.

Qishloqlarda faoliyat ko'rsatgan xususiy va kichik korxonalar asosan xalq iste'moli mollari, qurilish materiallari, savdo-tayyorlov, tijorat xizmatlariga ixtisoslashgan. Dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiylashgan fermalar chorvachilik, bog'dorchilik, uzumchilik hamda pilla yetishtirish bilan shug'ullangan. Qishloq xo'jaligida 1990 yili xususiy sektorlar va dehqon xo'jaliklarining ulushi 28 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1997 yilda u 53 foizga yetgan.

Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari qishloq ahlining tadbirkorligi va mehnatdagi faolligini o'stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratildi. Andijon viloyatining aholi zich joylashgan tumanlarida yangi ish o'rinlarini yaratish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida trikotaj va tikuv sexlari ochilgan. Oltinko'l, Shahrixon, Jalaquduq va Qo'rg'ontepa tumanlarida joylashgan qishloq hududlarida har birida 150-160 nafar ishchisi bo'lgan 4 ta tikuv-trikotaj sexi, viloyatning boshqa tumanlarida esa ishlab chiqarish bilan bog'liq 100 ga yaqin sex, fabrika, zavod hamda kichik korxonalar tashkil etilgan.

Bu davrda qishloq mehnat ahli orasida shaxsiy ishlab chiqarish xo'jaligi bilan band qatlamning miqdori ortib, bu sohadagi bandlikning eng muhim shakllaridan biriga aylangan. 1997 yilga kelib Andijon viloyati bo'yicha 7,9 ming ishchi o'rni yaratilgan. Uning 71 foizi qishloq joylariga to'g'ri kelgan bo'lsa, jami 577,1 ming kishi ish bilan band bo'lgan.

Mehnat organlari ko'magida kvotalangan ish joylariga 6 ming 553 nafar fuqaro ishga joylashtirilgan. Viloyat Mehnat boshqarmasi dasturi asosida 23 ming 948 ta yangi ishchi o'rinlari barpo etilib, shundan 19 ming 922 tasi qishloq joylarida yaratilgan. Lekin turli sabablarga ko'ra Baliqchi, Bo'z (hozirgi Bo'ston), Jalaquduq tumanlarida yillik dastur bajarilmagan. Uning bajarilmaganlik

sabablaridan biri rejalashtirilgan ob'ektlar o'z vaqtida moliyalashtirilmaganligida bo'lgan.

Qurilish sohasida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida Paxtaobod tumanida yiliga 170 ming dona shifer, Xo'jaobod tumanida 2 ming tonna ohak, Oltinko'l tumanida 6 ming tonna sement va Asaka tumanida 4 mln dona g'isht ishlab chiqaruvchi korxonalar ishga tushirilgan. Bu davrda viloyatda jami 58 ta g'isht zavodi mavjud bo'lib, ular kuniga 670 ming va yiliga 156 mln 300 ming dona g'isht ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan.

Andijon tumanidagi Xakan qishlog'ida g'isht ishlab chiqarish zavodlari, Baliqchi tumani Chinobod qishlog'ida paxta tozalash zavodi va ip yigiruv fabrikasi, Izboskan tumani To'rtko'l qishlog'ida poyabzal fabrikasi, Chuvama qishlog'idagi ip-yigiruv fabrikasi, Jalaquduq tumani Yorqishloq va Oyim qishloqlarida ip-yigiruv fabrikasi, Xo'jaobod tumani Hamzaobod qishlog'ida aroq-vino, konserva, meva quritish, polimer va asfalt zavodlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Aholi turmush tarzi va talablaridan kelib chiqib, Farg'ona viloyatining qishloq joylarida 63 ta savdo, 12 ta umumiy ovqatlanish, 11 ta kiyim tikish va ta'mirlash, 18 ta sartaroshxona, 5 ta poyabzal ta'mirlash, 1 ta maishiy texnikani ta'mirlash, 2 ta suratxona kabi jami 137 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari tashkil etildi. Rishton tumanida 1996 yilning o'zida 75 tadan ortiqroq etikdo'zliq, 84 ta sartaroshlik xizmati, 20 ta tikuvchilik, 5 ta kir yuvish joylari, 7 ta rasmxona, bir necha radio va televizor tuzatish ustaxonalari aholiga xizmat ko'rsatgan. Qishloq hududlarida tashkil etilgan mahalla guzarlari xizmat turlarining barchasini o'z ichiga qamrab olib, odamlarning haqiqiy dam olish maskanlariga aylantirilgan. Lekin aholiga xizmat ko'rsatish tarmog'ida tashkil qilingan ishlar bilan bir qatorda hali hal etilishi zarur muammo va kamchiliklar ham mavjud bo'lgan.

Namangan viloyati bo'yicha 1994 yilda 14 mingdan ko'proq kishi ish so'rab, mehnat birjalariga murojaat qilgan bo'lsa, shulardan 10,3 ming nafari bandlik bo'limlari orqali ishga joylashtirilgan. Ishsizlardan 692 nafari 17 xil yo'nalishdagi kasblarga o'qitilgan hamda 1 ming 600 nafardan ko'proq kishi

maosh to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilib, 1 ming 560 nafar kishiga ishsizlik nafaqasi to'langan.

1998-1999 yillarda «Kosonsoy-Tekmen», «Pop-Fen», «Marvel Djus Ko», «Sil Roadi», «Asnam-Tekstil», «Sib-Nam» kabi ko'plab qo'shma korxonalarda 102 ming 200 ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan. 2000 yilga kelib, viloyatda mavjud 11 ming 300 ta kichik va o'rta biznes korxonalarida 42 ming 820 nafar ishchi-xodim mehnat qilgan. Shuningdek, 20 mingga yaqin fuqaro yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritgan.

Yangiqo'rg'on noto'qima materiallari fabrikasi, bir qator g'isht zavodlari hamda Kosonsoy tumani «Kosonsoy» jamoa xo'jaligidagi konserva sexi foydalanishga topshirilgan. O'zbekiston–Turkiya davlatlari hamkorligida «Asnam-tekstil» qo'shma korxonasi qurib bitkazilgan. Chust tumanida bir sutkada 1,5 tonna qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan fabrika ish boshlagan.

Mustaqillik yillarida Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Masalan, Andijon viloyatida 2005 yilda 22 ming 999 kishi mehnat bo'limlari tomonidan ishga joylashgan bo'lsa, 2006 yilda 23 ming 408 kishi ish o'rinlari bilan ta'minlangan. Ishga joylashtirishning yuqori darajasi Namangan (82,1 foiz), Mingbuloq (81,6 foiz) va To'raqo'rg'on (81,0 foiz) tumanlarida qayd etilgan. 2006 yili Farg'ona viloyatida ishga joylashtirish vodiy bo'yicha yuqori samaraga ega bo'lib, 85,6 foizni tashkil etgan.

O'z navbatida Toshloq, Furqat tumanlari, Marg'ilon, Farg'ona, Quvasoy shaharlarida ishga joylashganlar salmog'i 90,0 foizdan ortgan. Viloyat bo'yicha eng quyi daraja So'x tumanida qayd etilib, 2006 yilda mehnat bo'limlariga ish so'rab murojaat qilganlarning 66,2 foizigina ish bilan ta'minlangan. Bu o'rinda Farg'ona vodiysidagi aholining o'sish darajasidagi barqarorlik uning tarkibida yosh avlod salmog'ining nisbatan ko'pligi, aholi va mehnat resurslarining nisbatan zich joylashgani, yer-suv resurslarining cheklanganligi, o'zlashtiriladigan yerlarning qolmaganligi, sanoat tarmoqlarining aholini ish bilan bandligi

darajasiga nisbatan oldingi o'rindaligi kabilarda namoyon bo'ldi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2013-2014 yillarda Farg'ona viloyatida 4 ming 854 ta xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etilib foydalanishga topshirildi. Buning hisobiga 15 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Yangi korxonalar tashkil etish, xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish, ko'p tarmoqli xo'jaliklar faoliyatiga asos solinishi natijasida 2014 yil 93 mingga yaqin yangi ish o'rni tashkil etildi, ulardan 69 mingdan ortig'i yoki 71 foiz qishloq joylarida yaratildi.

Farg'ona viloyati, ayniqsa, yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni va ishlab chiqarish hajmlarining yuqoriligi bilan respublikada yetakchi o'rinlarda turadi. Xususan, Qo'qon shahridagi «Indorama Kokand Textile» O'zbekiston-Singapur qo'shma korxonasida 2010-2014 yillar davomida 1000 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilib, ularning 75 foizini ayollar band etdi. «Indorama Kokand Textile» qo'shma korxonasi faoliyati yo'lga qo'yilishi korxonaga yaqin 25 km masofadagi 350 dan ortiq mahalliy aholi vakillarini doimiy ish o'rni bilan ta'minladi. Qo'shma korxonaga uchinchi navbatining ishga tushirilishi yana 100 nafarga yaqin mahalliy aholini, xususan yoshlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatini berdi.

Ijtimoiy siyosat, bu – odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la-to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirishdir. Bu mexanizm jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni shakllantiradi. Sh.M.Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabr kuni Andijon viloyati saylovchilar vakillari bilan bo'lgan uchrashuvidagi nutqida viloyatda mavjud 140 ta qo'shma korxonaning 72 tasi ilgari bunday korxonalar bo'lmagan tumanlarda tashkil topgani alohida qayd etilgan edi. Keyingi besh yil davomida Andijon viloyatida 10 mingdan ziyod yangi kichik biznes sub'ekti tashkil etilib, ularning umumiy soni deyarli 2,5 barobarga ko'paygan. Eng muhimi, mehnat bilan band aholining 84 foizini shu sohada faoliyat yuritgan tadbirkor yoshlar tashkil etdi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda davlat tomonidan aholini ish bilan ta'minlashda mehnatga layoqati cheklangan fuqarolarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017 yilning o'zida Prezident tashabbuslari bilan 972 nafar nogiron ijtimoiy himoyaga

muhtoj xotin-qizlarga tikuvchilik bilan shug'ullanishlari uchun tikuv mashinalari olib berilishi natijasida ularga qo'shimcha daromad topish imkoniyati yaratildi.

2020 yilning birinchi yarmida mamlakatda rasman ish bilan band bo'lmagan 1 mln 400 mingga yaqin ayollar va yoshlar mavjud bo'lib, ishsizlik darajasi xotin-qizlar o'rtasida 13 foizni, yoshlar o'rtasida esa 15 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, Farg'ona va Andijon viloyatlarida bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan. Bu borada Farg'ona viloyatida 2020 yili 913 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 62 ming 375 ta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan bo'lsa, Andijon viloyatida 2020 yil yanvar–may oylarida qariyb 19 ming nafar yoshlarning bandligi ta'minlandi. Yil oxiriga qadar yana 24 mingdan ziyod yigit-qizlarning bandligini ta'minlash nazarda tutilgan. Jumladan, tadbirkorlik va ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, qurilish kabi sohalarda yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu masalaga alohida to'xtalar ekan, «Meni eng ko'p o'ylantiradigan masala bu yoshlar va xotin-qizlardir, ularga e'tibor, ko'mak kerak. Bilimi, qo'lida kasb-hunari bo'lsa, hayotda o'z o'rnini topib ketadi, dunyoqarashi ham boshqa bo'ladi. Ota-onasi, oilasi ham davlatdan rozi bo'ladi», – deb ta'kidlagan edi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda «Bir joyda – ming oila issiqxonasi» loyihasi amalga oshirilmoqda. 2020 yilda loyiha asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz kambag'al oilalar a'zolarini qishloq xo'jaligi kasblariga o'qitish uchun "Agrobiznes" o'quv markazi tashkil etildi.

So'nggi yillarda hukumat tomonidan ijtimoiy himoya borasidagi ishlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu borada eng kam oylik ish haqi budjet tashkilotlarida ham, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ham barqaror holatga keltirildi. O'rtacha ish haqi miqdori, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmi bosqichma-bosqich ko'paytirildi. Misol uchun, 2019 yilning o'zida nogironligi bo'lgan shaxslarga 2 trillion 600 milliard so'm miqdorida pensiya va ijtimoiy nafaqalar to'langan. Shuningdek, nafaqaga chiqib ishlayotganlarga ularning pensiyasi to'liq to'lanib, ijtimoiy yordamga muhtoj hamda ehtiyojmand fuqarolarga nafaqa miqdori 2 barobar ko'paytirilgan.



Xalqimiz farovonligini oshirish maqsadida «Har bir oila – tadbirkor», «Yoshlar – kelajagimiz», «Obod qishloq», «Obod mahalla» va «Tomorqani rivojlantirish» kabi dasturlar qabul qilindi.

Jumladan, birgina Andijon viloyati Izboskan tumani Urganji qishlog‘ida dastur doirasida guzardagi bino qayta rekonstruksiya qilinib, otalar choyxonasi, oziq-ovqat do‘koni, sataroshxona, «Street Workout» sport maydonchasi, «Raqamli mahalla» IT markazi bunyod etildi. Ushbu markazda bolalarning kompyuter savodxonligi, kibersport dasturlash kabi amallarni bajarishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yoshlarga 10 sotixdan yer ajratilgan. Ularda yoshlar mavsumiy ekinlarni parvarishlab daromad olmoqdalar. Mahalladagi 150 ta xonadonga 50 tadan parranda berilib, o‘zini-o‘zi band qilishi ta‘minlangan.

2020 yilda Pop tumandagi unumsiz yerlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturga asosan, «Nuran uz» mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 1 ming 885 gektar (bundan keyingi o‘rinlarda – ga) adirliklardan iborat o‘zlashtirilmagan yerlarda meva-sabzavotchilik klasteri tashkil etilgan.

Kambag‘allik ko‘p yillar yurtimizda yopiq mavzu bo‘lib keldi. 2020 yil 24 yanvar kuni davlat rahbarining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida bu haqda ochiq-oydin gapirib, mamlakat tarixida birinchi marta kambag‘allikni qisqartirish hukumat oldida turgan ustuvor vazifa sifatida belgilandi. 2020 yil boshidagi «dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatimiz aholisining 12-15 foiz yoki 4-5 millioni kambag‘al bo‘lib, ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so‘mdan oshmaydi», dedi Prezident. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash, aholi orasida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida Prezidentning 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son Qarori va PF-5938-son Farmoni asosida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi hamda vazirlik tizimida hal etilishi lozim bo‘lgan muhim masalalar belgilab berildi. Dolzarb vazifaga aylangan aholi bandligini ta‘minlash, kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash hamda

ijtimoiy himoyasini ta'minlash masalasi davlat siyosatining bosh yo'nalishi ekanini ko'rsatdi.

Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida istiqomat qiluvchi san'atshunos Shoislomova Davlatxon Umarovning ta'kidlashicha, vodiy viloyatlaridagi «Kolxoz» va «Shirkat» xo'jaliklarida qishloq mehnatkashlarining mehnat huquqlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun Kasaba uyushmasi faoliyat yuritgan. Qishloq joylarida Kasaba uyushmasining ahamiyati katta bo'lgan. Misol uchun kasal odamlarga bepul davolanish imkoniyati va kasallik varaqasi berilib, ishlamagan davri uchun oylik maosh belgilanar edi. Keyinchalik, 2005-2007 yillarga kelib, dehqon va fermer xo'jaliklari tashkil etilishi natijasida «kolxoz» va «shirkat» xo'jaliklar faoliyati yakunlanishi bilan o'z-o'zidan Kasaba uyushmasi faoliyati ham nihoyasiga yetgan. Keyinchalik joylarida o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni, mahalla instituti tashkil etilishi natijasida aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi bilan asosan mahalla fuqarolar yig'ini mas'ullari shug'ullana boshladi. Shuningdek, mazkur davrda qishloqlardagi «kolxoz» va «shirkat» xo'jaliklarida kutubxonalar, klublar va madaniyat markazlari ishlab turgan va ular orqali qishloq mehnatkashlari madaniy hordiq chiqarishga muvaffaq bo'lgan.

Aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan besh tamoyil asosida shakllantirildi. O'zbekistonda ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, sohaga oid qonunlarda o'z aksini topdi.

Birinchidan, eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar narh-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi hamda aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'yilmadi.

Ijtimoiy himoyaning ikkinchi yo'nalishi – qishloq ho'jaligi mollarini yetishtirish va qayta ishlash orqali oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishni ko'paytirishdan iborat bo'ldi.

Uchinchi yo‘nalish – kam ta‘minlangan aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarida namoyon bo‘lib, unda asosan, kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron va ko‘p bolali kam daromadli oilalar, ishsiz fuqarolar hamda o‘quvchi yoshlar himoya qilib borildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda, qolaversa, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi zamonaviy tizimi shakllantirildi. Bu tizim o‘z navbatida aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishni nazarda tutgan. Shu boisdan ham barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi. Bunday yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan ishlarning, eng avvalo, mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan muntazam tarzda amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston Respublikasining qaysi viloyatlarini o‘z ichiga oladi?
2. XXI asr boshlariga kelib Farg‘ona vodiysida respublika aholisining necha foizini istiqomat qilgan?
3. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoya qilish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentabrdagi «Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qaroriga asosan, qanday hollarda nogironlik pensiyasi tayinlanishi belgilandi?
5. Farg‘ona vodiysida ishsizlikning kelib chiqish sabablari jihatidan ishsizlarni qanday turkumlarga bo‘lish mumkin?
6. Qishloq joylarining iqtisodiy rivojlanishida mehnat migrantlarining roli qay darajada bo‘lgan?
7. Aholini ish bilan ta‘minlash masalasida xususiy tadbirkorlarning tutgan o‘rni nimalarda ko‘rinadi?

**Tayanch soʻzlar:** Fargʻona vodiysi, qishloq, qishloq aholisi, ijtimoiy himoya, pensiya va nafaqa, yakka-yolgʻiz, nogiron, ish oʻrinlari, mehnat boziri, ishchi kuchi, tadbirkorlar, ishlab chiqarish korxonalari, sexlar, qoʻshma korxonalar.

## **1.2. Qishloqlarda uy-joylar qurish, tabiiy gaz, elektr energiyasi hamda toza ichimlik suvi bilan taʼminlash masalalari**

Aholi turmush darajasini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri fuqarolarning uy-joy bilan taʼminlanishi hisoblanadi. Mustaqillik arafasida aholiga uy-joy qurish uchun tomorqa yerlarini ajratib berish jiddiy muammolardan biri edi. 1989 yil 17 avgust kuni Toshkentda boʻlib oʻtgan yigʻilishda Birinchi Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan «Qishloqlarda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan taʼminlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida» tarixiy hujjat qabul qilindi. Ushbu qaror ijrosi boʻyicha 1989–1990 yillarda 1,5 mln oilaga qoʻshimcha yer ajratilishi va 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlarining berilishi ushbu dolzarb muammoni hal etilish yoʻlidagi dastlabki qadam boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan 1992 yil yanvar oyida Andijon viloyatidagi 39 ming 134 ta yangi oilaga uy-joy qurish uchun qoʻshimcha 4 ming 123 *ga* yer hamda tomorqa maydonlarini kengaytirish uchun 69 ming 214 ta xonadonga 4 ming 626 *ga* yer maydoni berilgan boʻlsa-da, Shahrixon va Boʻz tumanlarida aholiga yer ajratish boʻyicha berilgan topshiriqlar toʻla bajarilmagan. Bunday holat Baliqchi, Qoʻrgʻontepa va Andijon tumanlarida ham kuzatilgan.

Oʻz navbatida uy-joy bilan taʼminlash borasidagi ishlarda qator muammolar mavjud edi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1990 yil 19 noyabrdagi Farmoniga asosan qishloqlarda davlat va idoralarga qarashli uy-joylarni xususiy mulk tariqasida oʻzlariga oʻtkazib berishni soʻrab ariza topshirgan 3 ming 873 nafar maorif xodimidan 280 kishining arizasi ijobiy hal etilgan, xolos. Aholini uy-joy bilan taʼminlash masalasi oʻrganilganda, 1994 yilga kelib viloyatdagi 6 ming

100 nafar o'qituvchi, tarbiyachi va ishlab chiqarish ustalariga o'zlarini yashab turgan uylari bepul xususiy mulk sifatida rasmiylashtirib berilganligi aniqlandi, 5 ming 200 nafar o'qituvchi va tarbiyachilarga shaxsiy uy qurish uchun yer ajratilgan.

Farg'ona viloyatida 1991–1992 yillarda yosh oilalarga (2 ming 59 ta) 429 ga yer maydoni ajratilib, imorat qurayotgan oilalar uchun 4 ming 860 dona tol va terak, 110 ming dona g'isht arzon baholarda tarqatilgan. 1992 yil davomida kapital qurilish sohasida 3 mlrd 450 ming so'mlik kapital mablag'lar o'zlashtirilishi hisobiga 41 ming metr kvadrat (bundan keyingi o'rinlarda – m<sup>2</sup>) turar joylar qurilib, foydalanishga topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 5 martdagi «Uy-joy qurilishini rag'batlantirish va rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan davlat dasturiga asosan Andijon viloyatida kam ta'minlangan oilalarga uy-joy qurish uchun 8 mlrd so'm kapital mablag' ajratilib, yakka tartibdagi uy-joylarning qurilishi yo'lga qo'yilgan. 1997 yilga kelib viloyat qishloqlarida 432 ming m<sup>2</sup> uy-joy qurilgan. O'z navbatida sobiq viloyat hokimi Q.Obidovning tashabbusi bilan viloyatning cho'l hududi hisoblangan Ulug'nor va Bo'z tumanlarida uy-joylarning qurilishi ushbu tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. O'sha yili viloyatda 445 ming m<sup>2</sup> uy-joy qurilib, foydalanishga topshirilgan. Oltinko'l, Paxtaobod, Ulug'nor, Izboskan, Asaka hamda Andijon tumanlarida uy-joylar qurilishi «2-Agroqurilish», «Kolxozqurilish», «Viloyat avtoyo'l» birlashmalari va viloyat matlubot jamiyatlari uyushmalari tomonidan bajarilgan.

Namangan viloyatida ham bu borada 1992–2000 yillar davomida 136 ming 126 ta oilaga yer uchastkasi berilib, 90 ming 465 ta xonadonning hovli to'ylari o'tkazilgan. Jumladan, 1999 yilning o'zida 100 ming oilaga shaxsiy tomorqa uchun yer ajratilgan. Bu yo'nalishda Farg'ona viloyatida 50 ming ga unumdor yerlar tomorqa va uy-joylar qurish uchun ajratib berilganligi natijasida dehqon xonadonining tomorqasi kengayib, ekinlardan qo'shimcha hosil olish yoki uy qurish imkoniyati yaratilgan.

Viloyatda 1997 yilda 700 ming m<sup>2</sup> uy-joy maydonlari qurilishi mo'ljallangan bo'lib, shundan 686 ming m<sup>2</sup> yakka tartibdagi aholi o'z mablag'lari hisobiga qurilishi rejalashtirilgan. Arxiv materiallari asosida yil yakunlari tahlil qilinganda, 564,8 ming m<sup>2</sup> uy-joylarning 99 foiz aholi mablag'lari hisobiga qurilib, foydalanishga topshirilganligini ko'rish mumkin.

1996 yilning 21 mayida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2000 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi qishloq infrastrukturasi rivojlantirish Dasturi» to'g'risida Qarori qabul qilindi. Qishloqning iqtisodiy va mehnat imkoniyatlaridan yanada to'liq va samarali foydalanish maqsadida Moliya, Sog'liqni saqlash va Xalq ta'limi vazirliklariga 2000 yilgacha qishloq infrastrukturasi rivojlantirishga doir ishlarni amalga oshirish mas'uliyati yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 3 avgustdagi Qarori yuzasidan 159 qishloq tumanlarida namunaviy loyihalar asosida 900 dan ortiq yangi uy-joy massivlari barpo etilib, umumiy maydoni 4 mln 500 ming m<sup>2</sup> bo'lgan 33 ming 500 dan ziyod yakka tartibdagi uy-joylar foydalanishga topshirilgan.

Qishloq aholisining uy-joyga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida yakka tartibda uy-joy qurish uchun «Qishloq qurilish loyiha» instituti tashkil etilib, kredit asosida moliyalashtirish borasida «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik-tijorat banki o'z faoliyatini boshladi. Bu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va «Ipoteka bank» aksiyadorlik-tijorat banki ham jalb etildi.

«Qishloq qurilish bank» kreditlari hisobidan yakka tartibda uy-joy qurayotgan qishloq aholisi ipoteka kreditlarini qaytarish va ularning ustama foizlarini qoplashga yo'naltiriladigan daromad soliqlari hamda sotib olingan uy-joydagi mulk uchun ipoteka kreditini to'liq to'lagunga qadar boshqa soliqlar to'lashdan ozod etildi.

2009 yil 1 iyun holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida jami 219,8 ming m<sup>2</sup>, shundan qishloq hududida 203,6 ming m<sup>2</sup> yakka tartibdagi uy-joylar qurilgan. 2010

yilda viloyatning 15 ta tumanida, 25 ta qishloq aholi massivlarida 610 ta uy-joy 62,11 gektar yer maydonida namunaviy loyihalar asosida 36 ming 897,7 mln so‘m kapital harajati bilan qurilgan bo‘lib, ushbu uylar tayyor holatda injiring kompaniyasi tomonidan yakka tartibda quruvchi (fuqarolar) bilan tuzilgan shartnomalarga asosan o‘z egalariga topshirilgan. 2011 yil Dasturiga muvofiq 15 ta qishloq tumanlaridagi 32 ta massivda jami 675 ta namunaviy uy-joylar qurish rejalashtirilib, yil yakunida barcha uy-joylar qurib, bitkazilgan.

2010 yili respublikadagi barcha 159 ta qishloq tumanlarida namunaviy loyihalar bo‘yicha tayyor holda topshirish sharti bilan 6 ming 800 ta uy-joy barpo etildi. 2012 yilda mamlakat miqyosida 9,3 mln m<sup>2</sup>, shu jumladan, qishloq joylarda 7,2 mln m<sup>2</sup> uy-joy foydalanishga topshirilgan. O‘tgan yillar mobaynida yurtimizda uy-joy hajmining ko‘rsatkichi qariyb ikki barobarga oshgani, qishloqlarda yashayotgan oilalarning 97,5 foiz shaxsiy tomorqasiga ega bo‘lgani ayni shu maqsadda amalga oshirilgan milliy dastur samarasidir, albatta.

Qishloq joylarida namunaviy uy-joylar qurish dasturi doirasida 2009-2012 yillarda Farg‘ona viloyatining 87 ta massivida qurilgan 2 ming 25 ta uy-joy uchun uy egalariga jami 102 mln 107 ming 125 so‘mlik kredit mablag‘lari ajratilgan.

Shu o‘rinda qishloq infratuzilmasini yangilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari natijasida qishloqlarning qiyofasi zamonaviy arxitektura asosida tubdan o‘zgartirishga «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qaror muhim poydevor vazifasini bajardi.

Namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish dasturi ijrosiga 1,2 milliard dollardan ziyod miqdordagi investitsiyalar yo‘naltirilishi natijasida umumiy maydoni 1,4 mln m<sup>2</sup> bo‘lgan 10 mingta barcha qulay shart-sharoitlarga ega uy-joylar qad rostladi va 353 ta qishloq massivi hududida boshlangan qurilish ishlari nihoyasiga yetkazildi.

2012 yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joylarni qurish Dasturiga asosan Farg‘onaning 14 ta tumanidagi 28 ta qishloq massivlarida 700 ta namunaviy loyiha asosida uy-joylar qurilishi rejalashtirilib, 19

kilometr (bundan keyin – km) ichimlik suvi, 19,1 km elektr energiyasi va 31,5 km tabiiy gaz tarmoqlari tortish hamda 23 km ichki yo‘llar qurish belgilangan. Shuningdek, uy-joy massivlarida yashovchi aholiga qulaylik yaratish maqsadida jami 41 ta (shundan, 13 ta mahalla guzari, 8 ta savdo majmuasi, 3 ta bozorcha, 9 ta novvoyxona, 5 ta maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari, 1 ta minibank) ijtimoiy va bozor infratuzilmasi ob‘ektlari foydalanishga topshirilgan. 2013 yilda ham 29 ta massivda 700 ta namunaviy loyihada uy-joy qurilishi uchun 70 ga yer maydoni ajratilgan. Ushbu massivlarida 23 ta ijtimoiy ob‘ektlar (1 ta umumta‘lim maktabi, 1 ta qishloq vrachlik punkti, 6 ta guzar, 4 ta savdo majmuasi, 5 ta novvoyxona, 5 ta maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi, 1 ta minibank) qurilib, 23,5 km ichki yo‘l, 24,2 km ichimlik suvi, 30,8 km elektr, 30,1 km gaz tarmoqlari tortilgan.

2013 yilda qishloq joylarda yakka tartibdagi yangi uy-joylarni qurish 8,5 mingtadan 10 mingtaga yetkazilgan. Bu maqsadlar uchun 1 trln 400 mlrd so‘m, ya‘ni o‘tgan yilga nisbatan 54 foizdan ortiq mablag‘ sarflangan. Qishloqlarda uy-joy qurilishini rivojlantirish dasturini amalga oshirish ishlariga esa 2 mlrd 200 mln AQSh dollari qiymatida mablag‘ yo‘naltirildi.

2015 yilda birgina Farg‘ona viloyatining 30 ta massivida 1 ming 19 ta namunaviy loyiha asosida uy-joylar qurilgan bo‘lsa, Namangan viloyatining massivlarida namunaviy loyihalar asosida 4 mingdan ortiq uy-joy foydalanishga topshirildi. Shuningdek, mazkur massivlarda 114 ta infratuzilma ob‘ekti barpo etilishi bilan bu uylarda istiqomat qilgan fuqarolar uchun qulay hayotiy shart-sharoitlar yaratib berildi.

O‘z navbatida Namangan viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvda Shavkat Mirziyoev qishloq infratuzilmasi masalasiga alohida to‘xtalib, 2009 – 2016 yillarda viloyatda 182 ta qishloq massivlarida namunaviy loyihalar asosida 5 mingga yaqin uy-joy qurilib, foydalanishga topshirilganini qayd etgan edi.

Tadqiqot ishi doirasida aholini uy-joy bilan ta‘minlash masalasida amalga oshirilgan ishlarni uch bosqichga bo‘lib tahlil qilish mumkin:

Birinchi bosqich 1989–2005 yillarda aholiga davlat tomonidan uy-joy qurish va tomorqa uchun sug‘oriladigan yer maydonlarida uchastkalar ajratildi.



Ikkinchi bosqich 2006–2016 yillarda zamonaviy loyihalar asosida namunaviy 1 va 2 qavatli kotejlar barpo etildi.

Uchinchi bosqichga esa 2017 yildan hozirgi kunga qadar, zamonaviy loyihalar asosida qurilgan ko‘p qavatli arzon uy-joylar kiradi. Ushbu uylar asosan iqtidorli yoshlar, yosh oilalar, kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan, nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda yolg‘iz onalarga subsidiyalar asosida berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Albatta, bu davrda mamlakatda ushbu yo‘nalish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, sohada ko‘plab kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Hozirda bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha aniq va maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Qishloq aholisining ehtiyoj va talablari e‘tiborga olinib, qishloq joylarda arzon uy-joylar qurish dasturi amaliyotga tatbiq qilindi. Mazkur sohada 2017 yilning o‘zida qishloq joylarda 15 mingdan ortiq yangi namunadagi arzon uy-joy qurilib bitkazildi.

Hozirgi davrda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasi amalga oshirilmoqda. Shahar va qishloqlarimizda jami 3,5 million m<sup>2</sup> dan ziyod namunaviy uylar va ko‘p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu raqamni avvalgi yillarga taqqoslaydigan bo‘lsak, 2007 yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2010 yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014 yilga nisbatan esa 2 barobar ko‘p uy-joy qurilganini ko‘ramiz. 2017 yilning o‘zida 800 ming m<sup>2</sup> dan ziyod ana shunday uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirildi.

Yil davomida respublikada kam ta‘minlangan fuqarolarni uy-joylar bilan ta‘minlash borasida ham sezilarli ishlar olib borildi. Jumladan, kam ta‘minlangan, uy-joyga muhtoj 1 ming 200 dan ortiq nogiron fuqarolarga arzon uy-joy ajratish bo‘yicha shartnomalar imzolanib, boshlang‘ich to‘lovlar uchun 22 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Qishloq joylarda yangi namunaviy loyihalar asosida 24 mingta uy-joy barpo etildi. Aholini markazlashtirilgan tarmoqlar orqali suv bilan ta‘minlash maqsadida 218 ta loyiha amalga oshirilib, 350 ming kishining suv ta‘minoti yaxshilandi.

Mamlakatda mazkur yo‘nalishdagi islohotlar 2018 yilda ham davlat siyosati darajasida davom ettirildi. «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari asosida qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi hamda natijada 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo‘ldi.

2019 yilda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Qishloq joylarda 17 ming 100 ta arzon va shinam uylar qurildi. Kam ta‘minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so‘mdan ziyod boshlang‘ich badal to‘lab berildi.

Koronavirus pandemiyasi sababli iqtisodiyotni barqarorlashtirish kunning dolzarb vazifalaridan biri aylandi. Bugungi kunda yerdan unumli foydalanish hisobiga aholini uy-joy va ish bilan ta‘minlash masalasi ijobiy yechim topmoqda. «Zamonaviy qishloq» loyihasi asosida boshqa turar joylardagidan farqli zamonaviy uylar qurish borasida Andijon tajribasi yaratildi.

Mamlakat mustaqilligining 28 yillik bayrami arafasida 60 nafar xotin-qiz yangi uy sohibasiga aylandi. 2018 yilda 469 nafar ayol uy-joy bilan ta‘minlandi. Ularni kambag‘allikdan chiqarish choralari ko‘rilib, qisqa vaqtda ana shu oilalarning mehnatga layoqatli 18 ming 837 nafar a‘zosi ishga joylashtirildi. Xususan, 1 ming 7 bosh echki, 407 mingta parranda va 6 mingga yaqin quyon tarqatish orqali xonadonlarning o‘zida ish o‘rinlari yaratildi.

Aholining uy-joyga bo‘lgan talabini to‘liq ta‘minlash maqsadida yangi ipoteka tizimi sinovdan o‘tkazilib, viloyatlarda 4 mingta uy-joy xususiy sektor tomonidan qurildi. Prezident ta‘kidlab o‘tganidek, «...Vatanimiz ichra har bir inson o‘zining «kichik vataniga» – uy-joyiga ega bo‘lsa, bizdan xalqimiz ham, Yaratgan ham rozi bo‘ladi».

Davlat rahbari joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 2020 yil 21-22 may kunlari Andijon viloyatiga qilgan safari chog‘ida «Zamonaviy qishloq» loyihasi taqdimoti bilan tanishdi. Bu borada Paxtaobodning Bo‘ston qishlog‘i hamda

Qo'rg'ontepa tumanidagi Yangi hayot mahallasi uchun ishlab chiqilgan rejaga muvofiq qishloq hududlariga zarur muhandislik kommunikatsiyalari tortilib, ko'p qavatli uylar qurildi. Ular, avvalo, bir uyda ko'pchilik yashagan, muhtoj oilalarga berildi. Zamonaviy qishloqda maktab, bolalar bog'chasi, tibbiyot muassasasidan tashqari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish tarmoqlari, «Book cafe», minibank shoxobchasi, sport-ko'ngilochar maskanlar, avtobekat, aholi uchun barcha qulayliklar yaratilib, qishloqlarimiz ham zamonaviy, yashash qulay maskanlarga aylandi.

Prezident bu borada Andijon tajribasini yaratish kerakligini ta'kidladi. Buning uchun alohida dastur ishlab chiqarish, «Zamonaviy qishloq»dagi uylarni boshqa turar joylarga nisbatan arzon qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. 2020 yilda viloyatda 6 ming 196 ta, 2019 yilga nisbatan 2 barobar ko'p uy qurildi. Uy-joyga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etilib, Andijon viloyatida 819 ta oilaga subsidiya ajratildi.

Qishloq bilan shahar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, qishloqlardagi ijtimoiy ahvolni yaxshilash, ularni ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturlarini hech kechiktirmasdan amalga oshirish siyosiy mazmunga ega bo'lgan davlat ahamiyatiga molik masaladir. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1990 yil 28 iyuldagi Farmonida qishloqlardagi mavjud qoloqliklarni bartaraf etish hamda aholini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash vazifasi o'z aksini topgan edi.

Istiqlol arafasida qishloq aholisini yillar davomida qiynab kelgan ijtimoiy muammolar qatorida ularning elektr energiyasi, ichimlik suvi, tabiiy gaz va yo'lga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish dolzarb hisoblanadi. Bu yo'nalishda Andijon viloyatida aholini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlashni talab darajasiga yetkazish maqsadida Prezident Farmoni asosida dastur tasdiqlangan bo'lib, joylarda ishlar tashkil etilgan. Jumladan, viloyatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashning 1990–1992 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi» ijrosi yuzasidan 1200 km gaz quvuri tortilgan, 430 km ichimlik suvi yoki rejalashtirilgan

barcha suv tarmoqlari foydalanishga topshirilgan. Lekin, ayrim sabablarga ko'ra, Bo'z, Marhamat, Qo'rg'ontepa va Shahrixon tumanlarida ichimlik suvi, Paxtaobod, Bo'z, Jalaquduq, Izboskan tumanlarida tabiiy gaz tarmoqlarining qurilishi bo'yicha davlat dasturi talab darajasida bajarilmagan.

Bu davrda viloyatda qo'shimcha 210 km ichimlik suvi va 770 km tabiiy gaz tarmoqlari qurilib, 27,5 ming xonadon gazlashtirilgan. Buning natijasida 1990 yilga nisbatan gaz tarmoqlari qurish 3 barobarga, xonadonlarni gazlashtirish 4 barobarga ko'paygan. 1993 yilda viloyatda 300 km gaz quvurlari yotqizish ko'zda tutilgan bo'lib, 9 oy davomida 288 km gaz quvurlari tortilib ishga tushirilgan va 21 ming 260 ta xonadon gazlashtirilgan. Hududdagi ushbu vaziyatni hisobga olgan holda aholini tabiiy gaz bilan ta'minlashning 1994–1995 yillarga mo'ljallangan dasturi ishlab chiqilib, unga asosan qishloq joylarida 1 ming 221 km gaz tarmog'i barpo etilgan.

Qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi izchil amalga oshirilayotganligi sababli qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash 60 foizdan 77 foizga, gaz bilan ta'minlash 27 foizdan 52 foizga ortgan. Suv tarmoqlari qurilishi bo'yicha viloyat dasturi to'liq bajarilib, 118 km tarmoqdan 34 km davlat mablag'lari, 84 km xo'jaliklar va aholi mablag'lari hisobiga qurilgan. Ushbu yo'nalishda Asaka, Baliqchi, Shahrixon tumanlarida topshiriq to'la bajarilgan bo'lsa, Ulug'nor tumanida umuman suv tarmoqlari qurilmagan. Paxtaobod, Marhamat, Jalaquduq, Qo'pg'ontepa tumanlarida esa 25–50 foizga bajarilgan, xolos. «Simens» firmasining valyuta hisobiga sotib olingan 3 ta konteynerini Bo'z tumanidagi Bobur, Marhamat tumanidagi Mash'al, Jalaquduq tumanidagi Isanov nomli jamoa xo'jaliklariga o'rnatish hisobiga 1996–1997 yillarda Bo'z tumanida 9,5 km, Jalaquduq tumanida 32 km, Marhamat tumanida 18 km suv tarmoqlarini qurish belgilangan. Lekin bu ishlar har uchala tumanda ham bajarilmagan yoki buni bajarishda loqaydlikka yo'l qo'yilgan. Viloyatda gaz tarmoqlari qurilishi dasturi Oltinko'l, Xo'jaobod, Jalaquduq va Izboskan tumanlarida 108 foizga bajarilgan. Lekin bu ko'rsatkich Asaka, Ulug'nor,

Paxtaobod tumanlarida bor-yo'g'i 28 – 73 foizni tashkil etgan, xolos. Mazkur davrda viloyatda 371,7 km tabiiy gaz tarmoqlari qurilib, foydalanishga topshirildi.

Aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida qabul qilingan davlat dasturiga asosan 1 ming 156 km ichimlik suvi, 4 ming 609 km tabiiy gaz tarmoqlari tortildi. Xo'jaobod yer osti gaz saqlash ombori qurilib, uni loyihaviy quvvatga chiqarishga erishildi. Joylarda 9 ta avtomatik gaz taqsimlash shoxobchalari ishga tushirildi. Natijada toza ichimlik suvi va gaz ta'minoti yaxshilandi. Agar 1991 yili viloyat aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 71 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 90 foizga, tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi esa 26,1 foizdan 69,1 foizga oshdi.

Respublika hukumati tomonidan tabiiy gaz va ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga alohida e'tibor qaratilib, «1998–2000 yillar davrida qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi to'g'risida»gi Qaror qabul qilindi. Andijon viloyatida bu sohada ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ayrim mutasaddi shaxslarning mas'uliyatsizligi natijasida Andijon, Oltinko'l, Marhamat, Izboskan, Shahrixon tumanlarida qarorda qayd etilgan gaz yo'llari xavfli hududidagi uy-joy va boshqa ob'ektlarni ko'chirish bo'yicha hech qanday ishlar olib borilmagan. Suv va gaz tarmoqlarining qurilishi kamayib, Andijon, Izboskan hamda Qo'rg'ontepa tumanlarida yarim yillik reja to'la holatda bajarilmagan.

Farg'ona viloyatida ham 1992 yilning o'zida 432 km gaz quvurlari tortilib, 18 ming 660 ta xonadon gazlashtirilgan. Lekin bu ishlarning bajarilishida Yozyovon, Rishton va Farg'ona tumanlaridan tashqari hamma joylarda sustkashlikka yo'l qo'yilgan. Viloyatda bu davrda 1 ming 164 ta qishloq mavjud bo'lsa, ulardan faqat 420 tasi tabiiy gazdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu sohada ahvol, ayniqsa, Beshariq, Dang'ara va Uchko'prik tumanlarida ancha tashvishli bo'lgan. Jumladan, Dang'ara tumanida 100 ta, Beshariq tumanida 88 ta, Uchko'prik tumanida 94 ta va Furqat tumanidagi 55 ta qishloqqa tabiiy gaz yetib kelmagan.

Viloyatning Yozyovon tumanida ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida»gi Farmonini amalga oshirish borasida muayyan ishlar olib borilib, gazlashtirish masalasi 41,7 foizga yetkazilgan. Bu ko'rsatkich tuman tashkil bo'lganida bor-yo'g'i 2 foiz bo'lgan, xolos. Tumanda 1995 yili 34,5 km, 1996 yili 30,6 km uzunlikdagi gaz quvurlarini tortish ishlari amalga oshirilgan.

Aholi turmush darajasining o'sishi ko'proq tabiiy gaz bilan qanday ta'minlanganligiga bog'liqligini hisobga olib ishlab chiqilgan dasturda 2000 yilgacha bo'lgan davrda, ya'ni 5 yil davomida qishloqlardagi mavjud gaz quvurlarini 2 ming 140 km ga uzaytirish, uning 240 km davlat budjet mablag'lari hisobiga bajarish belgilangan bo'lib, gazlashtirish ishlari Quva, Oltiariq, Toshloq, Buvayda, Oxunboboev, Farg'ona, Rishton va So'x tumanlarida keng ko'lamda olib borilgan. Biroq Farg'ona tumanida hisob-kitoblardagi noaniqliklar tufayli 1995 yil yakuniga ko'ra, tabiiy gazlashtirish 44 foiz ko'rsatib kelingan. Xatlov natijalariga ko'ra esa gazlashtirish haqiqatda 73,3 foiz darajasida bo'lgan.

1991–1995 yillarda viloyatda 3347 km gaz quvurlari tortilib, 121 ming 508 ta xonadonga tabiiy gaz olib kelingan. Aholining tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 1989 yil holatiga 44,8 foiz, qishloq joylarda 15,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1996 yilda bu ko'rsatkich mavjud uy-joy fondining 170 ming xonadonga ko'payishiga qaramay, viloyat bo'yicha 70 foizga, qishloq joylarda 66 foizga yetgan.

Albatta, amalga oshirilgan bu ishlar quvonchli, lekin shu bilan bir qatorda tahlillar natijasida viloyat aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ham ko'rish mumkin. Jumladan, 1996 yil holatiga viloyatda mavjud 1 ming 184 qishloqdan 361 tasi yoki 30,4 foizi tabiiy gaz bilan ta'minlanmagan. Ushbu qishloqlarni tabiiy gaz bilan ta'minlash uchun 2 ming 780 km gaz quvurlarini tortish zarur bo'lgan. Buning uchun 28 ming tonnadan ziyod har xil o'lchamli gaz quvurlari, 1 ming 360 dan ortiq gaz taqsimlash punktlari, 4 ming tonnaga yaqin metall ustunlar zarur bo'lgan. Viloyat aholisini tabiiy gaz bilan ta'minlash muammosini tumanlar bo'yicha ko'rib

chiqadigan bo'lsak, Beshariq tumanida 77 ta (74 foiz), Dang'ara tumanida 58 ta (43 foiz), Uchko'prik tumanida 52 ta (40 foiz), O'zbekiston tumanida 39 ta (35 foiz), Buvayda tumanida 31 ta (38 foiz), Bag'dod tumanida 28 ta (36 foiz), Furqat tumanida 23 ta (49 foiz) va Toshloq tumanida 20 ta (21 foiz) qishloq tabiiy gaz bilan ta'minlangan.

1996 yilda tabiiy gaz bilan ta'minlanmagan xonadonlar Oxunboboev tumanida 460, Bag'dod tumanida 9 ming 492, Beshariq tumanida 12 ming 447, Buvayda tumanida 6 ming 102, Dang'ara tumanida 6 ming 458, Rishton tumanida 300, Quva tumanida 1 ming 134, Toshloq tumanida 3 ming 830, Uchko'prik tumanida 12 ming 175, O'zbekiston tumanida 7 ming 207, Farg'ona tumanida 4 ming, Furqat tumanida 4 ming 921 va Yozyovon tumanida 8 ming 727 tani tashkil etgan. Bag'dod tumanining «Namuna» jamoa xo'jaligida 1 ming 722 ta xonadon, «Mirzaobod» jamoa xo'jaligida 1 ming 966 ta xonadon, Beshariq tumanining Beshariq shirkatlar uyushmasida 4 ming 193 ta xonadon, Yakkatut shirkatlar uyushmasida 2 ming 552 ta xonadon, Buvayda tumanining Aliqulov jamoa xo'jaligida 1 ming 357 ta xonadon, Dang'ara tumani qishloqlaridagi xonadonlarning 80 foizi tabiiy gazdan foydalangan bo'lsa-da, Sirdaryo shirkatlar uyushmasida 1 ming 974 ta xonadon, Mulkobod shirkatlar uyushmasida 2 ming 315 ta xonadon tabiiy gaz bilan ta'minlanmagan. O'z navbatida yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish, qishloq aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishini yaxshilash maqsadida yana 570 kmdan ortiq gaz quvurlari yotqizilib, 22 mingga yaqin xo'jalikni tabiiy gaz bilan ta'minlash choralari ko'rilgan.

1997 yilda esa viloyat bo'yicha 520 km uzunlikda gaz tarmoqlari qurilishi belgilangan bo'lib, yilning 6 oyi mobaynida viloyatda jami 320,3 km uzunlikdagi gaz tarmoqlari (61,1 foiz) qurilib, foydalanishga topshirilgan. Lekin bajarilgan ishlarni hamma joylarda ham bir xil, deb bo'lmaydi. Masalan, Dang'ara tumanida 1997 yilga 35 km gaz quvurlari yotqizish rejalashtirilgan bo'lsa, yarim yillik yakuniga ko'ra rejaning 14 foizi bajarilgan. Oxunboboev tumanida esa rejalashtirilgan 40 km dan 10,3 km bajarilgan, xolos. Bag'dod tumanidagi Oxunboboev nomli jamoa xo'jaligi Borg'oli qishlog'ida 5 km, Usmon Xo'jaev

nomli jamoa xo'jaligi Qashg'ar qishlog'ida 5 km, «Paxtakor» jamoa xo'jaligi Gulmirzahamdin qishlog'ida 5,5 km, «Haziniy» jamoa xo'jaligi Chigit qishlog'ida 8 km, jami tuman bo'yicha 23,5 km gaz tarmoqlari qurilib bitkazilgan bo'lsa-da, ish haqining o'z vaqtida to'lanmaganligi sababli belgilangan muddatda foydalanishga topshirilmagan. Viloyat qishloqlarining gaz bilan ta'minlanish darajasi umumiy 81 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, bu holat Beshariq tumanida 46,5 foizni, Buvayda tumanida 77,6 foizni, Dang'ara tumanida 57,7 foizni, Yozyovon tumanida 71,4 foizni va Furqat tumanida 77,3 foizni tashkil etgan. Lekin ko'p yillardan buyon Oltiariq tumani va Marg'ilon shahri aholisi qish faslida gaz yo'qligidan aziyat chekib keldi. Xozirgi kunda ham buni kuzatish mumkin.

Mustaqillik arafasida Farg'ona viloyatidagi 110 dan ortiq qishloqda yashovchi aholi umuman toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan. Masalan, Farg'ona, Quva, Rishton, Oxunboboev, Beshariq va So'x tumanlarida bunday tashvishli holat hukm surganini ko'rish mumkin. Qishloq joylarida ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi bor-yo'g'i 17,5 foiz bo'lib, markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash tuman markazlarida 84,5 foizni, kanalizatsiya esa 41,5 foizni tashkil etgan. Suv bilan ta'minlash Vodilda 34,5 foiz, Buvaydada 40,3 foiz, Yaypanda 54,4 foiz, Beshariqda 61,6 foiz bo'lib, viloyat ko'rsatkichidan ham past bo'lgan. 1994 yilda viloyat aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 78,4 foiz bo'lgani holda Yozyovon, Rishton, So'x tumanlarida aholini sifatli suv bilan ta'minlash darajasi 47–71 foizga to'g'ri kelgan. Viloyatning kanalizatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanishi 20,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, Oxunboboev tumanida aholi kanalizatsiya tarmoqlari bilan faqat 0,34 foizga ta'minlangan. 1994 yil holatiga viloyatning 1 mln 800 ming aholisi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanib, bu ko'rsatkich rejadagi 76 foizni tashkil etgan.

1997 yilda Andijon viloyati qishloqlarida 66 km ichimlik suvi tarmoqlari qurilib, foydalanishga topshirilgan. Andijon viloyatida ishlab chiqilgan «2000 yilgacha bo'lgan davrda qishloq ijtimoiy infrastrukturasi rivojlantirish» dasturi doirasida viloyatda 763 km gaz, 119 km suv tarmoqlari tortilgan.



Farg‘ona viloyati bo‘yicha 127 km uzunlikdagi toza ichimlik suvi tarmoqlari tortilgan. Aholining toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanish darajasi Quva tumanida 59 foiz, Oxunboboev tumanida 61 foiz, Furqat tumanida 67 foiz, Rishton tumanida 68 foiz va Farg‘ona tumanida 62 foizni tashkil qilgan. 1997 yilda viloyat bo‘yicha 127 km uzunlikdagi toza ichimlik suvi tarmoqlaridan atigi 48,8 km tortilgan. Viloyatning ayrim tumanlarida bu borada rejadagi ishlar to‘la bajarilmagan. Jumladan, Dang‘ara tumanida rejadagi 4,1 km, Oxunboboev tumanida 6,5 km, So‘x tumanida 5 km, Farg‘ona tumanida 8,1 km dan biror metr ham foydalanishga topshirilgan emas. Rishton tumanida esa reja 7,1 foizga bajarilib, uning yarmi ishga tushirilgan.

Viloyatda keyingi yillarda ham, jumladan, 2000 yilning o‘zida 118 km ichimlik suv tarmoqlari foydalanishga topshirilgan. 2007 yilda esa viloyat bo‘yicha 160 km ichimlik suv tarmog‘ini tortish rejalashtirilgan bo‘lib, 6 oy davomida 116,4 km Ichimlik suvi tarmoqlari tortilgan. Viloyatda ishlab chiqilgan dasturga asosan 103 ta qishloq aholi yashash punktlarida 89,8 km yangi ichimlik suv tarmoqlarini tortish, 28 dona tik quduq kovlash, 30 dona yangi nasos o‘rnatish, 22 dona mavjud nasoslarni, 48,94 km ichimlik suv tarmoqlarini va 32 dona mavjud tik quduqlarni ta‘mirlash ishlari amalga oshirilgan. Birinchi yarim yillikda 42 ta qishloq aholi yashash punktlarida ichimlik suv ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha belgilangan reja to‘liq bajarilib, qo‘shimcha 12 ta, jami 54 ta qishloqda ichimlik suvi ta‘minoti tiklangan. Ushbu ishlarga Ipoteka banki tomonidan 300 mln so‘m kredit mablag‘lari ajratilgan bo‘lib, bu mablag‘ 142 ta suv kolonkalarini o‘rnatish hamda 43,71 km ichimlik suvi quvurlarini montaj qilish, qayta tiklash ishlariga sarflangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash to‘g‘risida»gi Farmoni asosida Namangan viloyatida ham ibratli ishlar amalga oshirildi. 1990 yilgacha bo‘lgan davrda viloyat bo‘yicha jami 1 ming 480 km gaz tarmoqlari tortilgan bo‘lsa, 1991-1995 yillar davomida 2 ming 25 km gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi. 1991-1995 yillarda 1 ming 39 km uzunlikda suv uzatish tarmoqlari yotqizildi, 83,3

ming xonadonni gazlashtirishga erishildi. Viloyatning eng chekka qishloqlaridan Chodak va Nanayga gaz yetkazib berildi. Uchqo‘rg‘on-Namangan suv uzatish inshootlarining bitkazilishi bilan Uychi, Chortoq, Namangan, To‘raqo‘rg‘on tumanlari, Namangan shahri aholisi toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanishi rejalashtirilgan.

2002 yil holatiga Namangan viloyati Pop tumani Chodak qishlog‘ida istiqomat qilgan 13 ming 526 nafar aholining 60 foizi toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanmagan, 40 foizi esa Chodaksoy suvidan foydalanib kelgan.

2009 yilning birinchi choragi davomida jami 20,4 km ichimlik suvi tarmoqlari ta‘mirlanib, viloyatdagi jami 536 ta qishloqlaridan 363 tasi xatlovdan o‘tkazilgan. Xatlovdan o‘tkazishda qishloq chegaralari va joylashishi, ichimlik suvi hisobga olingan hamda 25 ta qishloq aholi yashash punktlarida tik quduqlarni qazish uchun 16 mln so‘m mablag‘ ajratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 17 sentabrdagi «Qishloq aholi yashash joylarini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 405 sonli Qarorini bajarish maqsadida 26 ta qishloqni ichimlik suvi bilan ta‘minlash uchun 26 ta tik quduq va 2,6 km suv tarmoqlarini tortishga 14,8 mln so‘m mablag‘ ajratilgan. 2009 yil 1 may holatiga 74,5 km ichimlik suv tarmoqlari tortilgan.

2012 yilda aholining ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash maqsadida 24 ta qishloqqa respublika budjeti mablag‘lari hisobidan 18 ta ichimlik suvi quduqlarini qazish, 32,3 km ichimlik suv tarmog‘ini tortish uchun 3,2 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan. Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 13 apreldagi 01-05/1-70-sonli yig‘ilish bayoniga asosan ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha ishlab chiqilgan qo‘shimcha dasturga ko‘ra 61 ta qishloqlarda 56,4 km ichimlik suvi tarmoqlari tortilib, 27 ta yer osti quduqlari qazilgan, 37 dona nasos o‘rnatilib, 3 ta mavjud tik quduqlar va 3 km ichimlik suv tarmoqlari ta‘mirlangan. Natijada 77 ming aholining ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash uchun jami 4,2 mlrd so‘m mablag‘ sarflangan. Viloyat aholisini ichimlik suvi bilan ta‘minlash uchun 2,9 mlrd so‘m mablag‘ o‘zlashtirilishi hisobiga 17 ta tik quduq kovlash va 19 km

ichimlik suv tarmog'ini tortish belgilangan. Ushbu ob'ektlarda 2,9 mlrd so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, barchasi to'liq foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, 166,5 km uzunlikdagi ichimlik suvi tarmoqlari, shundan 41,7 km masofaga respublika budjeti hisobidan va 156 km masofaga aholi mablag'lari hisobidan ichimlik suvi tarmoqlari tortilgan. Respublika budjeti mablag'lari hisobidan 68 ta qishloq aholi yashash punktining ichimlik suv ta'minotini yaxshilash uchun 8,8 mlrd so'm mablag' ajratilib, 57 ta ichimlik suvi quduqlari va 41,7 km ichimlik suv tarmoqlari tortilib, foydalanishga topshirilgan. 2015 yilda viloyat bo'yicha jami 30 ta massivga 33,3 km suv tarmoqlari tortilgan. Bu davrda mamlakatda qishloq aholisini markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 75,8 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi esa 76,2 foizni tashkil etgan.

Farg'ona vodiysining Andijon va Farg'ona viloyatlarida bo'lgani singari, Namangan viloyatida ham bu yo'nalishda qator ishlar amalga oshirilgan. Viloyatda 1991–1995 yillar davomida 1 ming 39 km suv uzatish tarmoqlari ishga tushirilgan. 1991–1999 yillarning o'zida 1 ming 572 km dan iborat yangi suv quvurlari tarmog'i foydalanishga topshirilgan. Toza ichimlik suvi bilan ta'minlash esa 66 foizdan 75 foizga yetkazilgan. Bu borada 37 km uzunlikdagi Uchqo'rg'on–Namangan toza ichimlik suvi uzatish inshootining ikkinchi navbati qurib bitkazilishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. 2001 yilda respublika qishloqlarida jami 1 ming 325 km ichimlik suvi tarmoqlari qurilib, foydalanishga topshirilgan hamda 473 ta qishloq joylariga birinchi bor ichimlik suvi vodoprovod orqali keltirilgan. 2000 yilga nisbatan qishloqlarni ichimlik suvi tarmoqlariga ulash esa 3,5 marta oshgan. Bu maqsadda davlat budjetining o'zidan 9 mlrd so'm miqdorida mablag' ajratilgan. Umuman, qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish uchun 2001 yilning o'zida 13,26 mlrd so'm mablag' sarflangan. 2015 yilga kelib, Namangan viloyatining 34 ta qishloq joylarini ichimlik suvi bilan ta'minlash yaxshilandi.

Albatta, vodiy qishloqlaridagi bu islohotlar keyingi yillarda ham davom ettirildi. O'tgan besh yilda Namangan viloyatida 475 km suv tarmoqlari va 33 ta

yer osti suv qudug‘i qurildi. Natijada 450 ming aholi toza ichimlik suvi bilan ta‘minlandi va bu boradagi ko‘rsatkich 67 foizdan qariyb 71 foizga yetdi. Kelgusi besh yilda 211 km suv tarmoqlari qurilishi belgilandi. «Obod» suv to‘plash va tozalash inshooti qurib bitkazilib, Kosonsoy shahri bilan bir qatorda Bahoriston, Olmazor, Yumaloqshayxmozor, Ozod qishloqlari ham toza ichimlik suvi bilan ta‘minlandi. Xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari jalb etilib, Chust, Pop, Chortoq, Namangan va To‘raqo‘rg‘on tumanlari, Namangan shahri, shuningdek, Zarkent, Xadikent, Iskovod, Yoshlik qishloqlarida toza ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirildi. Miqyosi va ko‘lami ulkan bunday loyihalarning amalga oshirilishi natijasida viloyat aholisining toza ichimlik suvi ta‘minoti tubdan yaxshilandi. Eng muhimi bu boradagi ko‘rsatkich viloyat bo‘yicha 90 foizga yetkazildi. Qishloq joylaridagi ichimlik suvi tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi doirasida kelgusi besh yilda mamlakatda qariyb 9 ming km ichimlik suvi tarmoqlari, 1 ming 400 ta quduq va 3 ming 600 ta suv inshooti qurildi va rekonstruksiya qilindi. Bu esa 3 mln 200 ming aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash va mamlakatda ushbu ko‘rsatkichni 67 foizdan 84 foizga yetkazish imkonini berdi. Farg‘ona viloyatida 11 km magistral suv tarmog‘i, 920 km mahalliy suv tarmog‘i, 228 ta suv qudug‘i, 165 ta suv minorasi, 239 ta nasos stansiyasi va boshqa inshootlarning qurilishi va rekonstruksiya qilinishi natijasida aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi yanada yaxshilandi.

Tabiiy gaz bilan ta‘minlanish masalasi tahlil qilinganida Andijon va Farg‘ona viloyatlaridagi holat deyarli bir xil ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ichimlik suvi gaz tarmoqlarini tortishda ikkala viloyatda ham kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, Andijon viloyatining Bo‘z, Marhamat, Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq va Asaka tumanlari, Farg‘ona viloyatining Beshariq, Dang‘ara, Uchko‘prik, Buvayda, Furqat va Toshloq tumanlari misolida buni ko‘rish mumkin.

Harakatlar strategiyasida mamlakatni rivojlantirish yo‘lidagi yangi qadamlar belgilab berilgan bo‘lib, qishloqlarda qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3

trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi natijasida 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4201-son ««Obod qishloq» dasturini 2019 yilda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga asosan Andijon viloyatining 14 tumanidagi 42 ta qishloqlarda 462 km ichki yo‘llar, 153 ta elektr transformatorlari va 16 ming 369 ta yakka tartibdagi uy-joylar ta‘mirlandi. 2007 dona tungi ko‘cha yoritish ustunlari o‘rnatilib, 202 ta yangi ichimlik suvi tarmoqlari tortildi. Namangan viloyatining 11 ta tumanidagi 33 qishloqlarda 377 km ichki yo‘llar, 42 ta elektr transformatorlari va 8 662 ta yakka tartibdagi uy-joylar ta‘mirlandi, 2 ming 216 dona tungi ko‘cha yoritish ustunlari o‘rnatilib, 190 ta yangi ichimlik suvi tarmoqlari tortildi.

Farg‘ona viloyatining 15 ta tumanidagi 45 ta qishloqlarda 393 km ichki yo‘llar, 37 ta elektr transformatorlari va 25 ming 222 ta yakka tartibdagi uy-joylar ta‘mirlandi hamda 3 ming 875 dona tungi ko‘cha yoritish ustunlari o‘rnatilib, 125 ta yangi ichimlik suvi tarmoqlari tortildi. 2020 yilda Andijon viloyatida 85 km ichimlik suvi tarmog‘i qurilishi va ta‘mirlanishi belgilandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, qishloqlarda aholini uy-joy bilan ta‘minlash, ularga yer-uchastkalar ajratish borasida qator ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, tabiiy demografik o‘sish hisobiga mavjud muammolar salmog‘i ham ortib bordi. Ushbu yo‘nalishda so‘nggi yillarda arzon va namunali uy-joylar qurish, ularni ichimlik suvi va issiqlik bilan ta‘minlash, kam ta‘minlangan kambag‘al qatlam uchun subsidiyalar ajratish yo‘lga qo‘yildi. Mustaqillik arafasida Farg‘ona vodiysi qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qator muammolar girdobida qolgan edi. Aholini ijtimoiy himoya qilish, turmush sharoitini yaxshilash kabi masalalarni hal qilish ayniqsa qishloq joylarida anchagina og‘ir kechdi. Qariyb yigirma besh yil mobaynida vodiy qishloqlarini obodonlashtirish va infratizimini rivojlantirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, mazkur yo‘nalishda so‘nggi besh yil davomida olib borilgan islohotlar qishloq taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqdi.

## Savol va topshiriqlar

1. 1989 yil 17 avgust kuni qabul qilingan «Qishloqlarda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida»gi tarixiy hujjatga asosan mamlakatda qanday islohotlar amalga oshirildi?

2. Istiqolning dastlabki yillarida pdagog xodimlarni uy-joy bilan ta'minlashda qanday imtiyozlar berildi?

3. Qishloq infratuzilmasini yangilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari natijasida qishloqlarda qanday o'zgarishlar ro'y berdi?

4. Respublikada aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasida amalga oshirilgan ishlarni necha bosqichga bo'lish mumkin?

5. Mustaqillik arafasida vodiy viloyatlari qishloqlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi qay darajada edi?

6. Vodiy viloyatlarida aholini tabiiy gaz bilan ta'minlanganligi nisbatan qaysi hududlarda yaxshiroq bo'lgan?

7. So'ngi besh yilda vodiy viloyatlari aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

**Tayanch so'zlar:** Yer maydoni, tamorqa, uy-joy, qurilish, tabiiy gaz, elektr energiyasi, toza ichimlik suvi, ichki yo'llar, muhandislik kommunikatsiyasi, qishloq infratuzilmasi, namunaviy loyihalar asosidagi kotejlar, ko'p qavatli uylar.

**IKKINCHI BO‘LIM**  
**FARG‘ONA VODIYSIDAGI SOG‘LIQNI SAQLASH MUASSASALARI**  
**FAOLIYATI VA ULARNING QISHLOQ AHOLISIGA TIBBIY XIZMAT**  
**KO‘RSATISH DARAJASI**

**2.1. Tibbiy xizmat ko‘rsatish va aholi sog‘ligini muhofaza qilish**

Aholi salomatligini muhofaza qilish jamiyatning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan xisoblanadi. Inson barcha narsa va qadriyatlarning bosh mezon. Muammoning aynan mana shu jihati ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barchasi inson manfaatiga qaratilgandir. Mamlakat aholisining farovon hayot kechirishi, o‘z hayotidan ko‘ngli to‘lib yashashi uning sog‘lom bo‘lishiga bog‘liq. Bu borada respublikada bir qator davlat dasturlari qabul qilinib, joylarda tibbiy xizmat infratuzilmasini takomillashtirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Dastlabki o‘tish davri va istiqloq yillarida mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimi qanday bo‘lgan? Mazkur yo‘nalishda olib borilgan islohotlar hamda sohada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni biz dissertatsiyaning mazkur ikkinchi bobida ko‘rib o‘tamiz.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatning ayollarga bo‘lgan e‘tibori va g‘amxo‘rliqi muayyan tizim ko‘rinishini oldi. Oila, jamiyat va davlat kelajagi va taraqqiyoti ayolning va yosh avlodning sog‘ligi bilan bevosita bog‘liqligi masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekistonda ayollarni taqdirlash uchun 1993 yili birinchi va ikkinchi darajali «Sog‘lom avlod uchun» ordeni ta‘sis etildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasi onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi, uning ayollar huquqini ta‘minlashning asosiy kafolatlovchi instituti ekanligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasining «Oila» kodeksi ham ayol huquqlarini har jihatdan mustahkamladi.

Jamiyatda ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, mehnat uchun haq olish, siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun erkaklar bilan teng

imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ayollarning oiladagi o'rni, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat kilish, sog'ligini saqlash uchun qulay sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishga alohida e'tibor qaratildi.

Hukumat tomonidan ayollarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar sirasiga kirgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bolalik oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshirilgan Davlat dasturi to'g'risida»gi, «Ayollar va o'sib kelayotgan avlod sog'ligini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari hamda 1998 yilni «Oila yili», 1999 yilni «Ayollar yili» deb e'lon qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rning yanada yuksalishiga O'zbekiston keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Mustaqillik arafasida mamlakatda onalar va bolalar o'limini kamaytirish, qishloqda tibbiy xizmatni takomillashtirish uzoq yillardan beri o'z yechimini kutib yotgan muammoga aylangandi. Chunki, ekologiya nochor holatga kelib qolgan, o'lkamizda sog'liqni saqlash sohasidagi ma'lumotlar soxtalashtirilgan, xavfli va yuqumli kasalliklarning tashxislari kasallik varaqalariga ro'yi-rost yozilmasdan, buzib ko'rsatilardi. «Sariq kasalligi» deb nom olgan xastalik shunday kuchayar ediki, kasalxonalariga bemorlar sig'may ketardi. Bemorlarning fosfor-organik defoliantlardan zaharlangani va bemorlarning soni maxfiy tutilgan. Bunday holat faqat Farg'ona vodiysi viloyatlarigagina emas, balki butun respublikaga xos edi. Bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar va tug'ish vaqtida vafot etgan onalar o'limi statistikasi sir tutilgan.

Istiqlol sharofati tufayli jahon mamlakatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatildi. O'zbekistonga ko'rsatilgan insonparvarlik yordamlari orasida tibbiyotga bo'lgan e'tibor alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Dori-darmonlar, uskunalardan tashqari sanitariya-tozalik, chekka qishloqlarni ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlariga xorijdagi nodavlat tashkilotlar salmoqli hissa qo'shdilar. Xususiy



mulkchilikka e'tibor kuchaytirilganidan so'ng esa ishbilarmon sarmoyadorlar homiylik asosida tibbiy maskanlar qurish va uskunalar bilan ta'minlash ishlarini beminnat bajarmoqdalar.

Mustaqillikning ilk pallasida fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatish, sanitariya-profilaktika xizmatini kuchaytirish, sifat va samaradorlikni oshirish, ayniqsa, tug'ish yoshidagi, homilador ayollar va bolalar hayotini muhofazalash masalalari ustuvor vazifalardan edi.

1994–1995 yillarga mo'ljallangan «Ekologiya va salomatlik» dasturi tadbirlarida sog'lom avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, atrof-muhit va aholi salomatligini muhofaza qilish ishlariga katta e'tibor qaratildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ayollarni sog'lomlashtirish Davlat dasturi doirasida tibbiy ko'rikdan o'tkazish, ayniqsa, tug'ruq yoshidagi ayollarda ekstragenital xastaliklar aniqlanganda, ularni alohida ro'yxatga olib, sog'lomlashtirish borasida mintaqada tezkor ishlar amalga oshirildi. Mintaqada nafas yo'llarining qisishi, ovqat hazm qilish organlarining kasallanishi, qon va qon ishlab chiqaruvchi organlar kasalliklari (kamqonlik – anemiya) aniqlandi. Yuqumli kasalliklar o'rtasida virusli gepatit kasalligi 1995 yilda ayniqsa kuchaydi.

Mintaqa hududlarida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish oyliklari, ekologik dekada va shanbaliklar, ma'ruza va suhbatlar, tanlovlar, tasviriy ko'rgazma, xayriya tadbirlarining uyushtirilishi taomilga aylandi. Suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, ichimlik suvi sifatini yaxshilash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. «Toza havo» dasturiga binoan faqatgina Andijon viloyatida 1991–1995 yillarda 42,5 mln tup mevali va manzarali ko'chatlar ekildi, ya'ni har bir fuqaro hisobiga 24,3 m<sup>2</sup> ko'kalamzorlashtirilgan maydon to'g'ri keldi. Andijon shahrida «Farg'ona vodiysining aholi salomatligi va atrof-muhitni himoya qilish muammolari» mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya (1995 yil, 28 iyun), «Ekologiya va hudud» mavzuida seminar-kengashlar chaqirildi. «Ekologiya va bolalar» mavzuidagi (Nukus) respublika tanlovida qatnashgan 12 nafar andijonlik o'quvchidan 5 nafari g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Ayni shu davrda Andijon viloyati hokimligi, sog'liqni saqlash tashkiloti va

muassasalari aholiga sifatli hamda talab darajasida tibbiy yordam ko'rsatish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Davlat va idoralarning uylarida yashagan 1 ming 448 nafar tibbiyot xodimlaridan 245 tasining uylari xususiylashtirildi, 1 ming 604 nafari esa tomorqa bilan ta'minlandi. Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda tibbiyot tizimida chuqur tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tibbiy xizmat ko'rsatish sohasining asosini davlat ta'minotidagi muassasalar tashkil etdi, shu bilan bir qatorda, bu boradagi imkoniyatlar darajasini pullik tibbiyot yoki sug'urta tibbiyoti kengaytirdi va bu haqda respublika Oliy Kengashida qonun qabul qilindi.

Istiqlolning dastlabki yillarida Paxtaobod, Qo'rg'ontepa, Bo'z va Buloqboshi tuman poliklinikalari, Izboskan va Andijon tumanlari davlat sanitariya – epidemiologiya nazorati markazlari binolari bitkazilib, foydalanishga topshirildi. 1995 yilda viloyat aholisiga 98 ta shifoxona, 250 ta ambulatoriya va poliklinika muassasalari, 539 ta feldsher-akusherlik punktlari xizmat ko'rsatdi. 1996 yilda Bo'z tumanida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti dasturi asosida ish olib borildi. Shu maqsadda Italiyadan 23 xil tibbiy asbob va jihozlar keltirildi.

Aholi soniga nisbatan tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish jarayonlarida mutanosib holat yuzaga kela boshladi. Istiqlolga erishilgan dastlabki davrdan «Sog'lom avlod uchun» dasturining qabul qilinishi va bu yo'lda tinimsiz harakatlar olib borilganligi o'z samarasini ko'rsatdi. Millatni sog'lomlashtirish, aholi umrini uzaytirish, onalar va bolalar o'limini kamaytirish, kelajak avlodlarga sog'lom va iqtidorli zurriyot qoldirish borasidagi izlanishlar bu sohada to'g'ri yo'l tutilganligini isbotladi.

Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash tizimini ekstensiv rivojlantirish yo'lidan voz kechilib, uzil-kesil intensiv takomillashtirish yo'liga o'tildi. Kamquvvat va samarasiz bemor o'rinlari soni qisqartirildi. Har bir aholiga to'g'ri keladigan o'rinlar soni 10 dan 6,1 ga tushirildi. Bu o'z navbatida bemorlarning davolanish sharoitini yaxshilashga imkoniyat yaratdi. O'n yil avval shifoxonalarda bir bemorga 2,5-3 kvadrat metr joy to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilda bu raqam 8-10 m<sup>2</sup> ni tashkil etdi. O'z navbatida tibbiyotga ajratilgan mablag'ning asosiy qismi (50

foiz) ambulatoriya-poliklinika sharoitida kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolash uchun sarf qilidi. Tugʻruqxonalar tuzilmasi tubdan yangicha boʻlimlar – tugʻishgacha sogʻlomlashtirish, tugʻruq zali va tuqqandan keyin ona-bolaning sogʻligini tiklaydigan boʻlimlar tashkil etildi.

1992 yilda Fargʻona viloyatida Quva va Rishton tumanlarida poliklinika, Toshloq tumanida 60 oʻrinli shifoxona, Kirguli va Bagʻdod tumanlarida tish davolash poliklinikalari foydalanishga topshirilgan. Biroq Soʻx tumanidagi kardiologiya sanatoriysi (bu tibbiyot maskanining qurilishi keyinchalik tadbirkorlar tomonidan xususiylashtirish natijasida yakunlandi va hozirda aholiga sifatli tibbiy xizmat koʻrsatmoqda), Toshloq tumanidagi tugʻruqxonasi, Fargʻona shahridagi bolalar shifoxonasi qurilishi oʻtish davri qiyinchiliklari sabab nihoyasiga yetkazilmagan. Tibbiyot maskanlarini asbob-uskunalar, kerakli jihozlar, dori-darmonlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash ham oʻlda-joʻlda qolib ketgan. Eng achinarlisi, budjet tanqisligi yuzaga kelgan vaziyatda Uchkoʻprik va Bagʻdod tumanlarida shu sohaga ajratilgan mablagʻlardan boshqa maqsadlarda foydalanish hollari kuzatilgan. Fargʻona viloyatida istiqomat qiluvchi tugʻish yoshidagi ayollar tibbiy koʻrikdan oʻtkazilishi natijasida 140 ming 807 nafar ayolda (32,8 foiz) ekstragenital kasalliklar aniqlanib, ularning 108 ming 402 nafari (76,9 foiz) poliklinika hamda shifoxonalarda sogʻlomlashtirilgan.

Qishloq joylarida istiqomat qilgan aholi salomatligini saqlash yoʻlida 94 ta shifoxona, 266 ta poliklinika hamda 638 ta feldsher-akusher punktlari (bundan keyin – FAP) doimiy ravishda xizmat koʻrsatgan. Viloyat sogʻliqni saqlash boʻlimi tomonidan bu muassasalarning moddiy-texnikaviy bazasini yaxshilash yoʻlida keyingi 1,5 yil mobaynida 260 oʻrin-joyga ega boʻlgan (Toshloq tumanida 100 oʻrinli, Fargʻona tumanida 60 oʻrinli, Quva tumanida 100 oʻrinli) 3 ta zamonaviy shifoxona va bir smenada 1 500 nafar bemor qabuliga moʻljallangan 17 ta poliklinika hamda ambulatoriyalar bitkazilib, foydalanishga topshirilgan. Lekin, shunga qaramasdan keyingi 1,5 yil ichida Oltiariq tumanida birorta ham qishloq vrachlik ambulatoriyasi yoki FAP qurilmagan. Uchkoʻprik tumanida zamonaviy yuqumli kasalliklar shifoxonasi qurilishi hal boʻlmagan. Qishloq joylardagi

tibbiyot muassasalarining mutaxassislar bilan ta'minlanishini talab darajasiga yetkazish uchun 1992 yilda viloyat sog'liqni saqlash bo'limi ixtiyoriga jo'natilgan 366 nafar vrachdan 257 nafariga (70 foiz) ishlash uchun qishloq joylaridagi davolash-profilaktika muassasalariga yo'llanma berilgan. Bundan tashqari, 135 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalari (bundan keyin – QVA) ning bosh vrachlari o'z lavozimlaridan bevosita davolash ishiga qaytarildi. Natijada qishloq aholisining vrachlar bilan ta'minlanishi bir qadar yaxshilandi. Qishloq joylarida xizmat qilgan tibbiyot xodimlarining 1,5 mingdan ortig'i o'z malakalarini oshirganligi bois 254 nafar vrachga, 220 nafar o'rta tibbiyot xodimiga toifa berilgan. Shunga qaramasdan toifali tibbiyot xodimlarining umumiy soni Yozyovon, Dang'ara va Furqat tumanlarida ancha kam bo'lgan.

Viloyat sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan qishloq aholisiga ko'rsatilgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash maqsadida joylarga chiqishlar tashkil etilgan. Qishloq aholisi uchun tumanlardagi 11 ta yuqumli kasalliklar shifoxonalari qoshida reanimatsiya bo'limlari tashkil etilgan. Og'ir bemorlarni o'z vaqtida ixtisoslashgan viloyat shifoxonalariга keltirish uchun sanitariya-aviatsiya bo'limi qoshida 3 ta ixtisoslashtirilgan jonlantiruvchi brigadalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari Oltiariq va Dang'ara tumanlarida tashxis markazlari hamda 9 ta tumanda xorijiy tibbiyot asbob-uskunalari bilan jihozlangan diagnostika markazlari faoliyat ko'rsata boshlagan.

Yosh avlodning salomatligi, eng avvalo, onalar qo'lida bo'lib, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining homilador ayollar hamda ikki yoshgacha bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyaga olish bo'yicha chiqargan Farmoni o'z vaqtida qabul qilingan hujjat bo'ldi. Farmonni bajarish yuzasidan Farg'ona viloyatida o'tgan 1,5 yil mobaynida qishloqda istiqomat qiluvchi homilador ayollarni sog'lomlashtirish va 2 yoshgacha bo'lgan bolalarni bepul ovqatlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilgan.

Natijada Farg'ona viloyatida olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida onalar o'limi 41 foizga (1991 yilda 49 ta bo'lgan bo'lsa, 1992 yili - 29 ta, 1993 yilning 4 oyida - 3 ta), bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 1992 yilning 4 oyiga nisbatan

1993 yilning 4 oyida 31 foizga kamaygan. Biroq bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi viloyatda yuqori bo'lgan. Ayniqsa, Quva (44,0), Beshariq (43,1) tumanlaridagi ko'rsatkich bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'z navbatida fuqarolarga tibbiy yordamni yetarli darajada tashkil eta olmaganliklari uchun viloyat tibbiy kengashining qarori bilan 28 nafar rahbarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rilib, 6 nafari ishdan chetlashtirilgan. Dastlabki o'tish davrida Farg'ona hududida yuqumli kasalliklar bilan kasallanish 1990 yilga qadar yuqori bo'lib, keyingi yillarda o'tkazilgan tadbirlar natijasida 1992 yilda paratif kasalligi 50 foizga, salmonellez kasalligi 16 foizga, yuqumli sariq kasalligi 15 foizga, zardobli gepatit kasalligi 13 foizga pasaygan. Lekin aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, chiqindilar uchun kanalizatsiya tarmoqlari yetarli darajada bo'lmaganligi oqibatida Yozyovon va Oltiariq tumanlarida viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqumli sariq kasalligi bilan kasallanish 1,5 barobar, Quva, Yozyovon hamda Uchko'prik tumanlarida yuqumli ichak kasalligi bilan kasallanish 1,5-2 barobar yuqori bo'lgan.

Aholini dori-darmonlar bilan ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga keldiki, ularni ijobiy hal etish uchun viloyat sog'liqni saqlash bo'limi va «Farmatsiya» ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan viloyat hokimiyatining bevosita yordamida 5 ta kichik korxonalar tashkil etildi. Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, 30 ga yer maydonida dorivor o'simliklar yetishtirilib, 10 dan ziyod dori-darmon ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Biroq kasalxonalarning dori-darmonlar bilan ta'minlanishi 55 foizni tashkil etgan, xolos. Dori ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 martdagi 132-qarori asosida Farg'ona viloyatida rejalashtirilgan 234 dorixonadan 219 tasi xususiylashtirilgan.

1993 yilda viloyat fuqarolarning 69,3 foizi qishloqda istiqomat qilgan. Aholiga 638 ta feldsher-akusherlik, 143 ta qishloq ambulatoriyasi hamda 37 ta qishloq uchastka shifoxonalari tibbiy xizmat ko'rsatgan. Biroq sanitariya-epidemiologik holatga ko'ra, viloyat bo'yicha har 100 ming nafar aholidan 448 nafarida sariq kasalligi aniqlangan. 1993 yilda Quva tumanida o'tkir ichak kasalligi

16 tadan 18 taga, Uchko‘prik, Furqat va Yozyovon tumanlarida 14 tadan 42 taga ortgan.

Namangan viloyatida har ming nafar bolaga nisbatan bolalar o‘limi ko‘rsatkichi 1993 yilda 34,9 ni tashkil etgan bo‘lsa, 1994 yilda bu ko‘rsatkich 29,7 ga kamaydi. Onalar o‘limi ko‘rsatkichi esa 34,9 dan 29,8 ga kamayishiga erishildi. 1995 yil viloyat sog‘liqni saqlash tizimida 4 ming 722 nafar shifokor, 16 500 nafardan ortiq o‘rta tibbiyot xodimlari xizmat ko‘rsatgan. Olib borilgan ishlar natijasi o‘laroq onalar va bolalar o‘limi ko‘rsatkichi yildan-yilga kamayib borgan. Onalar o‘limi 1992 yilda 39,1, 1993 yilda 34,9, 1994 yil 29,7 hamda bir yoshgacha bolalar o‘limi 1992 yilda 39,8, 1993 yil 34,9, 1994 yil 29,7 ga kamayishiga erishilgan yoki 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi 1994 yilda 1992 yilga nisbatan 5,0 dan 3,2 ga kamaygan. 1992–1994 yillarda qator tibbiy muassasalar, jumladan 5 ta tibbiyot punkti, 2 ta feldsher-akusherlik punkti, 6 ta qishloq-vrachlik ambulatoriyasi, 1 ming 140 qatnovga mo‘ljallangan 3 ta zamonaviy loyihadagi poliklinika, jami 700 o‘rinli ixtisoslashtirilgan 225 maxsus o‘rinli shifoxonalar va dorixona binolari qurilib, ishga tushirilgan.

Andijon viloyatida 1993 yili aholiga tibbiy xizmatni yaxshilash maqsadida 51 ta poliklinika, ambulatoriya, 243 ta kunduzgi statsionar tashkil etilgan hamda 20 mingdan ortiq kam ta‘minlangan va kamqonli ayollarga 390 mln so‘mga yaqin bepul oziq-ovqat va dori-darmon, ikki yoshgacha nimjon bolalarga 432 mln so‘mlik bepul oziq-ovqat tarqatilgan. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi avvalgi yilga nisbatan 1,5 foizga kamaygan. 1993 yil davomida viloyatda bir bemor uchun 7 ming 950 so‘m sarflangan bo‘lsa, 1994 yilning birinchi choragidayoq bu ko‘rsatkich 7 ming 200 so‘mni tashkil etgan. Shifoxonalarda bemorlarga qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Aksariyat kasalxonalarining zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlanishiga erishilgan. Agar 1993 yili har bir bemorga to‘g‘ri keladigan joy 4,2 m<sup>2</sup> bo‘lsa, 1994 yil 6 m<sup>2</sup> ga qadar kengaygan. Qiyin iqtisodiy sharoitga qaramay, davolash muassasalarining kapital qurilishiga ham katta e‘tibor qaratildi. Jumladan, 1994 yil uchun kapital qurilishga 2 mlrd 200 mln so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, Qo‘rg‘ontepa tumanida 600 qatnovli poliklinika,

Paxtaobodda 150 o‘ringa mo‘ljallangan tuman kasalxonasi, Xonobod shahrida 60 o‘rinli shifoxona, 150 qatnovli poliklinika, Izboskan tumanida 150 o‘rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi va tuman sanitariya-epidemiologiya stansiya binolari foydalanishga topshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 martdagi 132-sonli «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash Vazirligining dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to‘g‘risida»gi Qarorini bajarish bo‘yicha 1994 yilda 195 ta dorixona muassasalari davlat tasarrufidan chiqarildi. Ulardan 25 ta muassasa hissadorlik jamiyatiga, 164 tasi - xususiy mulkka, 6 tasi - jamoa mulkiga aylantirildi, 1 ta dorixona «Sog‘lom avlod uchun» viloyat bo‘limiga o‘tkazildi.

1998 yil noyabr oyida tibbiy sohani isloh qilish Dasturi asosida Andijon shahrida viloyat klinik shifoxonasi o‘rnida 350 o‘rinli O‘zbekiston Respublikasi shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon viloyati filiali tashkil etildi. Andijon shahar tez tibbiy yordam stansiyasi va viloyat sanitariya-aviatsiya stansiyasi ushbu filial tasarrufiga o‘tkazildi. Shoshilinch tibbiy yordam markazlari zamonaviy, xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan diagnostika va davolash asbob-uskunalarini hamda apparatlari bilan jihozlandi. Viloyat hokimi tashabbusi bilan Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida vodiya yagona magnit rezonansli kompyuter tomografiyasi ishga tushirildi.

Viloyat tumanlarida shoshilinch tibbiy yordam tizimini yaratish maqsadida 3 ta shahar va 14 ta tuman markaziy shifoxonalari qoshida 390 o‘rinli 17 ta subfiliallar tashkil topdi. Keyingi ikki yil ichida viloyat shoshilinch tibbiy yordam tizimida 27 ming 618 ta bemor yotib davolandi, 13 ming 124 bemorga ambulatoriya yordami ko‘rsatildi, 14 ming 131 ta bemor jarrohlik yo‘li bilan davolandi.

Viloyat aholisiga 6 ming 271 nafar vrach, shundan 8,4 foizi oliy toifali, 29,3 foizi birinchi toifali va 8,2 foizi ikkinchi toifali, 21 ming 445 nafar o‘rta tibbiyot xodimi, shulardan 2,3 foizi oliy toifali, 23,5 foizi birinchi toifali, 4,1 foizi ikkinchi toifali tibbiyot xodimlari xizmat ko‘rsatgan. 2000 yilda 1 ming 59 nafar vrach, 2

ming 639 ta o'rtta tibbiyot xodimlari o'z malakalarini oshirdi. Viloyat va tuman markaziy kasalxonalarini hamda epidemiologiya markazlari bosh vrachlari egallab turgan lavozimiga ko'ra attestatsiya komissiyasidan o'tkazildi.

Viloyatda o'rtta tibbiyot xodimlarini tayyorlash va kasb mahoratlarini oshirish masalalari mahalliy hokimiyat diqqat-e'tiborida bo'ldi. Natijada Andijon, Asaka tibbiyot bilim yurtlari tibbiyot kollejlariga aylantirildi. Andijon davlat tibbiyot institutida oliy toifali hamshiralar tayyorlash bo'limi ochildi.

Farg'ona viloyatida uch yil ichida jami 815 o'rin-joyga ega bo'lgan zamonaviy shifoxonalar, 324 bemorni qabul qilish imkoniga ega ambulatoriya va poliklinikalar ishga tushirildi. Olib borilgan sog'lomlashtirish tadbirlari natijasida 1993 yilda bolalar o'limi 33,7 ta bo'lgan bo'lsa, 1994 yilda 28,7 taga, onalar o'limi esa 19,4 tadan 16,9 taga kamaygan. Toshloq tumanida 60 o'rinli uchastka shifoxonasi, Beshariq tumanida 120 o'rinli onalar-bolalar sanatoriyasi ishga tushirilgan.

Bu davrda viloyatda 387 ming 199 nafar farzand ko'rish yoshidagi ayollar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularning 188 ming 401 nafarida turli xastaliklar aniqlangan. Dispanser nazoratiga olingan 113 ming 272 nafar xastalikka moyil bolalarning 85 ming 425 nafari davolash muassasalarida, 64 ming 520 nafari bolalar yozgi oromgoh va sihatgohlarda sog'lomlashtirilgan. Olib borilgan to'la sog'lomlashtirish tadbirlari natijasida viloyatda bolalar o'limi ko'rsatkichlari 1992 yildagi 41,7 foizdan 28,7 foizga, onalar o'limi esa 38,1 foizdan 18 foizga kamaygan. Kasallikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarning o'z vaqtida o'tkazilganligi sababli yuqumli kasalliklar bilan kasallanish yildan-yilga kamayib borgan. So'nggi 3 yilda ichterlama, virusli gepatit, qizamiq, o'tkir oshqozon ichak kasalliklari 20 foizga kamaygan.

1995 yil Andijon shahrida markaziy stomatologiya poliklinikasi, Xonobod shahrida 410 bemor qabuliga mo'ljallangan poliklinika, 50 o'rinli bolalar kasalxonasi, Marhamat tumanidagi profilaktoriy binolari foydalanishga topshirilgan. Kamqonlik kasaliga duchor bo'lgan ayollarni bepul vitaminizatsiya



qilish 1993 yil yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 67 foizga bajarilgan. Aholi o'rtasida o'lim ko'rsatkichi 12 foizga kamaygan. 1995 yilda Andijon viloyati aholisiga 98 ta shifoxona, 250 ta ambulatoriya, poliklinika muassasalari, 539 ta FAPlari xizmat ko'rsatgan. Ularda 410 ming 950 nafar bemor davolangan. Shu bilan birga shifoxonalarda bemorlarning o'rtacha davolanib ketishi 14,7 kunga to'g'ri kelgan. Umumiy kasallanish viloyat aholisi o'rtasida 637 tadan 505 taga kamaygan.

Andijon viloyatida ambulatoriya-poliklinika muassasalari va shifoxonalar soni 167 ta (1994 yil 155 ta), ulardagi o'rinlar soni 1 ming 243 ta (1994 yil 1 ming 157 ta) yoki 86 ta shifo o'ringa ko'paygan. Ularda davolangan jami 32 ming 156 nafar bemordan 12 ming 557 nafarini bolalar tashkil etgan. Statsionardagi kunduzgi o'rinlar soni 1 285 ta bo'lib (1994 yil 1 ming 227 ta), bu o'rinda 18 ming 360 nafar bemor davolangan. Bu davrda yoqilg'i va transport vositalari yetishmovchiligida muammolar ko'zga tashlangan. Sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan olib borilgan ishlar natijasi o'laroq, qishloqlarda malakali shifokorlarning xizmati yo'lga qo'yildi. Onalar va bolalar o'limi va umumiy o'limning kamayishi kuzatildi. Aholining muntazam ravishda dispanserizatsiya ko'rigidan o'tkazilishi, ayniqsa, bunga zamin yaratdi.

Aholi salomatligini saqlash, sog'lom avlodni kamol toptirishga qaratilgan keng qamrovli kurash o'zining dastlabki samaralarini berdi. Viloyatning Izboskan tumani bo'yicha olingan ko'rsatkichlar buning yaqqol dalilidir.

«Sog'lom avlod uchun» dasturining qabul qilinganligi va bu yo'lda tinimsiz kurash, millatni sog'lomlashtirish, aholi umrini uzaytirish, onalar va bolalalar o'limini kamaytirish kelajak avlodlarga sog'lom va iqtidorli zurriyot qoldirish borasidagi izlanishlar bu sohada to'g'ri yo'l tutilganligini isbotladi.

Shifokorlar malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazishda ilg'or mamlakatlar tajribalari qo'llanila boshlandi. Tibbiy xizmatning sinalgan usullaridan foydalanib, shifokorlar tayyorlash dasturi joriy qilindi. Har ming aholiga o'n besh nafar shifokor, sal kam oltmish nafar o'rta malakali xodimlarning

to'g'ri kelganligi mamlakatda bu sohada dadil qadamlar tashlanayotganidan dalolatdir. Yurtboshining tibbiy xizmatni qishloqning o'zida kuchaytirishga qaratilgan ko'rsatmalari xalqimizning uzoq davrlardan beri qiynab kelgan orzularini amalga oshirdi.

Bu davrda Farg'ona viloyatining 28 ta qishloq uchastka shifoxonasi, 98 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalarida 1 ming 217 ta kunduzgi o'rin-joylarda 1995 yilning o'zida 34 mingdan ortiq qishloq aholisi o'z salomatligini tiklagan. Qishloq joylarda istiqomat qiluvchi 385 mingdan ziyod tug'ish yoshidagi ayollarning sog'lig'ini saqlash maqsadida ular muntazam ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, sog'lomlashtirib borilgan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 1 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarning o'limi 1992 yildagi 45,6 foizdan 25,3 foizga, onalar o'limi esa 20 martaga kamaygan.

O'rganilayotgan davrda vodiy viloyatlarida onalar va bolalar o'limi kamayganligiga qaramay, onalar va bolalar o'limi tizimdagi asosiy muammo sifatida kun tartibida qolgan. Buning sababi qishloq aholisiga tibbiy yordam darajasi shahar fuqarolariga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam darajasida bo'lmaganligidir. Qishloq aholisining 60 foizdan ortig'iga birlamchi tibbiy yordamni FAPlarda, asosan o'rta tibbiyot xodimi ko'rsatgan. Ikkinchidan, qishloqdagi birlamchi tibbiy muassasalarning 56 foizidan ortig'i moslashtirilgan binolarda joylashgan edi. Ularning 37 foizida muzlatgich mavjud bo'lmagan, 55 foizi esa vodoprovod suvi bilan ta'minlanmagan. Natijada viloyatda 1994 yili 16 nafar ayol tug'ish jarayonida vafot etgan. Bunday noxush holat 1993 yilda 20 ta tashkil etgan edi.

1999 yilda Andijon viloyati sog'liqni saqlash tizimida 70 ta shifoxona, 287 mustaqil ambulatoriya-poliklinika, 4 tug'ruq uyi, 83 ta QVA, 124 ta QVP faoliyatda bo'lgan. Aholiga mavjud 18 ming o'rinli 98 ta tibbiyot-profilaktika muassasalari xizmat qilgan. O'z navbatida yangi shifoxonalarni qurish, mavjudlarini ta'mirlash evaziga ularning xizmat ko'rsatish salmog'i oshirilgan.

2000 yilda «Sogʻlom avlod» Davlat dasturiga 6 ta yoʻnalish boʻyicha Andijon hududida viloyat oʻsmirlar poliklinikasi hamda «Ona va bola»skrining markazi tashkil etilib, 26 ming 694 nafar chaqaloq tekshirildi va 51 nafarida tugʻma nuqson borligi aniqlandi. Yoshlarning turmush qurishdan oldin 10 ming 793 nafari tibbiy koʻrikdan oʻtkazildi, 7 952 nafar yosh onalar dispanser nazoratiga olindi. 2000 yilda viloyatdagi 3 ta tugʻruq kompleksi «Bolalarga doʻstona munosabatda boʻluvchi shifoxona» xalqaro sertifikatini olish sharafiga muvassar boʻldi. Ushbu yoʻnalishda olib borilgan ishlar Respublika Vazirlar Mahkamasida koʻrib chiqilib, Andijon tajribasini boshqa viloyatlarda ham targʻib qilinishi tavsiya etildi.

Oʻz navbatida viloyat hokimligi tomonidan ichki bozorda aholining dori-darmonlarga boʻlgan ehtiyojini qondirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar koʻrildi. Lekin, milliy farmasevtika sanoatini rivojlantirmay, xorijlik ishonchli hamkorlar bilan mahalliy hom ashyo hisobiga dori-darmon ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻymasdan bu muammoni hal etish mumkin emasligini hayotning oʻzi yaqqol koʻrsatib qoʻydi. Tibbiyot sohasida ham raqobat yaratish davri keldi.

Bu borada vodiy viloyatlarida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilishi natijasida goʻdaklar oʻlimi koʻrsatkichlari yildan-yilga kamayib borgan.

### 2.1-jadval

#### Goʻdaklar oʻlimi koeffitsienti – qishloqlar boʻyicha (har 1000 nafar tirik tugʻilgan bolaga nisbatan foizda)

Hududlar	2005	2010	2015	2020
Oʻzbekiston Respublikasi	10,4	8,8	9,4	7,5
Andijon viloyati	10,7	5,7	12,1	9,6
Namangan viloyati	7,9	7,0	10,5	6,8
Fargʻona viloyati	14,2	12,9	7,1	5,2

Yuqoridagi jadvaldan koʻrinib turibdiki, 1 yoshga qadar oʻlgan chaqaloqlar 2005 yilga nisbatan 2020 yilda kamaygan, biroq vodiy viloyatlari koʻrsatkichi

respublika ko'rsatkichidan ayrim yillarda yuqori bo'lgan. Jumladan, 2005 yilda 10,4 respublika ko'rsatkichi bo'lgan holda, 10,7 Andijonda, 14,2 Farg'onada bo'lsa, 2015 yilda 9,4 respublikada, 12,1 Andijonda, 10,5 Namanganda va 2020 yilda 7,5 respublikada, 9,6 Andijonga to'g'ri kelgan. Tahlil natijasida ma'lum bo'ldiki, go'daklar o'limi vodiyning boshqa viloyatlariga nisbatan Andijonda ko'proq uchragan.

Namangan viloyatida chaqaloqlar o'rtasida o'lim hollarining ko'payishi Yangiqo'rg'on tumanida kuzatildi. Sababi shundaki, tuman markaziy kasalxonasi tug'ruqxona bo'limida mutaxassis vrach (neonatolog) faoliyat yuritmagan. Bu holat viloyat mutaxassislari va Respublika bosh neonatologi tomonidan o'rganilib, mutaxassislarni joy-joyiga qo'yish talab qilingan. Jumladan, 1–2 yoshgacha bolalar o'limi Namangan, Chortoq va Kosonsoy tumanlarda, 0–5 yoshgacha bolalar o'limi Namangan va Kosonsoy tumanlarda, 0–14 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi esa Namangan tumanida yuqori bo'lgan. Viloyatda 2000 yilda 4 nafar 2001 yilda esa 5 nafar onalar farzand ko'rish jarayonida vafot etgan. Ulardan 4 nafari qishloqlarda istiqomat qilgan hamda 6 nafarining birinchi farzandi bo'lgan. Mazkur ayollarning asosiy qismi uy bekasi bo'lganligini inobatga olsak, ular orasida sog'lomlashtirish ishlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatgan.

Namangan viloyatida bu davrga kelib 1 mln 991 ming 900 nafar aholi istiqomat qilgan. Umumiy aholining 992 ming 800 (49,8 foiz) nafari ayollarni tashkil qilib, ularning 461 ming 662 (23,2 foiz) nafari reproduktiv yoshdagi ayollar hisoblangan hamda 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 748 ming 800 nafar (37,6 foiz), shundan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar 40 ming 180 nafarni tashkil etgan.

## 2.2-jadval

### **Kam vazn toifasidagi bolalar ulushi (jismoniy rivojlanishdan ortda qolayotgan 0-17 yoshlilar foizda)**

<b>Hudud</b>	<b>2000 yil</b>	<b>2005 yil</b>	<b>2010 yil</b>	<b>2015 yil</b>	<b>2020 yil</b>
O'zbekiston Respublikasi	2,9	3,8	2,2	1,1	1,2

Andijon viloyati	1,8	2,2	1,9	1,0	1,0
Namangan viloyati	7,7	8,0	5,2	1,4	1,4
Farg‘ona viloyati	3,6	3,9	1,8	0,7	0,8

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilib shuni aytish mumkinki, sog‘liqni saqlash sohasiga berilayotgan e‘tibor natijasida kam vazn toifasidagi jismoniy rivojlanishdan ortda qolayotgan 0 – 17 yoshli bolalar 2000 yilda respublika bo‘yicha 2,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib 1,2 foizga tushgan. Bu ko‘rsatkich Andijon viloyatida 1,8 foizdan 1,0 foizga, Namangan viloyatida 7,7 foizdan 1,4 foizga, Farg‘ona viloyatida 3,6 foizdan 0,8 fozga qisqargan.

2009 yilda Farg‘ona viloyati aholisiga 12 ming 801 ta o‘rin joyga ega bo‘lgan 78 ta shifoxona, 403 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari, 20 ta tez tibbiy yordam stansiyalari va bo‘limlari, 6 ta sanatoriya, 20 ta davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari xizmat ko‘rsatgan. Mamlakatdagi barcha shahar, qishloq poliklinikalarini 2014 yildan boshlab «Oilaviy poliklinika» tizimiga o‘tkazish bo‘yicha takliflar ma‘qullandi va bu maqsad uchun Jahon banki tomonidan 67 million AQSh dollari miqdorida kredit mablag‘i ajratilgan.

Tadqiqot davrining so‘nggi yillarida qishloq ambulator-poliklinika muassasalari sonini tahlil qilsak, vodiy viloyatlarida ularning soni ortgani yoki kamayganini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

### 2.3-jadval

#### Ambulator-poliklinikalar soni (birlik)

Viloyat nomi	2015	2020
Andijon viloyati	528	474
Namangan viloyati	418	333
Farg‘ona viloyati	596	519

Ushbu jadvaldagi umumiy raqamlarni tumanlar kesimida o'rganadigan bo'lsak, QVPlar 2015–2020 yillarda Andijon viloyati Qo'rg'ontepa, Ho'jabod tumanlarida 3 taga, Izboskan, Ulug'nor tumanlarida 4 taga, Bo'z, Oltinko'l tumanlarida 5 taga, Asaka tumanida 6 taga, Baliqchi tumanida 8 taga, Marhamat, Paxtaobod, Shahrixon tumanlarida 12 taga va Jalaquduq tumanida 13 taga kamaygan bo'lsa, Andijon tumanida 1 taga, Buloqboshi tumanida 3 taga ortgan.

Namangan viloyati Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust tumanlarida 4 taga, Kosonsoy, Mingbuloq, Norin, Pop tumanlarida 7 taga, Namangan tumanida 12 taga, tumanida To'raqo'rg'on tumanida 9 taga va Yangiqo'rg'on tumanida 12 taga kamaygan.

Farg'ona viloyati Rishton, Furqat, Uchko'prik, O'zbekiston tumanlarida 2 taga, Dang'ara, Quva, Yozyovon tumanlarida 4 taga, Beshariq, Qo'shtepa tumanlarida 5 taga, Toshloq, Farg'ona tumanlarida 8 taga Bog'dod va Buvayda tumanlarida 15 taga kamaygan. Lekin, bu ko'rsatkich Oltiariq tumanida 1 taga, So'x tumanida esa 2 taga ortgan. Shifoxona muassasalar soni esa vodiy viloyatlarida quyidagi ko'rinishda bo'lgan.

#### *2.4-jadval*

##### **Shifoxona muassasalari soni (birlik)**

<b>Viloyat nomi</b>	<b>2015</b>	<b>2018</b>	<b>2020</b>
Andijon viloyati	136	139	149
Namangan viloyati	115	131	116
Farg'ona viloyati	123	116	125

Mazkur jadvalni tumanlar kesimida tahlil qilsak, 2015 – 2020 yillar davomida shifoxona muassasalari soni Andijon viloyati Andijon va Jalaquduq tumanlarida 2 taga, Baliqchi va Marhamat tumanlarida 4 taga kamaygan. Lekin, Oltinko'l, Izboskan, Qo'rg'ontepa va Shahrixon tumanlarida 2 taga, Asaka va Buloqboshi tumanlarida 4 taga, Paxtabod tumanida esa 8 taga ortgan. Bu raqamlar Bo'z va Ulug'nor tumanlarida 1 ta hamda Xo'jabod tumanida 4 ta bo'lib ko'rsatilgan yillarda o'zgarishsiz qolgan.

Namangan viloyati Namangan tumanida 3 taga, Norin tumanida 1 taga, Chortoq va Chust tumanida 2 taga kamaygan. Kosonsoy, Mingbuloq, To'raqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanida tumanida 4 taga ortgan bo'lsa, Pop tumanida 7 ta bo'lib bu raqam o'zgarmagan.

Farg'ona viloyati Oltiariq, Rishton, Farg'ona tumanlarida 1 taga, So'x tumanida 4 taga, Buvayda tumanida 6 taga kamaygan. Bu ko'rsatkich Beshariq, Dang'ara, Qo'shtepa tumanida 1 taga, O'zbekiston va Uchko'prik tumanlarida 3 taga ortgan. Lekin, Quva va Furqat tumanlarida 3 ta, Toshloq tumanida 9 ta bo'lib o'zgarishsiz qolgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan shuni alohida aytish mumkinki, ambulator-poliklinikalar sonini kamayishi bilan bog'liq muammolarning asosiy sabablaridan biri bu ularning birlashtirilishida bo'lsa, ikkinchi sababi esa mutaxassis kadrlarning yetishmasligida bo'lgan. Mavjud mutaxassislar esa oylik maoshlarining kamligi sababli moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida shahar joylardagi davlat yoki xususiy shifoxonalarda faoliyat yuritishni ma'qul deb bilgan. Ayrimlari esa katta maosh evaziga chet davlatlarga ishlash maqsadida jo'nab ketgan.

Ambulator-poliklinikalar sonini ortishi esa, ba'zi hududlarda demografik jihatdan aholi sonining ko'payib borishi natijasida tibbiy xizmatga bo'lgan ehtiyojning o'sishida bo'lgan. Shuningdek, keyingi yillarda xususiy tibbiyot muassasalarini tashkil etish va tibbiy jihozlarni chet davlatlardan olib kelish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar ambulator-poliklinikalar sonining ko'payishiga olib kelgan.

Xuddi shunday jarayonlarni bevosita shifoxona muassasalar faoliyatida ham ko'rib o'tish mumkin. Bu dimanik holat faqatgina Andijon viloyatida bir tekkisda ortib borgan. Namanganda 2015 yilga nisbatan 2020 yilda o'sgan bo'lsada, 2018 yilga nisbatan keskin kamaygan. Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich kamayib, ortib turgan.

Hozirgi davrda Yurtboshi tomonidan sohani isloh qilish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Sh.Mirziyoev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish marosimida so‘zlagan nutqida bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish vazifalariga to‘xtalib, «Biz uchun bebaho boylik bo‘lgan inson salomatligini asrash maqsadida sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning birlamchi bo‘g‘inidagi bo‘linmalari, qishloq vrachlik punktlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, tez tibbiy yordam va yuqori texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatadigan, ixtisoslashgan maxsus markazlarni yanada rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish hukumatning e‘tibor markazida bo‘lishi darkor», deya ta’kidlab o‘tgan edi.

2018 yil Andijon viloyati Sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida qurilish-rekonstruksiya ishlari maqsadlashtirilib, isitish tizimlariga energiya tejoychi qozonlar o‘rnatish ishlariga mahalliy budjetdan 7 milliard 429 million so‘m mablag‘ sarflandi.

Tez tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida 2018 yilda 4 ming 682 ta shtat birligi qo‘shimcha kiritildi va 36 ta muassasa yumshoq mebel, kompyuter texnikasi, tibbiy jihozlar bilan ta‘minlandi. Dori-darmon harajatlariga 2017 yildagidan 2,3 barobar ko‘p, ya‘ni 50 milliard 150 million so‘m ajratildi.

Prezidentning 2017 yil 20 iyundagi PQ-3071-son «O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017–2021 yillarda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda «2017–2021 yillarda aholiga ko‘rsatilayotgan yuqori texnologiyali ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatni kompleks rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni Andijon viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida amalga oshirilgan ishlarda namoyon bo‘ldi. Markazda bemorlarning 55 foizini kam ta‘minlangan aholi qatlami, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ishlamaydigan va nafaqadagi fuqarolar tashkil qildi. Tibbiyot markazida yuqori texnologiyali, zamonaviy usullar asosida davolash borasida izlanishlar olib borildi. Respublika miqyosidagi klinikalar mutaxassislari ishtirokida yirik bo‘g‘inlarni endoprotezlash operatsiyalari amalga oshirildi. Uzun suyaklar siniqlarini zamonaviy texnologiyalar asosida, osteosintez qilish usullari Baliqchi, Izboskan, Shahrixon va Oltinko‘l tumanlarida ham amaliyotga tatbiq etildi. Operatsiyalarda Yevropa, Xitoy tajribalaridan foydalanildi. Germaniya



davlati banki krediti asosida zamonaviy diagnostika va davolash usullarini keng joriy qilish ko'zda tutildi.

Andijon viloyatda sog'liqni saqlash sohasida olib borilgan islohotlarni yanada kengaytirish va aholi salomatligini mustahkamlash maqsadida o'tkazilgan so'rovnomada hali amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalar aniqlangan. Jumladan, viloyat aholisining 74 foizi aholiga ko'rsatilgan tibbiy xizmatdan qoniqishini bildirgan, 86 foiz aholi oila shifokorini tanishini ma'lum qilgan. Ulardan 81 foizi oila shifokoriga muntazam murojaat qilishni yo'lga qo'ygan hamda 90 foiz aholi oila hamshirasini tanishini ta'kidlagan, 81 foiz aholidan oila hamshirasi muntazam xabar olishini ochiq qilgan.

Viloyatda aholi o'rtasida kamqonlik, yurak qon-tomir kasalliklari, bo'g'im kasalliklari va qandli diabet hastaligi eng ko'p tarqalganligi ma'lum bo'lgan. Ushbu kasalliklarni oldini olish bo'yicha tibbiy sharoit yaratilsa, 75 foiz aholi o'z xohishi bilan bir yilda bir marotaba tibbiy ko'rikdan o'tmoqchi ekanligi istagini bildirgan.

Ijtimoiy so'rovnomada ishtirok etgan aholining ko'p qismi joylarda zamonaviy tibbiy jihozlar, laboratoriya jihozlari yetishmasligini bildirib, kelgusida ushbu muammolarni hal etilishini so'ragan. Misol uchun, Shahrixon tumanidagi Navro'z, Sherqo'rg'on MFYlar, Ulug'nor tumanidagi Bobur, Guliston, Oqtom MFYlar, Izboskan tumanidagi Botirobod, Beshtarak, Oq oltin, To'raobod MFYlar tibbiy apparatlar bilan ta'minlanishda; Xonobod shahar, Ulug'nor, Oltinko'l, Baliqchi, Buloqboshi, Asaka, Jalaquduq, Paxtaobod, Shahrixon va Xo'jaobod tumanlari aholisi qo'shimcha tez tibbiy yordam avtomashinalari bilan ta'minlashda; Shahrixon tumani Tumor MFY, Ulug'nor tumani Bo'ston MFY, Izboskan tumani Kuygan-yor, Uzun ko'cha, Bo'ston, Guliston, Beshmirza MFYlar, Oltinko'l tumani Saroy, Mirobod MFY, Marhamat tumani Sho'rqaqir MFYlar, Bo'ston tumani Sarbon, Nurafshon, Yakkatol, Ko'xinur MFYlar aholisi uchun yangi oilaviy poliklinika va shifokorlik punktlarini ochishda; Ulug'nor tumani Bo'ston va Mingchinor MFYlar hamda Asaka tumani Cho'ntak, Chorbog' MFYlar dorixona ochish masalasida amaliy yordam so'ralgan.

Bunday tibbiy muammolar Namangan viloyatida ham mavjud bo'lib, Uchqo'rg'on tumanida istiqomat qiluvchi shifokor otoloringolog Qambarova Nodiraxon Asqarovnaning fikricha, viloyatda yurak, qon-tomir, onkologik va endikrinologik kasalliklari aholi orasida hozirgi kunda juda ko'p uchramoqda. Kasallikning kelib chiqish sabablari bu asabiylashish, siqilish, sog'lom turmush tarziga rioya qilmaslik va to'g'ri ovqatlanmaslikdir.

Prezident raisligida 2020 yil 25 fevral kuni sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish o'tkazilgan yig'ilishida eskicha uslubda qolib ketgan tibbiyot kollejlari o'rnida Ibn Sino maktablari tashkil etilishini ta'kidladi. Zero, mamlakat kelajagi yosh avlod kamolotiga bog'liq ekan, ularni sog'lom qilib voyaga yetkazishda yangicha yondashuvlarni joriy qilishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Davlat rahbari tashabbusi bilan tashkillashtirilgan Ibn Sino maktablarida dars va amaliyotlar zamon talablari asosida o'tiladi. Eng muhimi, ularda ulug'ajdodimizning tibbiyot ilmiga oid qarashlari, tavsiyalaridan chuqur saboq beriladi.

Pandemiya saboqlaridan kelib chiqqan holda, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari va ularning joylardagi filiallari o'rtasida telemeditsina yo'lga qo'yilib, diagnostika va davolash uchun imkoniyatlar yanada kengaytirildi.

Qishloq va mahallalarda tibbiy xizmatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida umumiy amaliyot shifokori o'rniga oilaviy shifokor va 5 nafar o'rta tibbiyot xodimidan iborat «Tibbiy brigadalar» tashkil etilib, «oilaviy shifokor» punkti va oilaviy poliklinikalar faoliyati yo'lga qo'yildi. «Qishloq shifokori» dasturi doirasida olis hududlarda el dardiga malham bo'layotgan mingdan ortiq vrachga 30 million so'mdan yordam puli berilishi yo'lga qo'yildi hamda ular xizmat uylari bilan ta'minlandi.

O'rta bo'g'in tibbiyot xodimlarining mavqeini oshirishga qaratilgan tadbirlar doirasida ularga «hamshiralik ishi» bilan mustaqil shug'ullanish imkoniyati yaratilmoqda. Ibn Sino nomidagi texnikumlar (jami 47 ta) bitiruvchilari tibbiyotning bir nechta sohalarida kasb egasi bo'lishi maqsadlashtirilgan.

2020 yilda Farg'ona vodiysi qishloqlari aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish ishlari yanada yaxshilandi. Masalan, Namanganda sog'liqni saqlash

tizimi ishini yangi bosqichga ko'tarish, ayniqsa birlamchi bo'g'in faoliyatini yanada takomillashtirish borasida muayyan ishlar qilindi. Bundan tashqari, mavjud qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, xalqning tibbiy xizmatdan roziligiga erishish bilan bog'liq sa'y-harakatlar pirovardida ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. To'raqo'rg'on tumanidagi «Shohidon» oilaviy shifokor punktida 8 ming nafardan ziyod aholi salomatligini ta'minlashga mas'ul bo'lib, mazkur yilning aprel oyida hududda joylashgan uchta mahallada yashovchi fuqarolar tibbiy xatlov va antropometrik o'lchovlardan o'tkazildi. Viloyatda tibbiyotning nodavlat sektori ham jadal rivojlandi. Ularning soni yildan-yilga keskin ortib, xizmat doirasi ham kengayib bordi. Aynan shu tuman markazida qad rostlagan 40 o'ringa ixtisoslashgan «Hayot medical» xususiy shifoxonasi bu yerdagi qishloq aholisi salomatligini tiklashga hissa qo'shdi. Bu kabi tibbiy xizmatlar Andijon va Farg'ona viloyatlarida ham amalga oshirildi.

Xullosa o'rnida onkogemotologiya, endokrin kasalliklarini davolash maqsadida hududiy shifoxonalarda maxsus bo'limlar tashkil topdi. O'tkir qon-tomir kasalliklari bo'yicha 35 ta tumanlararo markazlar tashkil etildi. Ushbu markazlarning aholiga infarkt va insult holatlarida tezkor va malakali tibbiy yordam ko'rsatilishi orqali ko'plab insonlarning hayoti saqlab qolindi. Shuningdek, bugungi kunda respublikada bo'lgani singari vodiy viloyatlarida ham tibbiy turizm rivojlanib bormoqda. Birgina Andijon viloyatining Marhamat tumanida 30 dan ortiq xususiy shifoxonalar, tumanning so'lim qishloqlarida joylashgan sihatgohlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda mamlakatning turli joylaridan va qo'shni davlatlardan tashrif buyurgan fuqarolar nafaqat sog'liqlarni tiklamoqdalar, balki, hayoti uchun havfli bo'lgan turli kasalliklarga chalinishini oldini olmoqdalar. Eng asosiysi bu orqali tibbiy turizmning dastlabki elementlari shakllanib bormoqda.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Dastlabki o'tish davri va istiqloq yillarida mamlakatda sog'liqni saqlash tizimi qanday bo'lgan?

2. 1994–1995 yillarga mo‘ljallangan «Ekologiya va salomatlik» dasturi qanday maqsadlarga yo‘naltirildi?

3. 1995 yilda Namangan viloyati sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat ko‘rsatgan shifokor va o‘rta tibbiyot xodimlarining soni qancha bo‘lgan?

4. O‘zbekiston Respublikasi shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon viloyati filiali qachon tashkil etilgan?

5. Mamlakatdagi barcha shahar, qishloq poliklinikalar qaysi yildan boshlab «Oilaviy poliklinika» tizimiga o‘tkazildi?

6. «Qishloq shifokori» dasturi doirasida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

7. Prezident raisligida 2020 yil 25 fevral kuni sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishida qanday vazifalar belgilab berildi?

**Tayanch so‘zlar:** Ekologiya, yuqumli kasalliklar, sariq kasalligi, kamqonlik, yurak qon-tomir, bo‘g‘im, qandli diabet kasalliklari, tibbiy ko‘rik, tibbiy xizmat, tez tibbiy yordam, Sanitariya – epidemiologiya nazorati markazi, Shifoxona, Ambulatoriya, Poliklinika, Feldsher-akusherlik punktlari, Qishloq vrachlik punktlari, Oilaviy poliklinika, Oilaviy shifokor.

## **2.2. Qishloq vrachlik punktlarining barpo etilishi hamda ularning faoliyatidagi o‘zgarishlar**

Ma‘lumki, sovet tibbiyot tizimining budjet muammolarida bemor o‘rinlari asosiy ko‘rsatkich hisoblanar, shu boisdan asosiy e‘tibor bemorlar yotib davolanadigan o‘rinlarni ko‘paytirishga qaratilgan edi. Bunday yondashish oqibatida tibbiyotning birinchi zvenosi – tibbiy-sanitariya yordami, ambulatoriya-poliklinika xizmati nochor ahvolga tushib qolgan edi. Bu sohada ilg‘or davlatlar qatoridan o‘rin egallashimizga qaramasdan, bemorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatining darajasi bunga nomunosib ekanligi ayon bo‘lib qoldi.

Istiqlol arafasida O‘zbekistonda 37 foizgina tibbiyot muassasalari loyiha bo‘yicha qurilgan binolarda joylashgan bo‘lib, qishloqlardagi davolash

muassasalari deyarli oddiy, davr talablarga ham javob bermas edi. Ularning uchdan ikki qismida kanalizatsiya inshootlari, to'rt dan uch qismida esa issiq suv ta'minoti umuman bo'lmagan. Qishloq mehnatkashlariga 28 ming shifokor va 110 ming o'rta tibbiyot xodimlari xizmat ko'rsatgan. Farg'ona viloyatida 1992 yilga 143 ta qishloq ambulatoriyalari hamda 37 ta qishloq uchastka shifoxonalarining moddiy-texnikaviy bazasi bosqichma-bosqich mustahkamlanib, tibbiyot asbob-uskunalarini bilan ta'minlanishiga erishildi.

Bu davrda qishloq aholi manzilgohlarining aksariyati yirik va o'rta kattalikdagi qishloqlarga aylanishi qishloqlar bilan tuman markazlari o'rtasidagi masofaning yaqinlashishiga olib keldi. Tabiiyki, bunday sharoitda tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy tashkil etilishi va rivojlanishida o'ziga xos imkoniyatlar yaratiladi. Natijada qishloq joylarda ham zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi barpo etilib, rivojlana boshlagan.

Viloyat sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan qishloq aholisiga ko'rsatilgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash maqsadida shifoxonalarining imkoniyatlari darajasida qishloq fuqarolariga malakali tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida joylarga chiqishlar tashkil qilgan. Jumladan, tumanlardagi 11 ta yuqumli kasalliklar shifoxonalari qoshida reanimatsiya bo'limlari ochilgan. Tuman shifoxonalarida davolangan og'ir bemorlarni o'z vaqtida ixtisoslashgan viloyat shifoxonalariga keltirish uchun sanitariya-aviatsiya bo'limi qoshida 3 ta ixtisoslashtirilgan jonlantiruvchi brigadalar tashkil qilingan. Bundan tashqari, Oltiariq va Dang'ara tumanlaridagi tashxis markazlari hamda 9 ta tumanda xorijdan keltirilgan tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlangan diagnostika xonalarining faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Respublika qishloqlarida bu davrda 863 ta kasalxona, 2 ming 77 ta ambulator-poliklinika, 155 ta tez yordam punktlari, 2 ming 129 ta dorixona va epidemiologiya stansiyalari mavjud bo'lgan.

1995 yilga kelib, Andijon viloyatida 133 ta QVA loyiha asosida qurilib foydalanishga topshirilgan hamda 92 tasi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanib, 32 tasiga telefon tarmog'i tortilgan. Mazkur davrda viloyatdagi 2 ming 537 ta

FAPning 64 tasi loyiha asosida qurildi. Qolganlari moslashtirilgan binolarda joylashgan edi.

Namangan viloyatida mustaqillikning dastlabki 10 yili mobaynida 104 ta qishloq vrachlik punktlari barpo etilib, 41 ta qishloq shifokorlik ambulatoriyasi va FAPlari qishloq vrachlik punktlari (bundan keyin – QVP) maqomiga o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan Sog‘liqni saqlash sohasini takomillashtirish davlat dasturi asosida tibbiyot tizimini tubdan qayta qurish, ko‘p sarf-harajat talab etadigan va hamma vaqt ham samarali bo‘lmagan statsionar-tibbiy yordamdan profilaktika tibbiyotiga o‘tishda muhim omil bo‘ldi.

1996 yil may oyida Vazirlar Mahkamasining «2000 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi qishloq infrastrukturasi rivojlantirish to‘g‘risida»gi qarori e‘lon qilindi. Ushbu qaror asosida Farg‘ona mintaqasida qishloq tibbiy muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ko‘p bosqichli tibbiy yordam o‘rniga ikki bosqichli, ya‘ni QVP hamda tuman markaziy shifoxonasi orqali xizmat ko‘rsatila boshlandi. Bu tibbiyot muassasalarining moddiy-texnikaviy bazasini yaratish va ana shu muassasalarda ishlaydigan amaliyotchi shifokorlar, malakali o‘rta tibbiyot xodimlari xizmatini yo‘lga qo‘yish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

QVP tibbiy muassasa bo‘lib, ma‘lum miqdordagi funksional diagnostika, muolaja xonalari, fizioterapiya hamda bolalar va onalar bo‘limlari, dorixona, kunduzgi shifoxona, emlash xonasi, laboratoriya va boshqa yordamchi xonalar mavjud bo‘lgan. Qishloqlarda shunday tibbiy muassasaning shakllanishi qishloq fuqarolarining o‘z vaqtida salomatligini tekshirtirish, profilaktika ishlarini o‘tkazish hamda birlamchi malakali tibbiy yordam olish uchun imkoniyat yaratdi. Bundan tashqari, muassasada dorixonaning mavjudligi bemorlarga QVPdan chiqmasdan dori-darmon sotib olish imkonini yaratgan.

1996 yil holatiga ko‘ra, Farg‘ona viloyati aholisining 70 foizi qishloq joylarida istiqomat qilgan. Bu davrda qishloqlarda 647 ta FAP, 147 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi va 39 ta qishloq uchastka shifoxonasi faoliyat ko‘rsatgan.

Joylardagi hokimliklar hamda xo‘jaliklarning bevosita yordami va homiylik mablag‘lari hisobiga 30 dan ortiq qishloq vrachlik ambulatoriyasi va 50 dan ortiq FAPlar foydalanishga topshirilgan. Ixtisoslashgan tibbiy yordamni qishloq aholisiga yaqinlashtirish maqsadida birlamchi tibbiy muassasalarda 100 ga yaqin klinik laboratoriya, fizioterapevtik va stomatologik xonalar tashkil etilgan. Viloyat hokimining qaroriga asosan, 4 ta yangi QVP Oxunboboev tumani «Namuna» jamoa xo‘jaligida, So‘x tumani Sarikanda qishlog‘ida, Furqat tumani Navbahor qishlog‘ida, Yozyovon tumani «Navoiy» jamoa xo‘jaligida bino etilgan. Shuningdek, 13 ta birlamchi tibbiy muassasalar Oltiariq, Buvayda, Farg‘ona, Beshariq, Toshloq, Bag‘dod, O‘zbekiston tumanlarida 7 ta QVA hamda Beshariq, Quva, Uchko‘prik, Dang‘ara, Rishton tumanlarida 5 ta FAPlar QVPga aylantirilgan.

Dastur asosida Farg‘ona viloyatida 1996–2000 yillar davomida jami bo‘lib qishloq aholisiga 60 ta tibbiy muassasa bunyod etilgan. Yangidan qurilgan 40 ta QVP, 20 ta birlamchi tibbiy muassasa – FAPlar va qishloq vrachlik ambulatoriyalarning QVPga aylantirilishi shular jumlasidandir. Biroq viloyatda ushbu yo‘nalishdagi ishlar talab darajasida bo‘lmagan. 1997 yili yangidan qurilishi zarur bo‘lgan 9 ta QVPdan faqatgina 1 tasi foydalanishga topshirilgan. Birlamchi tibbiy muassasa bo‘lmish 7 ta FAP larini QVPga aylantirish qoniqarsiz ahvolda bo‘lgan. Faqatgina So‘x va Oltiariq tumanlarida QVP uchun 2 qavatli, zamon talabiga javob beradigan binolar ajratilgan, xolos. QVP tashkil qilish Oxunboboev, Toshloq, Rishton, Buvayda va Bag‘dod tumanlarida mukammal bajarilmagan.

Namangan viloyatida 1999 yil QVPlarga 1 mln 236 ming 700 ta qatnov bo‘lib, uning har biri hisobiga 15 654 ta tashrif to‘g‘ri kelgan. Ularda 16 ming 130 nafar bemor shifo topgan. Bu davrda 441 ming 709 nafar tug‘ish yoshidagi ayollardan 433 ming 959 nafari yoki 98,2 foiz tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, 75,7 foizida ekstragenital kasalliklari aniqlangan. Ularning 81,6 foizi homiladorlikka nisbiy va 11,3 foizi esa mutlaq moneligi bor, deb topilgan. Nisbiy moneligi bor 96,8 foiz ayollar akusher-ginekolog ko‘ruviga yuborilib, ularga kerakli tavsiyalar

berilgan. Bemor ayollarning 243 ming 658 nafari statsionar va poliklinikalarda davolangan.

2006 yilda Namangan viloyatida 223 ta QVPlarda jami 668 nafar vrach, shundan 106 nafar terapevt, 104 nafar pediater, 66 nafar akusher-ginekolog, 75 nafar stomatolog hamda 317 nafar umumiy amaliyot vrachi faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda QVPlarga jami 4 mln 851 ming 800 ta qatnov bo'lgan, ularning 1 mln 761 ming 300 tasini 14 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qilgan.

Namangan viloyatida ham Dastur ijrosi yuzasidan 1996-1998 yillarda 37 ta yangi QVP qurilib, ishga tushirilgan. Shuningdek, 9 ta QVA, 2 ta qishloq uchastka shifoxonasi va 16 ta FAPlari QVP maqomiga o'tkazilgan. Sog'liqni saqlash muassasalari, jumladan, 17 ta QVP zamonaviy tibbiyot jihozlari va asbob-uskunalar bilan ta'minlandi. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi kapital qurilish rejasiga asosan 1999 yil davomida 16 ta QVPda qurilish-montaj ishlari olib borilgan hamda tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlangan. 2000 yilda QVA va FAPlari o'rnida va yangi qurish hisobiga 79 ta QVP qurish va qayta tashkil qilish ishlari amalga oshirilgan. Lekin QVPlarni tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashda belgilangan rejadan 15 mln 207 ming so'm mablag' kam sarflangan. Topshirilgan har bir QVP uchun 44 turdagi jihozlarning o'rtacha 37 turi, 298 birlikdagi tibbiy jihozlardan o'rtacha 213 donasi xarid qilingan, xolos.

Bu davrda viloyatning To'raqo'rg'on tumani «Yangiobod», «Gulqishloq», «Oq tosh» va «Shoxidon», Kosonsoy tumani «Sharq yulduzi» va «Yoshlik», Uychi tumani «Daxiota», «G'alaba» va «Yakkatut», Chust tumani «Olmos», «Chust non», Namangan tumani «Qoratepa» va «G'alcha», Uchqo'rg'on tumani «Chorvador» va «Yangi yer», Yangiqo'rg'on tumani «Mamay» va «G'ovazon», Norin tumani «Uch tepa», «Polvonqul» va «Qozoqovul», Pop tumani «To'da», «Paxtakanar» va «Nayman» kabi QVPlarda kanalizatsiya bilan bog'liq muammolar tufayli ichimlik hamda iste'mol suvi tashib keltirilgan. Tez tibbiy yordam uchun dori-darmon yetarli bo'lmagan. Elektrokardiogramma (bundan keyin - EKG) apparati mavjud bo'lsa-da, mutaxassis xodimlar yetishmasligidan mazkur apparat ishlatilmagan.



Boshqarma tizimida 1999 yil rejasidagi 16 ta QVP barpo qilish ishlari barcha tumanlarda faqat yangi qurilish, 13 tasi markazlashgan budjet, bittasi xususiylashtirish, bittasi qishloq va suv xo'jaligi, bittasi viloyat avtomobil yo'l qurilishi va ekspluatatsiyasi hissadorlik jamiyati mablag'lari hisobiga qurib bitkazilgan. Jami 310 mln 753 ming so'm kapital mablag' sarflangan. Jumladan, 171 mln 693 ming so'mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirilib, har bir QVP o'rtacha 5 mln 83 ming 800 so'mdan tibbiy asbob-uskunalar hamda qattiq-yumshoq jihozlar bilan 100 foiz ta'minlandi. Ushbu ishlarni amalga oshirish jarayonida boshqarma tizimidagi bitta qishloq uchastka shifoxonasi (Chust tumani, «Karkidon») xususiylashtirilgan va 61 ta FAPlari qisqartirilgan, 2 ta QVA hamda 6 ta FAPlari QVP tarkibiga qo'shilgan.

Namangan viloyatida yangi qurilib, ishga tushirilgan hamda qayta tashkil qilingan QVPlarda jami 121 nafar malakali vrachlar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning 50,4 foizi toifaga ega bo'lgan, 45,6 foizi umumiy amaliyot shifokorlarini qayta tayyorlash yo'nalishida o'z malakasini oshirgan. QVPlardagi 468 nafar o'rta tibbiyot xodimlaridan 21,7 foizi toifali hisoblangan. 1998 yil davomida QVPlarda 856 ming nafar bemorga tibbiy xizmat ko'rsatilib, har bir QVPda o'rtacha 13,4 ming nafar bemor qabul qilingan. Lekin Mingbuloq va Norin tumanlaridagi QVPlar faoliyati qoniqarli bo'lmagan.

QVPlarda ishlagan vrachlarning malaka toifalarini tahlil qilsak, ularning 54,7 foizida toifa mavjud bo'lgan. Ushbu holat tumanlar bo'yicha tahlil qilinganda Chust tumanida 44,5 foiz, Mingbuloq tumanida 44 foiz, Chortoq tumanida 41,7 foiz, Yangiqo'rg'on tumanida 39,9 foizni tashkil etib, viloyat ko'rsatkichidan past bo'lgan. Masalan, Chortoq tumanidagi 7 ta QVPda mavjud 11 nafar vrachdan 7 nafari terapevt, 4 nafari pediater mutaxassisi bo'lib, birorta ham akusher-ginekolog yoki stomatolog bo'lmagan. Mingbuloq, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on tumanlarida ham xuddi shunday ahvol kuzatilgan.

Viloyatdagi QVPlarda jami 169 nafar vrach faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ulardan 102 nafari (60,4 foiz) o'z malakalarini oshirgan. Viloyat bo'yicha 1999 yil davomida 1 ta QVPga 13 ming 700 nafar bemorlarning qatnovi qayd qilingan.

Viloyatda faoliyat ko'rsatgan barcha QVPlardagi 392 ta kunduzgi shifo o'rinlarida 15 ming 986 nafar bemor davolangan bo'lsa, bir yil davomida bir shifo o'rinda 40–41 tadan bemor davolanishiga to'g'ri kelib, bemorlarning o'rtacha davolanishi 8,8 kunni tashkil etgan.

QVPlarda ishlash uchun malakali vrachlarni tanlab olinmaganligi va ularga amaliy yordam berilmaganligi sababli bemorlar qatnovi kam bo'lgan, patronaj hamda targ'ibot ishlari sust olib borilgan. Bemorlarning davolanishi va ularni kuzatish jarayoni, laborator tahlillar va diagnostik tekshiruvlar yetarli darajada bo'lmagan. Ayrim joylarda mutaxassislarning fizioterapevtik va EKG apparatlarini ishlatishni bilmaganliklari sababli ulardan unumli foydalanilmagan.

Yangi qurilib foydalanishga topshirilgan QVPlarning ayrimlari tibbiy jihozlar bilan to'liq ta'minlanmay qolgan. Namangan tumanidagi «Bo'ston», «Rovuston», Norin tumanidagi «Qo'g'ay», Pop tumanidagi «Guliston», To'raqo'rg'on tumanidagi «Kattagon saroy», Uchqo'rg'on tumanidagi «Ulug'bek», Chust tumanidagi «Yangiobod», Yangiqo'rg'on tumanidagi «Birlashgan» QVPlar shular jumlasidandir. Barcha QVPlar vaqti-vaqti bilan beriladigan vodoprovod tizimiga ulanganligi sababli suv ta'minotida, ayniqsa, uni doimiy isitib yetkazib berishda qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Ushbu QVPlarda kanalizatsiya tarmog'i tizimi amalda bajarilganligiga qaramay, sifati past bo'lgan. 2000 yilda boshqarma tizimida har bir tumanda bittadan QVP (jami 11 ta) tuman hokimliklari ichki imkoniyatlari hisobidan qayta tashkil qilingan. Shuningdek, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Davlatobod tumanlarida bittadan, markazlashgan davlat budjet mablag'i hisobidan Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, Uchqo'rg'on, Uychi tumanlarida bittadan, xususiylashtirishdan tushadigan mablag' hisobidan Mingbuloq, Chust, Chortoq va Namangan tumanlarida bittadan, boshqa mablag'lar hisobidan hammasi bo'lib 12 ta QVP qurilib, o'z faoliyatini boshlagan. Viloyat qishloqlarida 1996 yildan 2002 yilgacha yangi qurilish hisobiga 81 ta, qishloq uchastka shifoxonasi, QVA va FAPlarini moslashtirish hisobiga 88 ta, jami bo'lib 169 ta QVP bunyod etilgan. Bu ko'rsatkich tumanlar bo'yicha quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

*2.5-jadval*

**Namangan viloyatida barpo etilgan QVPlar soni (1996-2002 yillar yangi qurilish hisobiga)**

<b>№</b>	<b>Tumanlar nomi</b>	<b>QVP soni</b>
1	Mingbuloq tumanida	4 ta
2	Kosonsoy tumanida	8 ta
3	Namangan tumanida	4 ta
4	Norin tumanida	4 ta
5	Pop tumanida	24 ta
6	To'raqo'rg'on tumanida	5 ta
7	Uychi tumanida	4 ta
8	Uchqo'rg'on tumanida	6 ta
9	Chortoq tumanida	10 ta
10	Chust tumanida	9 ta
11	Yangiqo'rg'on tumanida	3 ta
<b>Jami</b>		<b>81 ta</b>

*2.6-jadval*

**Namangan viloyatida barpo etilgan QVPlar soni (1996-2002 yillar qayta moslashtirish hisobiga)**

<b>№</b>	<b>Tumanlar nomi</b>	<b>QVP soni</b>
1	Mingbuloq tumanida	3 ta
2	Kosonsoy tumanida	6 ta
3	Namangan tumanida	10 ta
4	Norin tumanida	12 ta
5	Pop tumanida	6 ta
6	To'raqo'rg'on tumanida	12 ta
7	Uychi tumanida	10 ta

8	Uchqo‘rg‘on tumanida	7 ta
9	Chortoq tumanida	6 ta
10	Chust tumanida	5 ta
11	Yangiqo‘rg‘on tumanida	11 ta
<b>Jami</b>		<b>88 ta</b>

Biroq yangi qurilishi rejalashtirilgan 81 ta o‘rniga 68 ta QVP qurildi yoki reja 83,9 foizga, qishloq uchastka shifoxonalari hamda QVA va FAPlarini QVPlarga moslashtirish rejasidagi 88 ta o‘rniga 55 ta QVP moslashtirildi yoki reja 62,5 foizga bajarildi. Natijada viloyatda barpo qilinadigan jami QVPlar rejasining bajarilishi ta‘minlanmagan. Bunday hol QVPlarning Kosonsoy tumanida 2 ta, Pop tumanida 17 ta, Chortoq tumanida 4 ta, Chust tumanida 4 ta, Uchqo‘rg‘on tumanida 2 tadan kam qurilishi hisobiga yuzaga kelgan. Yangi barpo etilgan QVPlarni ta‘minlash ishlari ham to‘la bajarilmagan. Jumladan, tibbiy asbob-uskunalar bilan ta‘minlash 11,6 foizga, qattiq inventar bilan ta‘minlash 15,3 foizga kam bajarilgan bo‘lsa, moslashtirish hisobiga barpo qilinganlari tibbiy asbob-uskunalar bilan 10 foizga, qattiq inventarlar bilan 4,3 foizga kam ta‘minlangan.

Toza ichimlik suvi tarmoqlari barcha QVPlarga tortilgan. Issiq suv ta‘minoti 87 ta QVPda mavjud bo‘lgan. Shuningdek, 98 ta QVP kanalizatsiya tarmog‘iga ulangan. Issiqlik energiyasi ta‘minoti 100 ta QVPda markazlashgan, qolgan 23 ta QVPda mahalliy pechka, elektrokalerifer kabi isitish tizimiga ega bo‘lgan.

Andijon viloyatida 1996–2000 yillarda 30 ta QVP qurilib, 160 o‘rinli kassalxona, 42 ta QVA va FAPlari QVPlarga aylantirilgan. Biroq foydalanishga topshirilishi kerak bo‘lgan 176 ta QVP dan 38 tasi topshirilmagan yoki bu borada sustkashlikka yo‘l qo‘yilgan. Jumladan, Andijon viloyatida 1996 yili 9 ta, 1997 yili 21 ta, 1998–2000 yillarda 43 ta QVP yangidan qurilgan bo‘lsa, 50 ta QVA va FAPlar kengaytirilib, qayta ta‘mirdan chiqarilib, QVPga moslashtirildi hamda zamonaviy tibbiy asbob-anjomlar, tashxis apparatlari bilan jihozlandi. 2001 yilga kelib viloyat qishloqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan QVPlar soni 165 taga yetdi.

Namangan viloyatida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturiga asosan 2001–2005 yillar davomida 70 ta yangi QVP qurilgan. 44 ta QVA hamda qishloq uchastka shifoxonalari QVPga aylantirilgan. Viloyat qishloqlarida 1996–2006 yillarda jami 215 ta QVP, shu jumladan yangi qurilish hisobiga 127 ta, moslashtirish hisobiga esa 88 ta barpo qilish rejalashtirilgan bo'lib, boshqarma tizimida 2004 yil 1 yanvar holatiga jami 206 ta QVP faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Moslashtirish hisobiga tashkil qilingan QVPlarning aksariyatida ta'mirlash ishlarining sifati past bo'lib, laboratoriya, zararsizlantirish, muolaja xonalari, ayollarni ko'rish xonalari sanitariya talablari darajasida emas, balki yuzaki bajarilgan. Xonalar Respublika Sog'liqni saqlash vazirligining 464-sonli buyrug'ida belgilangan miqdordagi va rusumdagi apparaturalar, tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanmagan. Ishlatilaverib, rangi o'chgan qattiq inventarlar va qiyshayib qolgan mebellar o'rnatilgan. Ushbu holatlar ayniqsa, Chust tumanidagi «Olmos», Mingbuloq tumanidagi «Qayrag'ochovul» QVPlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

Viloyat bo'yicha 2003 yilda jami 29 ta QVP tashkil etilgan. Ularning 4 tasi yangi qurilish hisobiga, 25 tasi QVA, FAP va boshqa muassasalarni moslashtirib, aylantirish hisobiga amalga oshirilgan. Mazkur davrda jami tashkil etilgan QVPlar soni 177 taga yetgan. QVPlarning tashkil etilishi uzoq qishloq joylarda yashovchi aholi uchun qulaylik yaratgan. Davolanish uchun bemorlarning tuman va viloyat markazlariga borishi kamaydi va o'z navbatida ularga ketadigan sarf-harajatlarning tejalishiga olib keldi. 2005 yilda ularning umumiy soni 210 taga yetkazilib, shundan 80 tasi yangi qurilish hisobiga, 130 tasi moslashtirish hisobiga barpo etilgan.

2005 yilga kelib viloyat hududida tashkil etilgan QVPlarning umumiy soni 217 taga yetkazilib, shundan 87 tasi yangi qurilish hisobiga, 130 tasi moslashtirish hisobiga barpo etilgan. 2006 yilda yana 6 ta QVP barpo etilib, ularning jami soni 223 taga yetkazilgan. Viloyatdagi mavjud QVPlarning atiga 53,9 foizi markazlashgan vodoprovod suvi, 3,5 foizi markazlashgan kanalizatsiya, 58,4 foizi gaz, 62 foizi telefon tarmoqlari bilan ta'minlangan, xolos.

Alohida qayd etish kerakki, mustaqillik yillarida tibbiyotning vazifasi bemorni davolash emas, balki kasalliklarning oldini olishga qaratildi. Bemorlar dastlab o'z hududidagi qishloq vrachlik punktlariga, agar lozim bo'lsa tuman markaziy shifoxonalariга murojaat qilishi ko'zda tutildi. Bu esa aholiga qulayliklar yaratdi. Bu borada mahalliy hokimiyatlar ko'magida mintaqa viloyatlarida zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan QVPlari tashkil etildi. Mazkur ishlar Jahon banki hamkorligida «Salomatlik-1», «Salomatlik-2» loyihalari asosida amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni yanada rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi 2007 yil 19 sentabrdagi Farmoni va «Respublika tibbiyot muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2007 yil oktabrdagi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Hududiy sog'liqni saqlash muassasalarining tashkiliy tuzilmasi va faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2008 yil 18 mart kuni chiqarilgan qarori asosida joylarda tuman tibbiyot birlashmalari tashkil etildi. Qishloq uchastka shifoxonalari tuman tibbiyot birlashmalarining bo'limlariga aylantirildi. QVPlarning moddiy-texnikaviy bazasi Osiyo taraqqiyot banki, Quvayt dasturi va «Salomatlik-1», «Salomatlik-2», «Salomatlik-3» loyihalari bo'yicha jahon standartlariga mos ravishda ta'minlandi. «2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi»ga ko'ra, mintaqa viloyatlarida sog'liqni saqlash sohasida sifat o'zgarishlari kuzatildi. Birinchi navbatda bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi emlash yuqori darajada bitkazildi.

O'z navbatida Farg'ona viloyatida 2009 yilga kelib, 293 ta QVP faoliyati yo'lga qo'yilib, jahon andozalari darajasida jihozlashga katta e'tibor qaratilgan. Bu davrda qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun 62 ta QVP to'liq jihozlanib, 18 ta sanitariya avtotransporti vositasi ajratilgan. Qishloq

joylardagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini aholi jon boshiga moliyalashtirish mexanizmini tatbiq qilish natijasida QVPlarning moliyalashtirilishi 3 barobarga oshgan. 2009 yilga nisbatan 2011 yilda QVPga aholi qatnovi 1 kishiga nisbatan 3,9 dan 4,6 gacha ortdi. Viloyatdagi 256 ta QVP «Jahon banki» tomonidan ajratilgan kredit hisobiga zamonaviy, chet elda ishlab chiqarilgan tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan. QVP binolarini joriy va mukammal ta'mirlash hamda namunali shaklga keltirish uchun 2013 yilda (34 ta QVP) 392,2 mln, 2014 yilda (52 ta QVP) 1 mlrd 20 mln, 2015 yilda esa (33 ta QVP) 973 mln so'm mablag' ajratilgan.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi doirasida respublika bo'ylab Jahon banki investitsiyalari jalb qilingani holda 1998 – 2011 yillarda «Salomatlik-1» va «Salomatlik-2» loyihalari doirasida respublikadagi 3 ming 192 ta QVP umumiy qiymati 76 mln AQSh dollari bo'lgan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari bilan to'la ta'minlandi. «Salomatlik-2» loyihasi doirasida 570 ta stomatologik asbob-uskuna QVP va ko'p tarmoqli poliklinikalarga yetkazildi va 811 ta QVPda ijtimoiy dorixonalar tashkil qilindi hamda 1 ming 56 ta QVP ga standartidagi statsionar telefon apparatlari o'rnatilishi natijasida ulardagi aloqa tizimi ta'minoti 97,7 foizga yetdi.

Manzilli dasturga asosan 2010 yili 345 ta QVP 3,2 mlrd so'mlik homiyar va budget mablag'lari hisobiga ta'mirlandi, 2011 yilda 343 ta QVPda 4,6 mlrd so'm mablag' hisobiga ta'mirlash ishlari olib borildi. Qishloq joylardagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini aholi jon boshiga moliyalashtirish mexanizmini tatbiq qilish natijasida QVPlarning moliyalashtirilishi 3 barobarga ko'paydi. 2011 yilga kelib, 2009 yilga nisbatan QVPga aholi qatnovi 1 kishiga nisbatan 3,9 dan 4,6 gacha ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 noyabrdagi «Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1652 sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, 2012 yil Beshariq tuman tibbiyot birlashmasida barcha qulayliklarga ega bo'lgan 2 ta QVP qurilib ishga tushirildi. Respublikaning chekka bir hududida zamonaviy

ko‘rinishdagi, jahon standartlariga to‘la javob bera oladigan, barcha qulayliklarga ega tibbiyot kompleksining tashkil etilishi, birinchidan, aholini barcha kasalliklar bo‘yicha bir joyda ma‘lumot olishiga erishilgan bo‘lsa, ikkinchidan, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanishi tibbiy xizmatning sifatini yanada ortishiga olib keldi. Ma‘lumotlarga qaraganda, 2016 yili tumanda jami 1 468 ta tug‘ruq qayd etilgan bo‘lsa, chaqaloqlar o‘rtasida kasallanish va o‘lim holatlari 2015 yilning shu davriga nisbatan 1,5 foizga kamaygan.

2015 yil davomida viloyatning Yozyovon, Farg‘ona, Quva, Rishton, Uchko‘prik, O‘zbekiston, Beshariq, Bag‘dod, Buvayda tumanlaridagi QVP larda «Sog‘lomlashtirish haftaligi» tashkil etilib, haftalik doirasida respublika va viloyat mutaxassislari tomonidan jami 19 ming 871 nafar onalar va bolalar chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. Ulardan 11 ming 718 nafari tug‘ish yoshidagi ayollar, 8 ming 153 nafari bolalar bo‘lgan. Bu davrda viloyatda 283 ta QVP faoliyat yuritgan.

2015 yilda viloyat aholisi 3 mln 489 ming kishini tashkil etgan. Aholiga 6 ming 249 nafar vrach va 41 ming nafar o‘rta tibbiyot xodimi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatgan. Viloyatda aholiga 59 shifoxona, 375 ta ambulatoriya va poliklinika muassasalari, 20 ta davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari, 19 ta tez tibbiy yordam stansiyasi va bo‘limlari, 19 ta salomatlik instituti filiali hamda markazlari davolash-profilaktika yordamini ko‘rsatgan. Ambulatoriya va poliklinika muassasalaridan 283 tasi QVP, 26 tasi oilaviy poliklinikalarni tashkil etgan. Mazkur yo‘nalishda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida so‘nggi yillarda ham ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Namangan viloyatida 40 ta tibbiyot muassasasi, 102 ta QVP va 207 ta ta‘lim ob‘ektida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta‘mirlash ishlari bajarildi. Andijon viloyatida oxirgi besh yilda 14 ta tibbiyot muassasasida va 127 ta QVPda qurilish-ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi.

Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish va uning sog‘lig‘ini mustahkamlash borasida Andijon viloyati hokimining 1998 yil 16 iyuldagi «Andijon viloyatida tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish ishlarini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 112-sonli farmoyishi chiqarilib, unga asosan sog‘liqni



saqlash tizimiga budjetdan tashqari 30 mln uch yuz o‘ttiz ming so‘m qo‘shimcha mablag‘ ajratildi. Ayollar ko‘chma maslahatxonasi tashkil etilib, kamqonli ayollarni bepul davolash uchun 1 mln 600 ming so‘mlik temir moddali dori-darmon sotib olindi.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1999 yil dekabr oyidagi «Davolash profilaktika muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori e‘lon qilindi. Mazkur qaror asosida shifoxonalarda davolanayotgan hamma bemorlarga ertalabki nonushta davlat hisobidan bepul, badalsiz beriladigan, bolalar muassasalari, sil, ruhiy kasallar, narkomanlar, moxov, nur bilan kasallanganlar, zaxm va orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (bundan keyin – OITS) kasalligi, yuqumli kasalliklarga chalinganlar, jonlantirish va intensiv palatadagi bemorlar, homilador va tug‘ruqdan keyingi hollarda kamqonlik kasalligi bor ayollar, endokrin kasalliklari bilan og‘riganlar, shuningdek, nogironlarning ham davlat tomonidan shifoxonada davolanayotgan davrdagi ovqatlanishiga haq olinmaydigan bo‘ldi.

«Sog‘lom avlod yili»da Andijon viloyati hokimining tashabbusi bilan onalar va bolalarni sog‘lomlashtirish yo‘nalishi bo‘yicha qo‘shimcha 95 mln 280 ming so‘m mablag‘ ajratildi. Ushbu mablag‘lar hisobiga bolalar muassasalari moddiy-texnikaviy bazalarining sifati yaxshilandi. Viloyatda mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar natijasida 1995 yilga nisbatan 2000 yilda 18 ming 670 nafar kasalmand bolalar tug‘ilishining oldi olindi.

Mustaqillik yillarida aholi salomatligini saqlash, ularga tibbiy yordam ko‘rsatishni yaxshilash yuzasidan tumanlarda ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Masalan, istiqloq sharofati bilan tashkil topgan Buloqboshi tumanida 1992 yilda kuniga 150 bemorga xizmat ko‘rsata oladigan poliklinika, 1997-1998 yillarda Mayariq, Chaqar, Sarvontepa qishloqlarida QVP lar bunyod etildi. 2001 yilda tuman «Shoshilinch tez tibbiy yordam» bo‘limi qurilib, foydalanishga topshirildi. Buloqboshi, Mayariq, Nayman, Shirmonbuloq, Uchtepa, Kulla qishloqlarida tuman markaziy kasalxonasi bo‘limlarining har biriga 2–3 tadan yengil avtomashina ajratilib, malakali vrach va hamshiralar jalb qilindi. Bunga qadar Toshkentda yoki

viloyat markazida davolanib kelingan murakkab, og'ir xastaliklar, jumladan, oshqozon rezeksiyasi, o't pufagi, jigar va o'pka exinokokkini olib tashlash, ichak tutilishi xastaligi va buyrak-tosh kasalliklarini endi tuman shifoxonalarining o'zida davolash yo'lga qo'yildi. Bu bilan tuman aholisiga katta qulayliklar yaratildi. 1991-2001 yillarda tuman sog'liqni saqlash muassasalari bilimdon, malakali va tajribali vrachlar, o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar va hamshiralar bilan ta'minlandi. Tibbiy muassasalarning moddiy-texnikaviy bazasi talab darajasida mustahkamlandi.

Paxtaobod tumani Madaniyat qishlog'idagi QVP 50 qatnovli bo'lib, 2015 yilda 9 nafar amaliyot va stomatolog shifokor va 16 nafar o'rta tibbiy xodimlari aholi salomatligiga kamarbasta bo'lib, 6 ming 600 nafar aholiga xizmat ko'rsatgan.

«Salomatlik-2» loyihasi asosida 17 turda 30 mln so'mlik turli zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar olindi. Natijada, fuqarolar sog'lig'i holatini tezkor o'rganish va tashxis qo'yish imkoniyatlari yuzaga keldi. Endi esa turli tahlillar, hatto buyrak, jigar, yurak faoliyatini ham QVPda tekshirish yo'lga qo'yildi. Qishloq aholisining yuqumli kasalliklarga chalinishi, onalar va bolalar o'limi keskin kamaydi.

Andijon viloyatida istiqomat qilayotgan 2 million 800 mingdan ortiq aholiga birlamchi tizimda 359 ta poliklinika muassasasi, jumladan, 312 ta qishloq vrachlik punkti tibbiy xizmat ko'rsatgan. Barcha QVPlar «Salomatlik-2» loyihasi doirasida qariyb 4 mlrd so'mlik eng zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Ularga yuridik maqom berildi, 2007 yildan boshlab jon boshiga qarab moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

2014 yilda viloyatdagi 4 ta – Baliqchi, Oltinko'l, Bo'z va Izboskan tumanlari tibbiyot birlashmalari «Salomatlik-2» loyihasi doirasida Yaponiyada ishlab chiqarilgan, umumiy qiymati 1 mlrd so'mlik yuqori texnologik raqamli rentgen apparatlari bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, barcha tuman tibbiyot birlashmalariga zamonaviy ultratovush apparatlari, diagnostik «Digitayzer» moslamasi, 3 donadan avtoklav va muzlatgich, vaksina saqlovchi moslamalar keltirildi. Ana shu maqsadlarda loyiha doirasida 3,1 mlrd so'mlik tibbiy jihozlar

olib kelindi. Natijada, fuqarolar sog‘ligi holatini tezkor o‘rganish va tashxis qo‘yish imkoniyatlari yuzaga keldi. Uning amaliy natijasida turli tahlillar hatto buyrak, jigar, yurak faoliyati ham o‘z joyida tekshirila boshlandi.

2001 yilga kelib, mamlakatda bo‘lgani kabi Andijon viloyatida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishning yaxlit tizimi yaratildi. Aholiga yuqori sifatli ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida maxsus ixtisoslashtirilgan markazlar tashkil etildi va faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Sog‘liqni saqlash tizimida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ona va bola salomatligini muhofaza qilish masalasi faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘ldi.

2011 yilda viloyat davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi qoshida AQSh ning «Bektel» kompaniyasi tomonidan biologik xavfni kamaytirish dasturiga asosan 760 ming AQSh dollari qiymatiga ega mintaqaviy diagnostika laboratoriyasi foydalanishga topshirildi. 464 ming AQSh dollaridan ziyod mablag‘ evaziga zamonaviy laboratoriya jihozlari o‘rnatilishi natijasida o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarning respublika hududiga kirib kelishining oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlari samarali yo‘lga qo‘yildi.

O‘z navbatida Qorasuv shahri va Bo‘z tumani tibbiyot birlashmalari, OITSGa qarshi kurash markazi va qon quyish stansiyasi, viloyat va Qorasuv shahri davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari (bundan keyin – DSENM) to‘liq modernizatsiya qilindi. Izboskan tumani tibbiyot birlashmasi, viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, onkologiya dispanseri, Oltinko‘l tumani DSENM, Andijon shahridagi 1-tug‘ruq majmuasi, Izboskan tumanidagi 2-son viloyat silga qarshi kurash dispanseri foydalanishga topshirildi.

Tibbiyotimizning milliy modeli xalqaro ekspertlar tomonidan e‘tirof etilib, Jahon salomatlik tashkiloti tomonidan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun namuna sifatida xizmat qildi.

So‘nggi yillar davomida amalga oshirilgan tizimli tadbirlar natijasida onalar o‘limi, go‘daklar o‘limi kabi fojialar uch martaga kamaydi. Eng asosiysi, 2011 yilda «Bolalarni asraymiz» Xalqaro tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan monitoring

natijalariga ko'ra, O'zbekiston dunyodagi 161 ta davlat ichida 9-o'rinni egalladi. Tug'ish yoshidagi ayollar, o'smir qizlar, bolalarning davriy tibbiy ko'riklardan o'tkazilishi kasalliklarni oldini olish, ularni erta aniqlash va samarali davolash uchun asos yaratibgina qolmay, aholining o'z salomatligiga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Qishloq joylarda istiqomat qiluvchi homilador ayollarga bo'lajak farzandlari sog'lom tug'ilishi uchun juda zarur bo'lgan polivitamin minerallar komplekslarining bepul tarqatib berilishi o'z navbatida xalqaro darajadagi nodir tajriba edi.

O'z navbatida qishloq joylarida QVPlarni qurish va moslashtirish ishlarini 3 bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich 1991–2005 yillarni o'z ichiga olib bu davrda qishloq vrachlik ambulatoriyalari va feldsher-akusherlik punktlari QVPga aylantirildi hamda yangilari qurildi.

Ikkinchi bosqich 2006–2016 yillar bilan chegaralanadi. Bu davrda yangi QVPlar bunyod etilib, kerakli tibbiy asbob-uskunalar bilan jihojlandi.

Uchinchi bosqich esa 2017 yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan davr. 2017 yildan boshlab, QVPlar qishloq oilaviy poliklinikasiga aylantirilib, eng so'nggi zamonaviy tibbiy asbob uskunalar o'rnatildi. U yerda umummiy amaliyot shifokoridan tashqari tor doiradagi mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatda so'nggi yillarda Qishloq oilaviy poliklinikalarini qurish, uning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, kerakli tibbiy jihozlar bilan ta'minlash borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilib, sohadagi ishlar tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Bu borada Qishloq vrachlik punktlari joylashuvini qayta ko'rib chiqilib, samarasiz ishlayotgan punktlarni optimallashtirildi. Ularga sarflanayotgan mablag'larni talab yuqori bo'lgan qishloq vrachlik punktlarini moddiy-texnikaviy jihatdan mustahkamlashga, munosiblarini poliklinikalarga aylantirishga hamda malakali shifokorlarni rag'batlantirishga e'tibor qaratildi. Qishloq vrachlik punktlari faoliyatini tunu-kun yo'lga qo'yish, vrach u yerda yashashi uchun zarur sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor berildi.

So'nggi yillarda har bir tumanda eng zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Qishloqlarda yashayotgan aholi, birinchi navbatda, xotin-qizlar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish borasidagi ishlar davom ettirildi. O'tgan yillar mobaynida Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi ham ortib bordi. Demografik ma'lumotlarga ko'ra, bu boradagi umumiy ko'rsatkich 1990 yilda 67 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 74 yoshga yetdi. Jumladan o'rta umr ko'rish yoshi ayollarda 73,5 yoshdan 76,0 yoshga, erkaklarda esa 69,0 yoshdan 72,1 yoshga uzaygan.

Davlat rahbari boshchiligida sohaga berilayotgan e'tibor natijasida bugun mazkur yo'nalishda davlat muassasalari bilan bir qatorda xususiy tibbiyot yo'nalishi ham jadal rivojlandi. Davolash faoliyati turlari 50 tadan 126 taga ko'paytirilishi natijasida ularga qator imtiyozlar berildi.

Pandemiya sharoitidan to'g'ri xulosa chiqargan holda bugun ijtimoiy sohadagi islohotlar respublika hukumati, ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimi oldiga aniq vazifalarni qo'yimoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini hozirgi 74,6 yoshdan 76 yoshga yetkazish va go'daklar o'limi ko'rsatkichini hozirgi 10 promilledan 1,5 barobar kamaytirib, 7 promillega tushirish, o'lim ko'rsatkichini saraton kasalligi bo'yicha hozirgi 73 foizdan 65 foizga, yurak qon-tomir kasalliklari bo'yicha esa bugungi 41 foizdan 30 foizga tushirish ustida olib borilishi kerak bo'lgan ishlar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik arafasida mamlakatda jumladan, Farg'ona vodiysi viloyatlarida ham tibbiy muassasalar, ambulatoriya va poliklinikalar holati talab darajasida bo'lmagan. QVPlarning aksariyati moslashtirilgan binolarda joylashgan bo'lib, toza ichimlik suvi, issiqlik ta'minotida qator muammolar mavjud bo'lgan.

Mutaxassis tibbiyot xodimlarining yetishmasligi sababli bu davrda QVPlarga keltirilgan ultratovushli tekshiruv, elektrokardiogramma (EKG) va shunga o'xshash tibbiy apparatlar ishlatilmagan. Oliy ma'lumotli shifokorlar yoki o'rta maxsus tibbiyot xodimlarining aksariyati malaka oshirish va qayta tayyorlov

kurslaridan o'tmagan. Aholi orasida patronaj va targ'ibot ishlari sust olib borilgan. Eng achinarlisi, qishloq joylarida onalar va bolalar o'limi ham kuzatilgan.

Davlatimiz tomonidan keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida QVPlar qishloq oilaviy poliklinikalariga aylantirildi. Umumiy amaliyot shifokoridan tashqari terapevt, ginekolog, stomatolog, LOR kabi mutaxassisliklar ish birligi joriy etildi. Patronaj hamshiralar faoliyati yo'lga qo'yildi. Yangi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Ulardagi o'qish muddati 7 yildan 6 yilga kamaytirilishi orqali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bartaraf etilmoqda. Shuningdek, bugungi kunga kelib xususiy shifoxonalar faoliyatini kengroq yo'lga qo'yish, ular uchun kerakli tibbiy jihozlarni chet davlatlardan bojxona to'lovlarisiz olib kirish uchun bir qator imkoniyatlar yaratildi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Istiqlol arafasida mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot muassasalarining necha foizi loyiha bo'yicha qurilgan binolarda joylashgan?

2. Namangan viloyatida mustaqillikning dastlabki 10 yili mobaynida nechta qishloq vrachlik punktlari barpo etilgan?

3. 1999 yilda Namangan viloyatdagi QVPlarda jami faoliyat ko'rsatgan jami 169 nafar vrachlardan necha nafari o'z malakalarini oshirgan?

4. Vodiy viloyatlari qishloqlarida QVPlarda mavjud fizioterapevtik va EKG apparatlaridan unumli foydalanilmaganligini sababi nimada edi?

5. Andijon viloyatida 2001 yilda faoliyat ko'rsatayotgan QVPlar soni qanchani tashkil etgan?

6. «Salomatlik-1», «Salomatlik-2», «Salomatlik-3» loyihalari doirasida qishloqlarda qanday ishlar amalga oshirildi?

7. Qishloq joylarida QVPlarni qurish va moslashtirish ishlarini nechta bosqichga bo'lish mumkin?

**Tayanch so'zlar:** Qishloq vrachlik punktlari, Elektrokardiogramma, fizioterapevtik, tibbiy asbob-uskunalar.

## **UCHINCHI BO‘LIM**

### **FARG‘ONA VODIYSIDA TA‘LIM MUASSASALARINING IJTIMOIIY HOLATI VA O‘RTA MAXSUS O‘QUV YURTLARI FAOLIYATI**

#### **3.1. Vodiy qishloqlarida milliy ta‘lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi**

Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy taraqqiyotning eng muhim poydevori – ta‘lim tizimi hisoblanadi. Zero, zamon talablariga javob beradigan, ilg‘or fan-texnika va texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni tayyorlamasdan jamiyatni yuksaltirib bo‘lmaydi.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan yangi qonunlar asosida mamlakatda yagona uzluksiz ta‘lim tizimini yaratish borasida keng ko‘lamli islohotlar boshlab yuborildi. U maktabgacha tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va hunar-texnika ta‘limi, oliy ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, kadrlar tayyorlash hamda malaka oshirish tarmoqlarini o‘z ichiga oldi. Dastlab asosiy e‘tibor maktabgacha tarbiya tizimida tub o‘zgarishlar qilishga qaratildi. «Maktabgacha tarbiya konsepsiyasi», «Sog‘lom avlod uchun» dasturi, «Olti yoshli bolalarni savodga o‘rgatish konsepsiyasi va dasturi» maktabgacha tarbiya muassasalari ishini yangi yo‘nalishga solishda muhim omil bo‘ldi.

Ta‘lim-tarbiya sohasidagi islohotlar asosan ikki yo‘nalishda olib borildi: birinchisi – mavjud umumta‘lim maktablarining moddiy-texnikaviy bazasidan tortib ta‘lim-tarbiya ishlarini, o‘quv rejalari va metodlarini yangi tizimga solish va zamon talabi asosida qayta qurish bo‘lsa, ikkinchisi eng muhim yo‘nalish bo‘lib, unda butunlay yangi turdagi ta‘lim muassasalarini tashkil qilishdan iborat bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasida aholining asosiy qismi qishloq joylarida istiqomat qilganligi sababli maktabgacha yoshdagi aholi guruhlarining ham mutlaq ko‘pchiligi qishloqlarga to‘g‘ri keldi. Istiqlolning dastlabki yillarida bir qancha maktabgacha ta‘lim muassasalari (bundan keyin – MTM) qurilib, foydalanishga topshirilganligiga qaramay, mazkur holat vodiy viloyatlarida muammoligicha qolgan. 1990 yilda Namangan va Andijon viloyatlarining 9 – 30 foiz qishloq

joylarida MTM mavjud bo'lmagan. 1992 yilda Farg'ona viloyatidagi bog'chalarda 35 foiz kichkintoylar tarbiyalangan bo'lsa, Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatgan MTMlardagi 1-6 yoshli bolalar 38,5 foizni tashkil etgan, xolos. 1993 yilda esa 2 ming 130 o'rinli 22 ta MTM foydalanishga topshirilgan bo'lib, bu davrda viloyatdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida 137 mingdan ziyod kichkintoylar tarbiyasi bilan 8 ming 622 nafar pedagog va tarbiyachi shug'ullangan. Bir qator bog'cha va yaslilarda zamon talablari asosida chet tilini o'rgatish, kichkintoylarning jismoniy tarbiya va sport, san'at bilan shug'ullanishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish hamda tibbiyot hamshiralari faoliyatini yo'lga qo'yish yuzasidan zarur choralar ko'rilgan.

Asta-sekin kichkintoylar hayotiga kompyuter (elektron hisoblash mashinalari) kirib keldi. Maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalarning «Kompyuter savodxonligi» bo'yicha amaliy ko'nikmalari shakllantirildi. Bu davrda Andijon, Poytug' shaharlari va Baliqchi tumanida «Bog'cha-gimnaziya» komplekslari faoliyat ko'rsatdi.

MTMlarga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish hamda tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish hokimliklar hamda mutasaddi tashkilotlarning doimiy e'tiborida bo'lgan. Ba'zi joylarda bog'cha va yaslilar faoliyati talab darajasida bo'lmagan yoki mehnat jamoasi hali-hamon tarbiyaning eski usullaridan foydalanishda davom etgan. Ayrim bog'chalarda hatto bolalar haqiga hiyonat qilishgacha borib yetilgan. Jumladan, Buloqboshi tumanidagi 1- va 2-bolalar bog'chalarida sut va sut mahsulotlarini bolalarga to'la bermaslik, hatto sutga suv qo'shib berish hollari yuz bergan. Sanitariya holatlariga e'tibor berilmaganligi oqibatida Qo'rg'ontepa tumanidagi 2-sonli bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilari orasida dizenteriya-o'tkir oshqozon-ichak yuqumli kasalligi tarqalgan. Natijada 71 nafar bola kasalxonaga joylashtirilgan. Eng achinarlisi, olib borilgan sog'lomlashtirish ishlariga qaramay hayotdan ko'z yumgan norasida go'daklar ham bo'lgan.

Bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalariga yetarlicha jalb etish imkoni bo'lmagan mazkur davrda ishlab turgan bog'cha-yaslilarni yopib qo'yish hollari



ham kuzatilgan. Masalan, 1994 yilning o'zida Asaka tumanida 21 ta, Andijon tumanida 16 ta, Buloqboshi va Xo'jaobod tumanlarida 8 tadan, viloyat bo'yicha jami 67 ta jamoa xo'jaliklari, korxonalar va tashkilotlarga qarashli MTMLar yopib qo'yilgan. Ularda tarbiyalangan 10 mingga yaqin kichkintoy maktabgacha tarbiyadan chetda qolgan.

Andijon viloyatida 1997 yilga kelib 800 ta MTMLar faoliyat yuritgan bo'lsa-da, ularda 95 ming nafar bola tarbiyalangan, xolos. Bu esa viloyatda maktabgacha yoshdagi bolalarning 27,3 foizini tashkil etgan. Keyingi yillarda maktabgacha tarbiya muassasalariga bolalarning qamrab olish darajasi sezilarli darajada pasaygan. Natijada viloyat bo'yicha 79 mingdan ziyodroq ayollar 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni parvarishlab, ularni bog'chalarga bermasdan, o'z xonadonlarida tarbiyalagan.

Yurtimizda 2010 yilda jami 5 ming 375 ta bolalar bog'chasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2015 yilga kelib ularning soni qariyb 5 ming 126 tani tashkil qildi. Qishloq joylarida esa 2 ming 339 tadan 2 ming 61 taga kamaydi. Ulardagi bolalar soni 2010 yilda 522,9 ming nafar bo'lgan bo'lsa, 2015 yil holatiga 634,1 ming nafarga ortdi. Jumladan, qishloq joylarida bu ko'rsatkich 164,9 ming nafardan 176,6 ming nafarga ko'paydi.

Bu davrda 1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish respublika bo'yicha 15,4 foizdan 15,5 foizga ortgan bo'lsa, qishloq joylarida 9,0 foizdan 7,7 foizga kamaydi.

Agar statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, respublika bo'yicha 1-6 yoshgacha bo'lgan bolalarni MTMLarga qamrab olish 1991 yildagi 35,1 foizdan 2016 yilga kelib 17,3 foizga tushib qoldi. Vodiy viloyatlari bo'yicha bu ko'rsatkichlar yuqoridagi yillarga mos holda quyidagicha bo'ldi: Andijonda – 40,8 foizdan 15,8 foizga, Namanganda – 38,3 foizdan 16,4 foizga, Farg'onada esa 44,2 foizdan 17,9 foizga qisqardi. Mustaqillik yillarida bolalarning MTMLarga qamrab olinishining keskin kamayishining asosiy sabablaridan biri MTMLar soni qisqarishi bo'ldi.

Shu bilan birga, 1-6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish 2005 yilda respublikada 18,3 foizni tashkil etgan bo'lsa 2020 yilga

kelib, 26,3 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich dinamikasi Andijon viloyatida 17,0 foizdan 28,5 foizga, Namangan viloyatida 19,6 foizdan 29 foizga va Farg'ona viloyatida 22,2 foizdan 28,9 foizga yetganligini ko'rish mumkin.

2010 yilda vodiylar viloyatlari qishloq joylarida 1 ming 318 ta MTMLar faoliyat yuritgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, Andijon viloyati qishloqlarida 400 ta, Namangan viloyati qishloqlarida 419 ta va Farg'ona viloyati qishloqlarida 499 tani tashkil etgan. Ularda jami 117 ming 254 nafar bolalar tarbiyalangan bo'lsa, shundan, 56 ming 604 nafari qizlar va 60 ming 650 nafari o'g'il bolalar edi. Bu davrda Andijon viloyati qishloqlaridagi MTMLarda tarbiyalangan 33 ming 597 nafar kichkintoylarning 16 ming 21 nafari qizlar va 17 ming 576 nafari o'g'il bolalar tashkil etgan. Namangan viloyati qishloqlari MTMLaridagi 38 ming 771 nafar tarbiyalanuvchilarning 18 ming 839 nafari qizlar, 19 ming 932 nafari o'g'il bolalardir. Farg'ona viloyati qishloq joylaridagi MTMLarda ham 44 ming 886 nafar tarbiyalanuvchilarning 21 ming 744 nafari qizlar va 23 ming 142 nafari o'g'il bolalar salmog'iga to'g'ri kelgan.

Vodiy viloyatlari qishloq joylarida 2020 yilga kelib MTMLar soni 1 ming 794 taga yetgan. Ularda tarbiyalangan kichkintoylarning soni esa 275 ming 919 nafarga ortgan. Shundan, 132 ming 60 nafari qizlar, 53 ming 5 nafari o'g'il bolalardir. Bu ko'rsatkich Andijon viloyatida 579 taga ko'payib, ularda tarbiyalangan bolalar soni 94 ming 647 nafarga yetgan. Bu vaqtda Namangan viloyatida MTMLar soni 536 taga yetgan. Ularda tarbiyalangan bolalar soni esa 87 ming 93 nafarni tashkil qilgan. Farg'ona viloyatida 679 ta MTMLar faoliyati yo'lga qo'yilib ularda 94 ming 179 nafar kichkintoylar tarbiyalanganligini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

### 3.1-jadval

#### Vodiy viloyatlari qishloq joylarida Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilar va ular haqidagi ma'lumot

2010 yil				
Hudud	Maktabgacha ta'lim muassasalari, birlik	Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar soni, kishi		
		Jami	Qizlar	O'g'il bolalar

Farg‘ona vodiysi qishloqlari	1318	117 254	56 604	60 650
Andijon viloyati qishloqlari	400	33 597	16 021	17 576
Namangan viloyati qishloqlari	419	38 771	18 839	19 932
Farg‘ona viloyati qishloqlari	499	44 886	21 744	23 142
<b>2020 yil</b>				
Hudud	Maktabgacha ta’lim muassasalari, birlik	Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi bolalar soni, kishi		
		Jami	Qizlar	O‘g‘il bolalar
Farg‘ona vodiysi qishloqlari	1 794	275 919	132 060	143 859
Andijon viloyati qishloqlari	579	94 647	45 058	49 589
Namangan viloyati qishloqlari	536	87 093	41 666	45 427
Farg‘ona viloyati qishloqlari	679	94 179	45 336	48 843

Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilgan ishlarni vodiylar viloyatlari qishloqlari misolida tahlil qilinib, tadqiqot davrida qishloq joylaridagi maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining soni 2015 yilgacha kamayib borganligi va 2016 yildan 2020 yilgacha bu raqamlar o‘sib borganligi 3.2-jadvalda o‘z aksini topgan.

**3.2-jadval**

**Qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari soni, kishi hisobida (1995-2020 yillar)**

Hudud	1995	2000	2005	2010	2015	2020
O‘zbekiston Respublikasi	38441	25378	26991	21404	17422	37735
Andijon	5356	3545	3880	2237	2326	4924
Namangan	4982	3534	3639	2625	2317	4805
Farg‘ona	8331	4770	5214	4326	2899	7024

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 30 sentabrda «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni imzolandi. Unga ko'ra, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi va uning zimmasiga qator muhim vazifalar yuklatildi. Bu borada Prezident «Ushbu sohaga bir paytlar e'tiborimizni susaytirib yuborganimiz oqibatida ko'pgina muammolar yig'ilib qolganini ochiq aytish lozim. Bog'cha tarbiyasini ko'rgan bolaning ongi, dunyoqarashi qanday yuqori bo'lishini bugun kimgadir isbotlab o'tirishning, o'ylaymanki, hech qanday hojati yo'q», deb ta'kidlagan edi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha yurtimizda 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturda ushbu ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning tarmog'ini kengaytirish, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy usul va dasturlarni joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar belgilandi. Unga asosan 2016-2017 yillarda birgina Andijon viloyatining o'zida mahalliy budjet mablag'lari hisobidan 178 ta maktabgacha ta'lim muassasasida joriy, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib, 168 ta xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil etilgan bo'lsa, respublika bo'yicha 300 dan ortiq maktabgacha ta'lim muassasasi ta'mirdan chiqarildi.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatda 2019 yil davomida 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bog'chalar tashkil etilib, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi bir yil davomida 38 foizdan 52 foizga ko'tarildi.

Natijada bog'chada tarbiya olgan kichkintoylarning soni bir yilda 400 mingtaga ko'payib, jami 1 million 800 ming nafarga yetadi. Ushbu maqsadlarga 2020 yilda budjetdan qariyb 1,8 trillion so'm mablag' ajratildi.

1980-yillar boshlariga kelib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim islohotini ro'yobga chiqarishda qog'ozbozlik, rasmiyatchilik, ma'muriy-buyruqbozlik avj oldi, bu esa o'z navbatida umumta'lim maktablarida keng ko'lamdagi islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qildi. Maktablar buyruqlarni ko'r-ko'rona ijro etuvchi muassasaga aylanib, ulardagi tashabbuskorlik ruhi yo'qoldi. Bir necha o'n yillar davom etgan bu holat umumta'lim maktablarini mavjud hayotiy voqelikdan uzoqlashtirdi, natijada maktab ta'lim-tarbiyasi bilan jamiyat hayoti o'rtasida keskin tafovut vujudga keldi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillarda ta'lim muddati o'rtacha olganda 10 yilni tashkil etgan. Ammo o'qitish sifati bilan bog'liq bir qator kamchiliklar mavjud ediki, ulardan ta'lim tizimi davlat rejasi va sovet mafkurasiga asoslanganligi va uning kuchli nazorat ostida kechishini qayd etish mumkin. O'quv muassasalaridagi o'qitish xonalari, ayniqsa, qishloqlarda ta'lim berish maqsadlariga muvofiq kelmasdi. Maktablarning yarmidan ko'pi uy-joy binolariga joylashtirilgan, suv bilan ta'minlanmagan, isitish va kanalizatsiya tizimi yo'lga qo'yilmagan edi. Bunday sharoitda ayniqsa, mehnat bozorida yoshlar muammolari bilan bog'liq ijtimoiy keskinlik xavfi ham mavjud edi.

Istiqlolning dastlabki kunlarida mamlakat qishloq maktablarida 3 mln dan ortiq yoki umumiy o'quvchilar sonining 66 foizi ta'lim olgan. Sinf xonalari yetishmasligidan o'quvchilarning 27,3 foizi ikkinchi va uchinchi smenalarda o'qitilgan. Birgina, Andijon viloyatida bu ko'rsatkich 29 foizni tashkil etgan. Bu davrda Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida qishloq joylarining 34-38 foizida maktablar bo'lmaganligi sababli o'quvchilar boshqa joylarda o'qishga majbur bo'lgan.

1991 yil 20 noyabrda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi qonunda «Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun shart-

sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat» ekanligi belgilab qo'yildi. Xalq ta'limi rivoji uchun shart-sharoitlar yaratilib, tizimning milliylik asosida tubdan yangilashga e'tibor qaratildi. 1992 yil «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, unda xalq ta'limi tizimini isloh etish, uni jahon andozalariga moslashtirish, milliy kadrlar tayyorlashning mukammalashgan tizimini vujudga keltirish, iqtidorli barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari asos qilib olindi.

Mamlakatda milliy ta'lim tizimini shakllantirishda milliy manfaatlar, xalqaro tajriba, demokratik qadriyatlar va bozor iqtisodiyoti talablariga asoslanildi. Uning huquqiy poydevorini mustahkamlash maqsadlarida ikki muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi.

Dastlabki bosqichda ta'lim sohasining muhim muammolarini hal qilishga, uni modernizatsiyalash imkoniyatini yaratib berishga qaratilgan eng maqbul yo'nalish tanlandi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash siyosatini bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishildi.

Mazkur davrda ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar natijasida umumiy o'rta ta'lim quyidagicha olib borilishi belgilandi. Boshlang'ich (I–IV sinflar), tayanch (V–IX sinflar) va o'rta (X–XI(XII) sinflar) dan iborat bo'lib, bu jarayon o'rta maktab, gimnaziya va litseylarda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan edi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi.

Birinchi bosqich 1997–2001 yillarda Milliy dasturni hayotga tatbiq etish uchun huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi.

Ikkinchi bosqich 2001–2005 yillar. Milliy dastur keng miqyosda joriy etildi.

Uchinchi bosqich 2005–2020 yillarni o'z ichiga oldi. Bu bosqichda 2009 yildan boshlab 2017 yilgacha to'liq 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. 2020 yil 23 sentabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-sonli Qonun qabul qilingandan so'ng esa ushbu Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'z kuchini yo'qotdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalq ta'limi xodimiga tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylar bepul xususiylashtirilib berildi. Farg'ona vodiysidagi qishloq o'qituvchilariga ham shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi, pedagog xodimlarning hammasi kommunal xizmat uchun to'lovlardan ozod etildi. Respublika Prezidentining 1992 yil 26 martdagi Farmoni ijrosi yuzasidan xalq ta'limi xodimlarining oylik ish haqlari 1,7 barobarga oshirilgan.

1993 yilda Farg'ona viloyatida 813 umumta'lim maktablaridan 689 tasi qishloqlarda joylashgan bo'lib, ularda tahsil olgan yoshlar 391 ming nafarni tashkil etgan. Avariya holatidagi 90 ga yaqin maktab binosida 30 mingga yaqin o'g'il-qiz ta'lim olgan. Jumladan, Bag'dod, Beshariq tumanlarida ahvol nihoyatda achinarli bo'lgan.

Andijon viloyatining ayrim maktablari va sinflarda ta'lim-tarbiya ishlari zamon talabi darajasidan past bo'lib, ularning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash yildan-yilga yaxshilanish o'rniga susayib borgan. 65 ming o'quvchi bilim olgan 160 ta maktab moslashtirilgan binoda joylashgan. Ulardan 64 tasi esa avariya holatida bo'lgan.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni hayotga tatbiq etilishi jarayonida Farg'ona viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash to'g'risidagi hukumat ko'rsatmasi to'la-to'kis bajarilmagan. Maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari oqsab qolgan. Bu sohada mutaxassis kadrlar bilan ishlashda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Maktablarda oliy ma'lumotli pedagog xodimlar yetishmasligi sababli, ko'p hollarda ular o'rni o'rta ma'lumotli mutaxassislar bilan to'ldirilgan. Masalan, Chust pedagogika, Kosonsoy pedagogika va Nodira nomli Asaka bilim yurtini 1993 yilda tamomlagan yosh mutaxassislardan 182 nafari Namangan viloyati, 137 nafari Farg'ona viloyati va 304 nafari Andijon viloyati xalq ta'limi tasarrufida bo'lgan maktablarda o'rta ma'lumotli mutaxassis sifatida faoliyat boshlagan.

1993 yil holatiga ko'ra, Farg'ona viloyati qishloqlaridagi 689 ta maktabda jami 391 ming nafar o'quvchi tahsil olgan. Andijon viloyati xalq ta'limi muassasalarida esa 1993–1994 o'quv yilida 682 ta umumta'lim maktablarida 403

mingdan ziyod o'quvchilar yangi o'quv jarayonini boshlagan. Bu davrda 47 mingdan ziyod o'quvchilar yangi o'quv yiliga qabul qilingan bo'lsa, ulardan 198 ming 974 nafari yoki jami o'quvchilarning 47 foizini 1-5 sinf o'quvchilari tashkil etib, bepul nonushta bilan ta'minlangan. Shuningdek, 95 ming 513 nafar o'quvchi kuni uzaytirilgan guruhlarda issiq ovqat bilan ta'minlangan.

1995 yilda Andijon viloyatida 688 ta umumta'lim maktablari bo'lib, ularda aholining 422 ming nafar farzandlari ta'lim olgan bo'lsa, umumta'lim maktablari soni 1998 ga kelib 756 taga, ularda ta'lim olgan o'quvchilar soni 465 ming nafarga ortgan. 1995 yilida 5 ming nafarga yaqin iqtidorli bolalar umumta'lim maktablaridagi tabaqalashtirilgan va alohida fanlarni chuqur o'rgatadigan sinflarda ta'lim olgan bo'lsa, 1998 yilda ana shunday o'quvchilar 22 ming 900 nafarni tashkil etgan. Bunday maktablar soni esa 152 taga ortgan.

Bu davrga kelib, ta'lim tizimidagi islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri yangi turdagi muassasalar – litsey va gimnaziyalarni tashkil qilinishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 27 maydagi «Litsey to'g'risidagi Nizom», 1995 yil 12 noyabrdagi «Gimnaziya to'g'risidagi Nizom» asosida tashkil qilingan ko'plab litseylarda ilmga bo'lgan ishtiyoq va harakatlarni yanada rivojlantirish maqsadida ilmiy to'garaklar faoliyati keng yo'lga qo'yildi. Masalan, Andijon davlat universiteti qoshida kimyo, fizika, matematika va tarix fanlaridan chuqur ta'lim beradigan litsey tashkil etildi. Umuman, 1994 yilda viloyatda 8 ta gimnaziya, 2 ta O'zbekiston-Turkiya litseyi, 3 ta hunar litseyida 4 ming nafar iqtidorli yoshlar bilim sirlarini egallagan bo'lsa, 1997–1998 o'quv yilida o'quvchilar soni 11 ming 300 nafarni tashkil etgan.

Andijon viloyatida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilishi natijasida viloyatda ma'lum bir yutuqlar qo'lga kiritildi. Respublika Oliy Kengashi Sog'liqni saqlash va xalq ta'limi qo'mitasi tomonidan 1993 yili «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning viloyatda bajarilishi qoniqarli, deb topilishi yangi turdagi o'quv muassasalarini tuzish, o'quvchilar bilimlarini test usulida aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlash va tarbiyalashdagi ijobiy ishlarning respublikaga yoyilganligi buning misolidir.



Mazkur davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul nonushta va issiq ovqat bilan ta'minlanishi to'g'risidagi hukumat ko'rsatmasini bajarish Farg'ona viloyatida sust olib borilib, maktablarda ta'lim-tarbiya ishlariga yetarli e'tibor qaratilmaganligi natijasida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. 1993 yilda viloyat qishloqlarida joylashgan 689 ta maktablarda 391 ming nafar yoshlar tahsil olganini inobatga olsak, qishloq maktablarida hali ko'plab ishlarni amalga oshirish kerak edi. Bu davrda viloyatdagi mavjud 813 umumta'lim maktablarida 486 ming 500 nafar o'quvchi yoshlarga 75 mingga yaqin o'qituvchi va tarbiyachilar ta'lim-tarbiya bergan. Ayniqsa, kuz-qish mavsumida yoqilg'i bilan ta'minlash masalasi nihoyatda qiyin kechgan. Lekin shunday qiyinchiliklarga qaramay, yoshlarning ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqi baland bo'lgan.

Yildan-yilga ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoq va qiziqish natijasida Andijon viloyati umumta'lim maktablarida tashkil etilgan tabaqalashtirilgan va chuqurlashtirilgan sinflarga qamrab olingan iqtidorli bolalar 5 ming nafardan ortib ketgan. 1997 yilga kelib esa maktab yoshidagi bolalar viloyat aholisining 23 foizini tashkil etgan. Bu davrda viloyat bo'yicha 5 ming o'rinli maktablar qurib foydalanishga topshirilgan bo'lsa-da, Izboskan, Oltinko'l, Asaka, Paxtaobod, Bo'z va Ulug'nor tumanlarida belgilangan reja 55 foizga bajarilgan, xolos.

Andijon viloyatida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ijrosini ta'minlash borasida ishlar tahlil qilinganda kamchiliklarga ham yo'l qo'yilganligini kuzatish mumkin. Bu kamchiliklar islohot jarayonida tabiiy bo'lib, uning dastlabki bosqichida ta'lim tizimi mustabid tuzum davridagi bir xillik va siyosiy andozalardan ozod qilindi, o'qish jarayonida turli noan'anaviy usullar qo'llashga imkon yaratildi. Ta'limga demokratiya, erkinlik, insonparvarlik, milliy qadriyatlar kabi yangi noan'anaviy tamoyillar kirib kelishi kuzatildi. 1996–1997 o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o'qish lotin alifbosida olib borildi. Yangi alifboda o'qitish uchun zarur dastur, qo'llanma va darsliklar yaratildi.

Ta'lim muassasalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlashda Farg'ona viloyatidagi 681 ta qishloq maktablaridan 138 tasida telefon tarmog'i, 60 tasida ichimlik suvi quvurlari keltirilmagan 50 tasida sport maydoni va 43 ta maktabda

oshxonalar bo'lmagan. 1999 yil holatiga viloyatda 51 ta avariya holatidagi maktablar bo'lsa, 30 ga yaqin maktablarda qurilish ishlari yakunlanmagan, 27 foizga yaqin maktablar esa moslashtirilgan binolarda joylashgan. Namangan viloyatida esa 24 ta maktab qurilishi oxiriga yetkazilmagan. Maktablarning 175 tasi kapital rekonstruksiyalashga, 353 tasi kapital ta'mirlashga va 145 tasi joriy ta'mirlashga muhtoj bo'lgan.

Bu davrda ta'lim sohasidagi muammolar nafaqat vodiy viloyatlari, balki butun respublikada ham asosiy muammo sifatida e'tirof etilgan. 2006–2007 o'quv yilida jami respublikadagi umumta'lim maktablarining 80 foizga yaqini qishloqlarda joylashgan bo'lib, unda 39 mingdan ortiq yoshlar ta'lim olganligi hamda 9 sinf bitiruvchilarini hunar bilim yurtlariga qabul qilish va milliy hunarmandchilik kasblariga tayyorlash masalasi nazoratdan chetda qolgan holatlarni ham ko'rish mumkin. Natijada yildan-yilga 9-sinfni bitirib, hech qaerda ishlamaydigan va o'qimaydigan o'smirlar soni ortib borgan. Shuningdek, keyingi yillarda ta'lim muassasalarining kuz-qish mavsumiga kapital ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning yildan-yilga kamayib borishi ham maktab binolarining yaroqsiz holga kelib qolganligidan dalolat bergan.

2000-2001 o'quv yilida Namangan viloyatida 673 ta umumiy ta'lim maktablari faoliyat ko'rsatgan. Lekin viloyatda ushbu yo'nalishda qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham mavjud edi. Jumladan, 2004 yilda o'quvchilarning qariyb 30 foizi 2-smenada o'qigan, 11 ming 300 o'rinli 24 ta maktab qurilishi oxiriga yetkazilmagan. Maktablarning 175 tasi kapital rekonstruksiyalashga, 353 tasi kapital ta'mirlashga va 145 tasi joriy ta'mirlashga muhtoj bo'lgan. Shunga qaramay, 1990 yili viloyatdagi 565 ta o'rta ta'lim maktablarida 361 ming o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 2006–2007 o'quv yiliga kelib esa 680 ta umumta'lim maktablarida demografik jarayonlar natijasi o'laroq o'quvchi yoshlar soni 473,2 ming nafarga yetgan.

Ta'limga fan-texnika texnologiyalarining kirib kelishida qiyinchiliklar kuzatilgan. Me'yor bo'yicha kompyuter bilan ta'minlangan sinflar Andijon

viloyatida 55 foizni, Namangan viloyatida 47 foizni va Farg‘ona viloyatida 42 foizni tashkil etgan.

Farg‘ona viloyatidagi 910 maktabdan 842 tasi «2004–2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ga kiritilgan. Shundan 10 ta yangi maktab qurilishi, mavjud umumta’lim maktablarining 215 tasi kapital rekonstruksiya qilinishi, 372 tasi kapital ta’mir qilinishi va 245 tasi joriy ta’mirdan chiqarilishi rejalashtirilgan bo‘lsa, ushbu dastur asosida 2006 yilda viloyatda 85 ta maktab kapital rekonstruksiya qilinib, ta’mirlangan. Ikkita maktab yangidan bunyod etilgan. 2009 yilda 55 ta (19 ming 74 o‘quvchi o‘rinli) maktablarini kapital rekonstruksiya qilish uchun 19,7 mlrd so‘m, 89 ta umumta’lim maktablarini mukammal ta’mir qilish uchun 13,5 mlrd so‘mlik mablag‘ yo‘naltirilgan.

Respublikada, o‘z navbatida mintaqaviy viloyatlarida «Oila, mahalla va maktab» ta’lim tizimi hamkorlik mexanizmining shakllanishida qishloq va shahar mahallalarida faoliyat ko‘rsatgan tadbirkor va fermerlarning hissasi katta bo‘ldi. Jumladan, ularning yordamida 43 ta maktab binosi tubdan qayta ta’mirlandi. Shahrixon tumanidagi «Rivoj» firmasi 350 o‘rinli, Oltinko‘l tumanidagi «Suvyulduz» fermer xo‘jaligi 320 o‘rinli, Andijon tumanidagi «Mustaqillik» fermer xo‘jaligi tomonidan 240 o‘rinli yangi o‘quv binolari qurib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi «Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 175-sonli qarori asosida «Oila-mahalla-ta’lim muassasasi» hamkorlik jamoat kengashlari faoliyat ko‘rsatdi. Masalan, 2012-2013 o‘quv yilida Andijon viloyati ta’lim tizimining boshlang‘ich sinflarida «Bola tarbiyasi –kelajak mevasi», yuqori sinflarida «Ilm ol – hunar o‘rgan», kasb-hunar kollejlari va litseylarda «Tanlagan kasbing – sening kelajaging!» mavzularida jami 9 ming 414 marta ma’ruza, munozara va davra suhbatlari o‘tkazildi. Baliqchi tumanida Eski Haqqulobod hamda Olimbek qishloq fuqarolar yig‘inlarida tashkil etilgan jamoatchilik «Madad» guruhi yordamida

qishloqda 16-oʻrta maktabning yangi oʻquv yiliga yangicha qiyofada qad rostlashi taʼminlandi.

Mustaqillik yillarida taʼlim dasturi doirasida yangi maktablar qurildi, boshqalari kapital taʼmirlandi, aniq va tabiiy fanlardan oʻquv laboratoriyalari zarur uskunalar bilan jihozlandi. Taʼlimning barcha bosqichlarida yangi oʻquv dasturlari, davlat taʼlim standartlari yaratildi. Maktab darsliklari tamomila yangilandi hamda fan va amaliyot yutuqlari bilan boyitilib, takomillashtirib borildi. Multimedia oʻquv adabiyotlari ham yaratilishi yoʻlga qoʻyildi. Maktablarning moddiy-texnikaviy taʼminoti ham davlat hisobidan amalga oshirildi.

### 3.3-jadval

#### Vodiy viloyatlari qishloqlaridagi umumtaʼlim maktablari soni

Hudud	1991/ 1992	1995/ 1996	2000/ 2001	2005/ 2006	2010/ 2011	2015/ 2016	2019/ 2020
Andijon	527	577	592	596	386	384	400
Namangan	442	492	504	505	333	355	360
Fargʻona	645	677	710	730	470	499	522

Tadqiqot davrida vodiy viloyatlari qishloqlaridagi umumtaʼlim maktablarini tahlil qilsak, uch viloyat qishloqlaridagi maktablar soni 1991-1992 oʻquv yilidan boshlab 2005-2006 oʻquv yiliga qadar oʻsa boshlagan va mazkur oʻquv yilida eng yuqori koʻrsatkich qayd etilgan. Undan keyin maktablarda oʻquvchilar soni kmaygan. Uning asosiy sabablaridan biri maktablarni 9 yillik dastur asosida faoliyat yurita boshlaganligi hamda 9 sinf bitiruvchilari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda oʻquv jarayonini davom etirganliklarida edi. 2015-2016 oʻquv yilidan boshlab yana asta-sekin ularning sonini ortib borganligi yuqorida 3.3-jadval sifatida berilgan.

Albatta bu davrda vodiy viloyatlari qishloqlaridagi umumtaʼlim maktablarida faoliyat yuritgan oʻqituvchilar soni ham maktablar soni kabi koʻtarilib tushib turgan. Bu quyidagi jadvalda keltirilgan.

**Vodiy viloyatlari qishloqlaridagi umumta'lim maktablarining o'qituvchilar soni**

<b>Viloyat nomi</b>	<b>1991/ 1992</b>	<b>1995/ 1996</b>	<b>2000/ 2001</b>	<b>2005/ 2006</b>	<b>2010/ 2011</b>	<b>2015/ 2016</b>	<b>2019/ 2020</b>
Andijon	22 956	23 135	27 176	30 372	15 273	14 307	18 388
Namangan	17 427	19 069	21 931	23 059	11 680	13 125	16 102
Farg'ona	32 904	32 565	36 587	39 162	18 613	19 058	26 317

Andijon viloyati Jalaquduq tumanida istiqomat qiluvchi pedagog Mamasidiq Xo'jamovning so'zlariga ko'ra, mustaqillikning dastlabki davrlarida maktablardagi o'quv darsliklarini qayta ishlash orqali ular milliylashtirilgan. Ayniqsa, aniq fanlar darsliklarida islohotlar amalga oshirilgan, masalan, quyi sinflarda qiyin bo'lgan mavzular yuqori sinflarga ko'chirilgan. Xususan, oltinchi sinfdagi murakkab ma'lumotlar yettinchi sinfga, 10–11 sinflardagi dasturlar o'rta maxsus bilim yurtlari dasturlariga qo'shilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan o'quvchilarni kitob bilan ta'minlash masalasida «kolxoz» va «shirkat» xo'jaliklari hisobidan ma'lum darajada pullar o'tkazib berilgan. Maktablardagi o'quv xonalari va zallarni milliy ruhda jihozlash ishlari yo'lga qo'yilgan. Keyinchalik kirill alifbosidan lotin alifbosiga o'tilgan. Bir vaqtning o'zida boshlang'ich sinf o'qituvchilari lotin alifbosi bo'yicha malakasini oshirgan. Ayrim fanlar soati qisqartirilgan. Masalan, rus tili kamaytirilib, o'rniga ona tili va adabiyoti qo'shilgan, boshlang'ich sinflarga odobnoma fanlari qo'yilgan, asta-sekin ingliz tili fani kiritila boshlagan. Qishloq maktablarida ingliz tili o'qituvchilari yetishmaganligi boiz boshqa joylardan jalb qilingan. 2005–2009 yillarda davlat dasturiga asosan ko'plab qishloq maktablari ta'mirdan chiqarilib, qattiq va yumshoq mebellar bilan qayta jihozlanib, kompyuter sinflar hamda axborot resurs markazlari tashkil etilgan. Kutubxonalar kitoblar bilan ta'minlangan va sport zallari bunyod etilgan.

So'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish hamda jahon andozasi darajasiga ko'tarish maqsadida respublikada bo'lgani singari vodiy viloyatlarida ham mazkur hududlarda tavallud topib yashab ijod qilgan mashhur shoir yozuvchilar nomlarini

abayilashtirish maqsadida ularni yodga solib turuvchi ijod maktablari tashkil etildi. Andijondagi Muhammad Yusuf, Namangandagi Ishoqxon Ibrat va Farg'onadagi Erkin Vohidov nomida tashkil etilgan ijod maktablari shular jumlasidandir.

Ta'lim tizimida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish va yurtimizda yoshlarni yuksak ma'naviyatli barkamol shaxs sifatida tarbiyalash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017 yildan boshlab umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi, 11 yillik umumta'lim maktablarning qayta tiklanishi ham bu boradagi amaliy qadamlardan biri bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ushbu sohaga to'xtalar ekan, «...ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va pedagoglarning mashaqqatli hamda mas'uliyatli mehnatini har taraflama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bo'lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi» deya ta'kidlagan edi.

2019-2020 o'quv yilida Andijon viloyatdagi umumta'lim maktablarining 11-sinfini 40 mingdan ziyod o'quvchilar tamomladi. Ular o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 12 mingdan ziyod o'quvchi oliy ta'lim muassasalarida, qariyb 6 ming nafari texnikum va kasb-hunar kollejarida o'qish, qolgani harbiy xizmatga borish, hunar o'rganish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, 2018–2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta ta'lim uzluksiz 11 yillik ta'lim negizida amalga oshirila boshlandi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol yillarida maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari faoliyatida yuz bergan ijobiy ishlarga qaramay, sohada yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Keyingi 5 yilda mamlakatda ushbu yo'nalishda ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Zamonaviy talablar asosidagi xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari ish boshladi. Andijon, Namangan va Farg'ona shaharlarida Prezident maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi. Farg'onadagi Temurbeklar maktabida vodiy viloyatlarida istiqomat qiluvchi yoshlar maxsus sinovlar asosida qabul qilinishi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Andijonda Muhammad Yusuf, Namanganda Ishoqxon Ibrat va Farg'onada Erkin Vohidov ijod maktablari tashkil etildi. Ularga asosan iqtidorli yoshlar saralab olindi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimi sifati va samaradorligini yanada yaxshilash, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida «zamonaviy maktab» dasturi bo'yicha izchil chora-tadbirlar olib borildi.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, biz ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga maqsad qilib belgiladik. Uchinchi Renessans xalqimiz kelajagi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Istiqlolning dastlabki yillarida maktabgacha tarbiya muassasalari ishini yangi yo'nalishga solishda «Maktabgacha tarbiya konsepsiyasi», «Sog'lom avlod uchun» dasturi, «Olti yoshli bolalarni savodga o'rgatish konsepsiyasi va dasturi»ning ahamiyati qanday bo'ldi?

2. Qishloq joylaridagi maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining soni kamayib borganligining sababi nimada edi?

3. Vodiy viloyatlari qishloq joylarida 2020 yilga kelib MTMLar soni va ularda tarbiyalangan kichkintoylarning soni esa qnchaga ortgan?

4. Mustaqillik arafasida vodi viloyatlari qishloq maktablarining moddiy holati qanday edi?

5. Bu davrda maktablarda faoliyat yuritgan oliy ma'lumotli va o'rta maxsus pedagog xodimlar yetarli darajada bo'lganmi?

6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qachon qabul qilingan?

7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasidagi islohotlar nechchi bosqichda amalga oshirildi?

**Tayanch so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchilar, tarbiyachilar, maktab, ta'lim sifati, pedagog o'qituvchilar, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.

### **3.2. Farg'ona vodiysida o'rta bo'g'in – akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning buniyod etilishi hamda kadrlar tayyorlash tizimi**

Mustaqillik arafasida bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoiti o'rta hunar ta'limini yanada takomillashtirishni talab qila boshladi. Bu esa qishloq joylaridagi hunar-texnika bilim yurtlari (bundan keyin - HTBYU) faoliyatini tubdan isloh qilishni anglatar edi.

Dastlabki islohotlar yoshlarni mehnat bozoriga kirishlari uchun har tomonlama imkoniyatlar yaratishga qaratildi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun akademik litsey (bundan keyin - AL) va kasb-hunar kollejlari (bundan keyin – KHK) barpo etildi. ALlar muayyan fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berish, iqtidorli yoshlarni ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. KHKlari esa o'rta ma'lumot bilan birga kasbiy malakalarni o'zlashtirgan yosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirildi. Mazkur o'quv yurtlari yoshlar uchun ta'lim olishdan tashqari demografik shart-sharoitlar hamda muhitni hisobga olib, ayniqsa, tuman va qishloqlarda kadrlarga nisbatan paydo bo'layotgan ehtiyojlarni qondirishga safarbar qilindi. Shuningdek, yoshlar o'z oilalaridan uncha uzoqlashmagan holda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa o'z navbatida



muqaddam paydo bo'lgan ayrim ijtimoiy noqulayliklarni barham topishiga omil bo'ldi.

O'zbek xalqining «Milliy hunarmandchilik» tarmog'iga jamlangan barcha kasblar tartiblashtirildi, hunar-texnika ta'limi 1992 yildan boshlab o'ziga xos va tez rivojlangan mustaqil yo'nalishga aylandi. Agar 1990–1991 yillarda ushbu yo'nalish bo'yicha ta'lim sanoqli bilim yurtlarida amalga oshirilgan bo'lsa, 1993 yilga kelib unga 80 ga yaqin bilim yurtlari qo'shildi. 1994 yilga kelib milliy hunarmandchilikning 27 ta turi bo'yicha 5 mingga yaqin yigit-qiz ta'lim olgan.

1992 yilda Farg'ona vodiysi viloyatlarida jami 108 ta o'rta maxsus o'quv yurti faoliyat yuritgan bo'lsa, ularda 88 ming 243 nafar o'quvchi-yoshlar ta'lim olgan. Jumladan, Andijon viloyatidagi 22 ta o'rta maxsus o'quv yurtida 23 ming 254 nafar o'quvchi (11 ming 67 nafari - qizlar), Farg'ona viloyatida 68 ta o'rta maxsus o'quv yurtida 48 ming 635 nafar o'quvchi (20 ming 453 nafari - qizlar), Namangan viloyatidagi 18 ta o'rta maxsus o'quv yurtida 16 ming 354 nafar o'quvchi (7 ming 595 nafari - qizlar) ta'lim olgan.

Xalq ta'limi vazirligining 1992 yil 15 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi hunar-texnika ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi hamda 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun asosida viloyatdagi 34 ta hunar-texnika ta'limi o'quv muassasalarida 10 ming 992 nafar o'quvchi 89 ta kasb bo'yicha hunar sirlarini egallagan bo'lsa, 1996 yilga kelib 11 ming 378 nafar o'quvchi 116 ta kasb bo'yicha tamomlab, kasb-kor egasi sifatida mehnat bozorida faoliyat yurita boshlaganlar.

Mustaqillikning dastlabki davrida (1994 y.) bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida respublikada 451 ta HTBYu faoliyat ko'rsatgan. Qishloqda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, qishloq yoshlarini faol tadbirkorlikka jalb etish maqsadida 1995 yildan boshlab qishloqlarda HTBYu va o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyatini tubdan qayta isloh qilish amalga oshirilgan. Har bir viloyat va tumanlarda tadbirkorlik o'quv yurtlari, kasb litseylari, biznes maktablari, kichik va o'rta biznes, fermer xo'jaliklari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari uchun kollejlari ochilgan.

Bu davrda Andijon viloyatida 36 ta HTBYu ham faoliyat ko'rsatgan. Ularda 18 ming 933 nafar o'quvchi 92 xil kasb bo'yicha hunar o'rgangan. Ushbu dargohlarda istiqloqlarning ilk yillarida xalq xo'jaligi tarmoqlariga 10 ming 877 nafar malakali ishchilar tayyorlangan. HTBYularda 17 mingdan ziyod o'quvchi hunar egallagan. «Ustoz-shogird» dasturi bo'yicha 113 ta hunarmand ustaga 393 nafar yosh yigit-qizlar shartnoma asosida birlashtirilib qo'yilgan. 1994 yilda viloyat bo'yicha 338 ta kompyuterlashgan sinf, 5 ta litsey va 8 ta gimnaziya ochilgan. Iqtidorli yoshlar 100 o'rinli o'zbek-turk litseyida ta'lim olgan. Viloyatda faoliyat ko'rsatgan 8 ta gimnaziya, 2 ta O'zbekiston – Turkiya litseyi, 3 ta hunar litseyida jami 4 ming nafar yoshlar o'z tanlagan kasb-hunar sohalari bo'yicha ma'lumot va ko'nikmalar majmuiga ega bo'lgan.

1991-1992 o'quv yilida 1 ming 338 ta maktabda u yoki bu predmet chuqurlashtirib o'qitilgan bo'lsa, 1995-1996 o'quv yilida ularning soni 3 ming 120 taga yetdi. Yangicha ta'lim siyosati yangi turdagi o'quv muassasalarning vujudga kelishi va ular safining kengayishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining iqtidorli yoshlar bilan ishlash haqidagi qaroriga asosan Farg'ona viloyatida faoliyat boshlagan turk erkaklar litseylarida viloyatning turli tumanlaridan kelgan 820 nafar o'quvchi fizika, matematika, kimyo, biologiya, ona tili va adabiyot, chet tili va boshqa fanlardan chuqur bilim olishga erishgan. Shuningdek, maktablarda mingdan ortiq yoshlar maqsadli, tanlov fanlari bo'yicha o'z bilimlarini oshirib borgan. Xalq xo'jaligiga mahalliy mutaxassislar tayyorlab beruvchi 25 ta qishloq HTBYularida salkam 12 ming nafar o'quvchi ellikka yaqin kasb egasi, mutaxassis sifatida ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. 1993 yilda viloyat hududida faoliyat yuritgan o'rta maxsus o'quv yurtlari soni ortib HTBYu 44 taga, texnikumlar 23 taga, litseylar 7 taga yetkazilgan va gimnaziya tashkil etilgan. Viloyatda 8 ta gimnaziya, 2 ta O'zbekiston – Turkiya litseyi, 3 ta hunar litseyi ishlab turgan. Ularda 4 ming nafar iqtidorli yoshlar bilim olgan.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilingandan so'ng Andijon viloyati hunar-texnika ta'limi tizimida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Viloyatdagi 3 ta

HTBYu bazasida texnik litseylar tashkil etilib, ularning soni 1994 yilda yana 8 taga ortgan. Afsuski, oʻrta maxsus maʼlumotli mutaxassislarini tayyorlash bozor iqtisodiyotining «talab va taklif mezonlari»ga zid ravishda davom etgan. Natijada, koʻplab bitiruvchilarning ish bilan taʼminlanmaganligi mehnat bozorida ishsizlikni yanada kuchaytirgan. Keyingi yillarda Xonobod sanoat texnikumi va Asaka tibbiyot bilim yurtining 720 oʻringa moʻljallangan oʻquv binolari hamda Boʻz pedagogika bilim yurtining 400 oʻringa moʻljallangan yotoqxonasi qurilib, foydalanishga topshirilgan. Andijon zooveterinariya, hisob-buxgalteriya, elektromexanika texnikumlari zamonaviy oʻquv komplekslariga ega boʻlib, ularda talabalarning chuqur bilim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Iqtidorli yoshlarni tanlash va oʻqitishga katta eʼtibor qaratilib, litseylar soni 6 taga, gimnaziyalar soni esa 17 taga yetkazilgan. Ularda 4 ming 600 dan ziyod iqtidorli bolalar taʼlim-tarbiya olgan.

Oʻrta maxsus taʼlim tizimini rivojlantirishda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi alohida oʻrin tutadi. Ushbu dastur Oʻzbekistonning strategik maqsadi – taraqqiy etgan mamlakatlar hamjamiyatining teng huquqli aʼzosini vujudga keltirishdek maqsadni amalga oshirishda shart-sharoit yaratishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan.

1997 yilda qabul qilingan «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida kasb-hunar taʼlimi tizimida yuz bergan oʻzgarishlar natijasida umumtaʼlim maktablarining 10–11 sinf oʻquvchilarini KHK va ALLarda oʻqishlarini tashkil qilish va 9+3, yaʼni 12 yillik majburiy taʼlim joriy qilingan. Ilmiy tadqiqotlarda 1997–2001, 2001–2005 va 2005 yildan keyingi davrlarda ushbu sohani rivojlantirish masalasi davlatimiz uchun oʻta dolzarb boʻlganligi alohida qayd etilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq 1998–1999 oʻquv yilidan boshlab KHKlar va ALLar shaklidagi xalq taʼlimi tizimining yangi yoʻnalishiga asos solingan. Taʼlim islohotlarining boshlanishi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalarining birinchi va ikkinchi sifat bosqichi vazifalarining bajarilishi 1991–2005 yillarni oʻz ichiga oldi. Taʼlimning milliy modeli yaratilib, yangi

turdagi o'quv yurtlari shakllandi. Bu davrda ta'lim davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida hunar ta'limi tizimi ham isloh qilindi. Ayniqsa, mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan Farg'ona vodiysi viloyatlarida ushbu yo'nalishni rivojlantirish ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. O'z navbatida viloyatlardagi mavjud hunar-texnika bilim yurtlari saqlab qolindi va zamonaviylari tashkil etildi. 1997 yilda hunar-texnika o'quv yurtlarida 110 dan ortiq kasblar bo'yicha 16,7 ming nafar talaba tahsil olgandi. Shu bilan bir qatorda, Andijon viloyatida ushbu yillarda pedagog kadrlar ko'nimsizligi, balog'atga yetmagan o'quvchi-yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning ahvoli, maktabgacha tarbiya muassasalariga bolalarni jalb qilish kabi ko'rsatkichlarda sezilarli darajada orqada qolishlar kuzatildi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturining asosiy vazifasi, birinchi navbatda, ta'lim tizimida qayd etilgan bo'shliqni to'ldirishga qaratildi. Uning maqsad va vazifalarini bajarish uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 23 sentabrdagi 406-sonli qaroriga asosan 1999–2005 yillarda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. O'z navbatida mintaqa hududlarida qo'shma korxonalar, xususiy kichik va o'rta korxonalar hamda fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi va mavjud korxonalar salohiyatining yangicha talablar asosida qayta tashkil etilishi ularning bozor munosabatlari sharoitida ishlay oladigan malakali mutaxassislariga bo'lgan talab ortishiga olib keldi.

Kasb-hunar kollejlari xalq xo'jaligida yetishmayotgan o'rta bo'g'in va ishchi kadrlar bilan ta'minlashi zarur edi. Bu borada olib borilgan ishlar ijobiy natijalarni bera boshladi va faqatgina 1998–2000 yillarda birgina Andijon viloyatida kollejlarning soni 4 tadan 28 taga yetdi, 3 ta akademik litsey faoliyatda bo'ldi. Shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahsil olgan kam ta'minlangan oilalar farzandlariga zarur adabiyotlar tekin yetkazib berildi, yoki kutubxona fondlaridagi darsliklardan keng ko'lamda foydalanish uchun sharoitlar yaratildi.

Bozor iqtisodiyoti ehtiyojlarini qondirish maqsadida unutilib ketgan xalq hunarmandchiligi yangi-yangi sohaları qayta tiklana boshladi. Masalan, 1992–1995 yillarda Andijon viloyati bilim yurtlarida 100 ga yaqin sanoat, qishloq xo‘jaligi va xalq hunarmandchiligini mukammal o‘rganishga ixtisoslashtirilgan akademik guruhlar tashkil etildi. Eng muhimi, zamonaviy bilim va kasb-hunar sirasrorlarini egallash yo‘lida qo‘yilgan dastlabki qadamlar milliy taraqqiyotimiz uchun alohida ahamiyat kasb etdi.

Hunarmandchilikda erishilgan tajriba va yutuqlar respublika viloyatlariga namuna sifatida tatbiq etildi. Toshkentda o‘tkazilgan respublika bilim yurtlari yarmarkasida andijonlik yosh ijodkor hunarmandlar birinchi o‘rinni egalladilar.

Andijon viloyatida 1998–2000 yillarda yangi qurish va qayta ta‘mirlash hisobiga jami 8 ming 625 o‘quvchi o‘rniga ega bo‘lgan 14 ta KHK hamda 2 ta AL faoliyat ko‘rsatgan. «1999–2005 yillarda AL va KHKlarining moddiy-texnikaviy bazasini rivojlantirish hamda mablag‘ bilan ta‘minlash dasturi to‘g‘risida»gi Qarorni bajarish borasida 2000 yil investitsiya rejasiga 189 ta ob‘ekt foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, shundan 165 ta KHK lar, 19 ta ALlar va 5 tasi talabalar turar joylari bo‘lgan. 19 ta ALdan 14 tasini rekonstruksiya va 5 tasini yangi qurish yo‘li bilan foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Tumanlar markazlari va qishloqlarda jami 103 ming 350 nafar o‘quvchi o‘ringa ega bo‘lgan 131 ta KHK va 16 ta AL foydalanishga topshirish rejalashtirilgan bo‘lib, shundan 74 ta kollej va 10 ta AL yangi qurish, 57 ta kollej va 6 ta AL rekonstruksiya hisobiga amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Dasturda belgilangan qurilish inshootlarida ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, sohada o‘zgarishlar kuzatiladi. Masalan, Andijon davlat tibbiyot instituti qoshidagi 600 o‘quvchi va 600 o‘rinli yotoqxonaga mo‘ljallangan AL 825 o‘quvchi va 400 o‘rinli yotoqxonaga, 300 o‘quvchi o‘rinli Jalaquduq pedagogika KHK 450 o‘rinli qilib o‘zgartirilgan. Andijon tumanidagi sanoat KHK 1999 yilda qurilib, faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Asakadagi to‘rtinchi kasb-hunar maktabi qayta ta‘mirlanib, AL sifatida faoliyat boshlagan 300 o‘quvchiga mo‘ljallangan Jalaquduq pedagogika KHK 450 o‘rinli qilib o‘zgartirildi, 2000 yilda qurilishi mo‘ljallangan Andijon tuman sanoat

KHK esa 1999 yilda qurilib ishga tushirildi. 1998 yilda ishga tushirilgan 1 ta AL va 2 ta KHKlar ma'lum miqdordagi o'quv-laboratoriya jihozlari va uskunalar bilan ta'minlangan. 4 ming 200 o'quvchi o'rinli va 1 ming 410 o'rinli yotoqxonaga ega bo'lgan 6 ta KHKlar, 825 o'quvchi o'rinli va 400 o'rinli yotoqxonaga ega bo'lgan 1 ta AL qayta ta'mirlangan. 1 ming 950 o'rinli KHK lar yangi qurilib, foydalanishga topshirilgan. 2002 yilda 3 ta AL va 34 ta KHKlar tashkil etilgan. Barcha o'rta maxsus bilim yurtlari va kasb-hunar maktablari hamda texnikumlarga kollej maqomi berilib, ularning umumiy soni 75 taga yetgan. Ularda 44 ming 730 nafar o'quvchilarga 2 ming 957 nafar yuqori malakali pedagoglar ta'lim va tarbiya bergan. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish va sport sohasiga yaxshi e'tibor qaratish maqsadida Andijon shahrida Olimpiya zaxiralari sport kolleji va manеji, «Sog'lom avlod» stadioni barpo etilgan.

Bu davrda tizimda jami 57 ta fan doktori, professorlar va fan nomzodlari, dotsentlar hamda ilmiy tadqiqot bilan shug'ullangan 60 dan ortiq pedagog kadrlar faoliyat ko'rsatgan. Pedagoglar muntazam ravishda rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, respublikadagi nufuzli oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish institutlarida yangi fan yo'nalishlari bo'yicha o'z malakalarini oshirib borgan. 2002 yil viloyat bo'yicha 9-sinfni bitirgan o'quvchilarning qariyb 50 foizdan ortig'i, ya'ni 23 mingtasi yangi kollej va litseylarda o'qishni davom ettirgan. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish natijasida o'rta maxsus bilim yurtlari va kasb-hunar maktablari hamda texnikumlar kollej maqomiga ega bo'lib, umumiy soni 75 taga yetdi. Ta'limning moddiy-texnikaviy bazasini yaratishda chet el investitsiyasi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng jalb qilish yo'lga qo'yilgan bo'lib, birgina Koreya krediti hisobiga 1,3 mlrd so'mlik zamonaviy kompyuter sinflari tashkil qilingan. Kimyo, fizika, informatika, radiotexnologiya, avtomobilsozlik sohalari bo'yicha laboratoriya jihozlari keltirilib, o'rnatilgan. 2002 yilda viloyat bo'yicha boshqarma tasarrufidagi barcha ta'lim muassasalarining 15 ming 295 nafar bitiruvchilari yana 53 ta yo'nalishda kasb-hunarning kichik mutaxassisi maqomiga erishilgan.

2000-2001 o'quv yilida Namangan viloyatida 2 ta AL va 43 ta KHK, 18 ta o'rta maxsus o'quv yurti, 26 ta HTBYu faoliyat ko'rsatgan. O'z navbatida 12 ta KHK tubdan ta'mirlanib, ishga tushirilgan. Viloyatda investitsiya dasturiga kiritilgan 26 ta ob'ektdan 13 tasi yangi qurish va 13 tasi rekonstruksiya yo'li bilan barpo etilgan.

Farg'ona viloyatida 2000 yilda 15 ta ob'ekt investitsiya dasturiga kiritilib, shundan 2 ta AL va 13 ta KHKlarni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. So'x tumanida rekonstruksiya yo'li bilan tashkil etilgan 500 o'rinli KHKda yillik limitga nisbatan 56 foiz kapital mablag' o'zlashtirilgan.

Bu davrda chet el investitsiyalari hisobidan Farg'ona viloyatida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi 94 ta KHKlar va 7 ta ALLar umumta'lim fanlaridan o'quv laboratoriya jihozlari, ko'rgazmali qurollar, boshqa texnika vositalari, kompyuter sinflari bilan 87 foizga, qishloq xo'jalik texnikalari bilan 78 foizga, lingafon xonalari bilan 90 foizga ta'minlangan. Jumladan, Marg'ilon yengil sanoat va Marg'ilon 2-yengil sanoat KHKlar Polsha hukumatiniig krediti hisobidan 100 mln so'mlik zamonaviy tikuv mashinalari bilan jihozlangan. Marg'ilon iqtisodiyot, Marg'ilon qurilish va Rishton sanoat KHKlari Koreya hukumatiniig krediti hisobidan umumta'lim fanlaridan o'quv-laboratoriya jihozlari va ko'rgazmali qurollari bilan ta'minlangan. Lekin ba'zi tumanlarda yangi qurilish ishlari qoniqarli darajada olib borilmagan. Jumladan, O'zbekiston tumani Tagob qishlog'idagi yangi pedagogika kollejida 35 foizga, Oxunboboev (Qorajiyda) tumani iqtisodiyot kollejida 37 foizga, Dang'ara tumani Kapasaroy qishlog'i agrosanoat KHKda 42 foizga, Toshloq tumani Qumariq qishlog'i maishiy xizmat KHKda 31 foizga bajarilgan, xolos.

2005 yil holatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'iga asosan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Davlat test markazi mutaxassislari hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi xodimlari tomonidan Andijon viloyatidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyati o'rganilganda quyidagi kamchiliklar aniqlangan: Andijon san'at kolleji 9 ta, Xonobod san'at kollejida 3 ta yo'nalish bo'yicha tarmoq ta'lim standartlari mavjud bo'lmagan.

Asaka maishiy xizmat kollejida 4 ta, Xo‘jaobod tibbiyot kollejida 3 ta yo‘nalish bo‘yicha eski standartlardan foydalanib kelinganligi aniqlangan. Viloyatdagi 67 ta KHKning 62 tasi o‘z sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha jihozlanganiga qaramasdan, turdosh bo‘lmagan ixtisosliklarga o‘quvchilar qabul qilingan. Viloyatning bir qator kollejlarda bajarilgan qurilish hajmiga qo‘shib yozish orqali 251,8 mln so‘mlik budjet mablag‘lari talon-toraj qilingan. Viloyatda davlat budjetiga umumiy hisobda 366,1 mln so‘m moddiy zarar yetkazilgan.

Andijon viloyatidagi 49 ming 125 ta o‘ringa mo‘ljallangan 69 ta kollejga 64 ming 586 nafar o‘quvchi qabul qilingan. Viloyatda faoliyat ko‘rsatgan o‘rta maxsus KHKlarda me‘yor bo‘yicha 227 ta sinf kompyuter bilan ta‘minlanishi lozim bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich 57 foizga bajarilib, boshqa sinflar kompyuter bilan ta‘minlangan. Ayrim KHKlarning mas‘ul mansabdor va moddiy javobgar shaxslari tomonidan budjet mablag‘larini talon-toraj qilish kabi jiddiy holatlar sodir etilgan. Jumladan, Paxtaobod qurilish va kommunal kolleji bosh hisobchisi Sh.Mirzaev va g‘aznachi M.Sobirovlar 13 nafar yetim o‘quvchilarning 776 ming so‘m nafaqa pullarini, shuningdek, Marhamat qishloq xo‘jalik KHK direktori M.Yunusov, bosh hisobchisi A.Saypiev va boshqalar o‘qituvchilarning 1,3 mln so‘m ish haqlarini hamda Xo‘jaobod tumanidagi qurilish KHK direktori M.Ismailova, bosh hisobchi D.Buvanova, g‘aznachi B.Mamajonovlar 91 nafar o‘qituvchining 1,5 mln so‘m mukofot pullarini o‘zlashtirish yo‘li bilan talon-toraj qilganlar.

Farg‘ona viloyati Buvayda agrosanoat KHK bosh hisobchisi M.Matisaqov va g‘aznachi A.Mamaniyazovlar tomonidan to‘lov vedomostlarini qalbakilashtirish yo‘li bilan 815 ming so‘mlik ish haqi o‘zlashtirilgan. Farg‘ona 1-sonli tibbiyot kollejida 750 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lsa-da, 3 ming 84 nafar, 2-sonli tibbiyot kolleji 1 ming 200 ta o‘ringa 3 ming 200 nafar, Qo‘qon tibbiyot kollejiga 1 ming 300 ta o‘ringa 2 ming 600 nafar va Marg‘ilon pedagogika kollejiga 1 ming o‘ringa 2 ming nafar o‘quvchi o‘qishga qabul qilingan. 2009 yilda ta‘lim muassasalarida 133 ming 819 nafar o‘quvchi-yoshlar xalq xo‘jaligi sohalariga oid 115 ta mutaxassisliklar bo‘yicha tahsil olgan.



Faoliyat ko'rsatgan ta'lim muassasalarining 48 tasi chet el kreditlari hisobiga o'quv-texnika vositalari va o'quv laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki krediti hisobidan Kirguli qurilish-sanoat (politexnika), Quvasoy sanoat va Beshariq qishloq xo'jalik KHKlar umumta'lim fanlari va ofis jihozlari, o'quv-laboratoriya jihozlari hamda o'quv-texnika vositalari hamda Kirguli qurilish sanoat KHK, Quvasoy sanoat KHK 235 mln 440 ming 620 so'mlik, Beshariq qishloq xo'jalik KHK 1 mlrd 27 mln 466 ming 267 so'mlik jihozlar bilan ta'minlangan. Yaponiya davlati krediti hisobidan Quva, Bag'dod, Oltiariq va Yozyovon qishloq xo'jalik KHKlari 3 mlrd 254 mln 122 ming 100 so'mlik o'quv-texnika vositalari, qurilmalar va qishloq xo'jalik agregatlari, Janubiy Koreya davlati krediti hisobidan 24 ta KHKlari 941 mln 445 ming 753 so'mlik o'quv-texnika vositalari va kimyo, fizika o'quv-laboratoriya jihozlari, Polsha krediti hisobiga Dang'ara sanoat, Qo'qon yengil sanoat, Qo'qon politexnika, Marg'ilon yengil sanoat, Marg'ilon 2-yengil sanoat KHKlar 800 mln 304 ming 775 so'mlik tikuvchilik ishlab chiqarish jihozlari hamda Oltiariq, Farg'ona agrosanoat va O'zbekiston qishloq xo'jalik KHKlar 540 mln 308 ming 644 so'mlik oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarishga oid o'quv-texnika qurilmalari va jihozlari, Yaponiyaning «Jayka» granti hisobidan Qo'qon maishiy xizmat KHK 591 mln 953 ming 522 so'mlik kompyuter texnikalari, Germaniya davlatining krediti hisobidan Quva, Farg'ona va Qo'qon KHKlar

1 mlrd 403 mln 582 ming 737 so'mlik kompyuter texnikalari bilan ta'minlangan.

Mamlakatda KHK bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ishga joylashtirish masalasida bitiruvchilar to'liq ish bilan ta'minlanmaganligi ham haqiqat edi. Ayniqsa bu chekka va olis qishloqlarda faoliyat yuritgan KHKlarda yaqqol namoyon bo'lgan. Buning asosiy sababi qishloq joylarida istiqomat qiluvchi KHK yoshidagi o'quvchilar qishloqlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib dars jarayonlari va amaliy mashg'ulotlarga to'liq qatnasha olmagan. Buning natijasida

ular o'qishni tamomlaganidan so'ng na bir kasb-hunarni to'liq egasi bo'lgan yoki birorta oliygohga kira olmagan.

Natijada KHK bitiruvchilarini ish bilan ta'minlanganlik to'g'risidagi ma'lumotlar soxtalashtirilgan. Masalan, Andijonda – 112, Namanganda – 348, Farg'onada – 1 ming 13 nafar bitiruvchilar ishga joylashganligi haqida yolg'on hisobotlar tuzilgan.

Jumladan, Farg'ona viloyati So'x tumanida 2010–2011 o'quv yilida uchta KHKni 796 nafar o'quvchi tamomlagan bo'lib, shulardan 685 nafari ish bilan ta'minlangan bo'lsa, 102 ta bitiruvchi ishga joylashtirilmagan.

Respublika bo'yicha ALLar soni 2000 yilda 46 ta bo'lgan bo'lsa, 2016 yilda 144 taga, KHKlar soni esa 241 tadan, 1 ming 422 taga yetgan. Respublikada bo'lgani kabi Farg'ona vodiysi viloyatlarida ham KHKlar va ALLar soni ortib bordi. Masalan, respublikada 2015 yilga kelib 1 ming 414 taga yetgan. Andijon viloyatida 46 tadan 117 taga, Namangan viloyatida 34 tadan 108 taga, Farg'ona viloyatida 45 tadan 145 taga ko'paygan.

1999–2000 o'quv yilidan 2014–2015 o'quv yiligacha bo'lgan davr mobaynida Andijon viloyatida o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari soni Andijon, Jalaquduq va Marhamat tumanlarida 1 tadan 6 taga, Izboskan, Oltinko'l, Paxtabod va Qo'rg'on tepa tumanlarida 1 tadan 7 taga, Baliqchi tumanida 1 tadan 8 taga, Shahrixon tumanida 1 tadan 10 taga, Asaka tumanida 2 tadan 12 taga ortgan. Bo'z, Buloqboshi, Ulug'nor va Xo'jaobod tumanlarida 1999–2000 o'quv yilida KHK mavjud bo'lmagan. Lekin, 2014–2015 yillarda Bo'z tumanida 4 ta, Buloqboshi tumanida 5 ta, Ulug'nor tumanida 3 ta va Xo'jaobod tumanida 5 ta KHKlari faoliyat yuritganligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

### *3.5-jadval*

#### **Andijon viloyati bo'yicha kasb-hunar kollejlari soni o'quv yili boshiga birlik (1999-2015 yillar)**

<b>№</b>	<b>Hududlar nomi</b>	<b>1999/2000</b>	<b>2005/2006</b>	<b>2009/2010</b>	<b>2010/2011</b>	<b>2014/2015</b>
1.	Andijon shahri	3	11	20	20	20
2.	Xonobod shahri	-	3	4	4	4
3.	Andijon tumani	1	3	6	6	6

4.	Asaka tumani	2	7	12	12	12
5.	Baliqchi tumani	1	5	8	8	8
6.	Bo‘z tumani	-	3	4	4	4
7.	Buloqboshi tumani	-	3	5	5	5
8.	Jalaquduq tumani	1	4	6	6	6
9.	Izboskan tumani	1	4	7	7	7
10.	Marhamat tumani	1	4	6	6	6
11.	Oltinko‘l tumani	1	5	7	7	7
12.	Paxtaobod tumani	1	5	7	7	7
13.	Ulug‘nor tumani	-	3	3	3	3
14.	Xo‘jaobod tumani	-	4	5	5	5
15.	Shahrixon tumani	1	7	10	10	10
16.	Qo‘rg‘ontepa tumani	1	5	7	7	7
<b>Andijon viloyati</b>		<b>14</b>	<b>76</b>	<b>117</b>	<b>117</b>	<b>117</b>

Vodiy viloyatlaridagi kasb-hunar kollejlari hamda ularda ta’lim olgan o‘quvchilar sonini tahlil qilsak, 2009–2010 o‘quv yilida Andijon viloyatidagi mavjud 117 ta KHKlarda 123 ming 514 nafar o‘quvchilar ta’lim olgan. 2015–2016 o‘quv yilida ularning soni 118 taga yetib, ulardagi o‘quvchilar soni 125 ming 85 nafarni tashkil etgan. 2019–2020 o‘quv yilida esa 19 ming 314 nafar o‘quvchilar viloyatdagi 82 ta KHKlarda o‘qib kasb-hunar sirlarini egallagan. Biroq o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi ijobiy jihatlar bilan birga sohani zamonaviy rivojlanishiga to‘siqlarni ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. Masalan, birgina Andijon viloyatida 2011–2012 o‘quv yilida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hududiy boshqarmasi tasarrufidagi 129 ta ta’lim muassasalaridan 29 tasida (22,4%) fizika, 31 tasida (24%) kimyo va biologiya o‘quv kabinetlari jihozlari hamda laboratoriya asbob-uskunalar bilan, 19 ta (14,7%) ta’lim muassasasi kompyuter texnikasi bilan, 72 ta (55,8%) ta’lim muassasalari axborot-resurs markazlari uchun mo‘ljallangan kompyuterlar jamlanmasi bilan ta’minlanmagan. Ta’lim muassasalari «ZiyoNet» internet tarmog‘idan foydalanmagan. Internet tarmog‘iga ulangan 37 ta axborot-resurs markazlarida internet tarmog‘i muntazam ishlamagan. Xuddi shunday muammoli holatlar Namangan va Farg‘ona viloyatlari ta’lim tizimida ham ko‘zga tashlandi.

Namangan viloyatidagi 106 ta KHKlarda 119 ming 962 nafar o‘quvchilar 2009–2010 o‘quv yilida tahsil olgan. 2015–2016 o‘quv yilida ularning soni 109 taga yetgan bo‘lsa, o‘quvchilar soni 108 ming 709 nafarni tashkil etgan. 2019–2020 o‘quv yiliga kelib, kasb-hunar kollejlari 76 taga kamayib, ularda 16 ming 453 nafar o‘quvchi ta’lim olgan.

Farg‘ona viloyatida ham 2009–2010 o‘quv yilida mavjud 141 ta kasb-hunar kollejlari ta’lim olgan o‘quvchilar 149 ming 830 nafarni tashkil etgan. 2015–2016 o‘quv yilida viloyatda kasb-hunar kollejlari soni 145 taga ortib, ulardagi o‘quvchilar soni 164 ming 490 nafarni tashkil etgan. 2019 – 2020 o‘quv yilida esa ularning soni 81 taga qisqartirilib, 25 ming 567 nafar o‘quvchi ta’lim olganligini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

### 3.6- jadval

#### Vodiy viloyatlaridagi kasb-hunar kollejlari haqida ma’lumot

	<b>Kasb-hunar kollejlari, birlik</b>	<b>Kasb-hunar kollejlariidagi talabalar soni, kishi</b>
2009–2010 o‘quv yili		
Andijon	117	123514
Namangan	106	119962
Farg‘ona	141	149830
2015–2016 o‘quv yili		
Andijon	118	125858
Namangan	109	108709
Farg‘ona	145	164490
2019–2020 o‘quv yili		
Andijon	82	19314
Namangan	76	16453
Farg‘ona	81	25567

1999–2004 yillarda vodiy viloyatlari qishloqlarida hali KHKlarning faoliyat yo‘lga qo‘yilmagan edi. 2005–2006 yillardan boshlab qishloq joylarida KHKlari ish boshlagan. Tabiiyki, bu davrga kelib, ularni tajribali pedagog xodimlar bilan

ta'minlash masalasi asosiy vazifa sifatida qaralgan. KHKlarda Andijonda 1 ming 110 nafar, Namanganda 1 ming 261 nafar, Farg'onada 956 nafar; 2010–2011 o'quv yilida Andijonda 2 ming 429 nafar, Namanganda 2 ming 166 nafar, Farg'onada 3 ming 253 nafar; 2015–2016 o'quv yilida Andijonda 2 ming 368 nafar, Namanganda 1 ming 748 nafar, Farg'onada 3 ming 473 nafar hamda 2019–2020 o'quv yilida Andijonda 166 nafar, Namanganda 320 nafar, Farg'onada 343 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritgani quyidagi jadval asosida tahlil qilindi.

### 3.7- jadval

#### Vodiy viloyatlari qishloq joylarda kasb-hunar kollejlarning o'qituvchilar soni o'quv yili boshiga, kishi (1999 – 2000 yillar)

	1999/ 2000	2005/ 2006	2010/ 2011	2015/ 2016	2019/ 2020
Andijon	-	1110	2429	2368	166
Namangan	-	1261	2166	1748	320
Farg'ona	-	956	3253	3473	343

Shuni alohida ta'kidlash joizki keyingi yillarda respublikada «9+3» dasturi bo'yicha o'n ikki yillik umumiy majburiy ta'lim tizimida qayta islohot o'tkazish zaruriyati paydo bo'lishi natijasida 11 yillik umumiy ta'lim qayta tiklandi. O'z navbatida mazkur davrda «9+3» dasturi bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlash borasida KHKlarida ishlaydigan kadrlar hali mukammal darajada malaka va ko'nikmaga ega emas edi. Asosiy bo'g'in bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida yoshlarni kasbga yo'naltirish va ularning ota-onalariga tushuntirish ishlarining sifati pastligi, kasb turlari va ularning soni haqida ma'lumotlar bazasining yetishmasligi, kasb-hunar ta'limi standartlari bo'yicha yoshlarga kasbiy o'zgaruvchanlik tushunchasini singdirish masalalari o'z yechimini topmagan edi. «Ta'lim-fan va ishlab chiqarish» o'rtasida ijtimoiy sheriklik aloqalarining yetarli darajada emasligi, kasb tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv adabiyotlarni va ma'rifiy manbalarining yo'qligi kabi qator muammolar mavjud bo'lgan. Bu yerda faoliyat yuritgan ko'plab rahbar xodimlar va pedagoglar mas'uliyatni u darajada his qilmaganligi natijasida ta'lim va tarbiyaviy ishlarga

qo'yilgan talablar yetarli darajada bajarilmadi. Ko'plab yo'nalishlarda darsliklar yetishmovchiligi yuzaga keldi. Shuningdek, asosiy sabab KHK bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash muammosining o'z yechimini topmaganligida bo'ldi. Chunki, hali bitiruvchilarni to'liq ish bilan qamrab olish mehanizmi ishlab chiqilmagan edi.

Mamlakatda o'tgan chorak asr davomida ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar bilan birga ayrim kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish hamda rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqish uchun bugun yurtimizda barcha sharoitlar yaratildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz», deb ta'kidlagan edi.

Prezident boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bugun ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xoriydagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'lida barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish, maktabgacha ta'lim muassasalarining shart-sharoitini tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillari, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish, KHK o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrda «Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilingani ta’lim tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Farmonga muvofiq, 2020–2021 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistonda Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tashkil etildi. Farmonga ko‘ra, jami 388 ta KHKlar binolari tegishli ro‘yxatga asosan maktab sifatida foydalanilishi belgilandi. Boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimiga tegishli ta’lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil topadi.

Shuningdek, keyingi yillarda sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari o‘quv xonalarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida» hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlarining qabul qilinib, hayotga tatbiq etilishi o‘laroq islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Xullosa qilib aytganda, mamlakatda 1992 yilda «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi ta’limning barcha sohalarida tizimli islohotlarni boshlanishiga turtki berdi. Ta’lim boshlang‘ich, tayanch va o‘rta maktab, gimnaziya va litseylarda amalga oshirildi. 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida» Qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz ta’lim tizimi vujudga keldi. Maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim (I–IV sinflar), umumiy ta’lim (V–IX sinflar), o‘rta maxsus bilim va kasb-hunar ta’limi (akademik litseylar, kollejlari) oliy va undan keyingi ta’limda

kadrlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashga imkoniyat yaratildi. Biroq qishloqlardagi AL va QXKlarda kadrlar tayyorlash yuzasidan olib borilgan ishlar, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash masalalarida jiddiy kamchiliklar ham yaqqol sezildi. Natijada ayrim KHKlari tugatilib, ularning o'rnida Oliy ta'lim muassasalari qoshidagi texnikumlar tashkil etildi. Ularda ta'lim olgan iqtidorli yoshlarga suhbat asosida oliygohlarga kirish imtiyozlari joriy etildi. Jumladan, birgina Andijon davlat tibbiyot institutiga Andijon, Qo'rg'ontepa, Paxtaobod, Bo'ston va Namangan tibbiyot texnikumlari biriktirilgan bo'lib, 2022–2023 o'quv yilidan boshlab texnikumlarni imtiyozli bitirgan o'quvchilar suhbat asosida institutning 2 bosqichiga qabul qilinishi belgilab qo'yildi.

Ta'kidlash o'rinliki, Farg'ona vodiysi viloyatlari maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari faoliyatida bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Biroq bu yuz bergan ijobiy tadbirlarga qaramay, sohada yechimini kutayotgan muammolar ham yetildi. Ta'kidlash o'rinliki, keyingi 5 yilda mamlakatda ushbu yo'nalishda ham sezilarli islohotlar o'tkazildi. Zamonaviy talablar asosidagi xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Vodiyning Andijon, Namangan va Farg'ona shaharlarida Prezident maktablari faoliyatining yo'lga qo'yilishi ta'lim tizimidagi yuksalish sari qadam bo'ldi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Qishloqda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, qishloq yoshlarini faol tadbirkorlikka jalb etish maqsadida o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyati nechanchi yildan qayta isloh qilindi?

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 23 sentabrdagi 406-sonli qaroriga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda qayday islohotlar amalga oshirildi?



3. Bu davrda vodiy viloyatlari qishloqlarida faoliyat yuritayotgan kasb-hunar kollejlari ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar salmog'i qanday bo'lgan?

4. Vodiy viloyatlari qishloqlaridagi kasb-hunar kollejlari orasida chet el investitsiyalari hisobidan qurilganlari yoki

5. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha qanday ishlar olib borilgan?

6. «9+3» dasturida belgilab berilgan vazifalar o'zini oqlamaganligining sabablari nimada edi?

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrda «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ijrosi yuzasidan vodiy viloyatlari da qanday ishlar amalga oshirildi?

**Tayanch so'zlar:** Hunar-texnika bilim yurti, Akademik litsey, Kasb-hunar kollej, Milliy hunarmandchilik, Ustoz-shogird, Ta'lim-fan va ishlab chiqarish.

## GLOSSARIY

**Farg‘ona vodiysi** - O‘rta Osiyodagi tog‘lar orasida joylashgan vodi, O‘rta Osiyoning yirik tog‘ oraligi (soylik) botiklaridan biri. Shimolda Tyanshan va janubda Hisor-Olay tog tizmalari bilan o‘ralgan. Asosan, O‘zbekiston, qisman Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalari hududida joylashgan.

**Qishloq** - Aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va qishloq xo‘jaligining boshqa sohalarida band bo‘lgan aholi manzilgohi. Qishloq faqat aholisining mashg‘uloti bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, tabiiy geografik va turmush tarzi bilan ham shahardan farq qiladi. Qishloq - O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishidagi eng quyi bo‘g‘in.

**Qishloq aholisi** – Qishloq joylarida istiqomat qiluvchi mahalliy xalq vakillari.

**Ijtimoiy himoya** - Keng ma‘noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta‘minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma‘noda - davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta‘minlanmagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rliq.

**Pensiya** - Fuqarolarga davlat yoki boshqa sub‘ektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to‘lanadigan to‘lovlar. Ijtimoiy ta‘minot shakli hisoblanadi.

**Nafaqa** - Muhtoj odamlarga davlat, korxonalar, muassasa va ayrim shaxslar tomonidan beriladigan yordam puli.

**Ijtimoiy nafaqa** - Muayyan sabablarga ko‘ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan va doimiy ravishda yordamga muhtoj fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

**Nogiron** - Kasallik, shikastlanish, mayibmajruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma‘lum muddat mehnat qobiliyatini yo‘qotish.

**Ishsizlik** - Bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi.

**Tadbirkor** - Kapital sarflab tovar va xizmatlar yaratish bilan foyda topishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat, biznesning asosiy turi.

**Sexlar** - Mahsulot ishlab chiqaruvchi joy.

**Qo'shma korxonona** - Boshqa mamlakatlar firmalari ishtirokida bunyod qilingan, tashkiliy jihatdan yagona yuridik shaxs sifatida rasmiylashtirilgan korxonona.

**Turar joy** - Yashash maskani, boshpana joy, uyjoy binolari. Oila istiqomat qiladigan uy, oilaning maishiy hayoti o'tadigan muhit. Turar joy ibtidoiy davrlardayoq taom tayyorlash, libos kiyish qatorida paydo bo'lgan. Turar joylar me'morliqsa eng ko'p tarqalgan inshoot turi bo'lib, boshqa turdagi inshootlarning shakllanishi va rivojlanishini ko'p jihatdan belgilab bergan.

**Qurilish** - Moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri. Turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish. Keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni.

**Tabiiy gaz** - Yer po'stining cho'kindi g'ilofida erkin to'plamlar hamda erigan (neftda va qatlam suvlarida), tarqoq (jinslarda shimilgan) gaz kondensata va qattiq (gazogidrat uyumlarida) holda uchraydigan metan qatoridagi uglevodorodlar va uglevodorod bo'lmagan komponentlar aralashmalari. Yonuvchi tabiiy gazlarga asosan metan, etan, propan, butan, izobutan va pentan kiradi.

**Ichki yo'llar** - Transport vositalari va piyodalar harakatlanishi uchun mo'ljallangan yer sirtidagi maxsus tayyorlangan qismlar. Yo'lovchilar va yuklarni tashiydigan yuk ko'tarish-tashish inshootlari.

**Infratuzilma** – Ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat kiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko'rsatuvchi sohalar (tashkilot, korxonona va muassasa) majmui. Nomoddiy ishlab chiqarish sektori. Infratuzilma xizmatlari moddiy shaklga ega bo'lmagan tovarlar bo'lib, ular hayotiy ehtiyojlarni qondiradi.

**Sariq kasalligi** - Jigarda hosil bo'ladigan bilirubin - o't pigmentining to'qimalarda to'planishi tufayli teri, ko'z oqi va shilliq pardalarining sariq tusga kirishi. Sariq kasalligi qonda bilirubin miqdorining oshib ketishi natijasida paydo bo'ladi. Kelib chiqish sabablari va hosil bo'lish mexanizmiga ko'ra, Sariq kasalligi jigarda paydo bo'luvchi, mexanik va gemolitik xillarga bo'linadi.

**Kamqonlik** - Qonda eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining kamayishi, sifatining o'zgarishi bilan kechadigan kasallik.

**Qandli diabet** - Qand kasalligi, organizmda insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma'lum.

**Tez tibbiy yordam** - Inson hayoti hamda sog'lig'i uchun xavfli holatlar ro'y berganda kechasiyu kunduzi ko'rsatiladigan tibbiy yordam turi va tizimi.

**Shifoxona** - Davolash muassasasi. Keng ma'noda shifoxona tushunchasi bemorlarni statsionar sharoitda davolash, aholiga dispanserizatsiya usuli bilan xizmat ko'rsatish va boshqalar davo muassasalarini anglatadi. Tor ma'noda shifoxonalar kasalliklarni davolashda, asosan, tabiiy usullardan foydalanuvchi sihatgohlardir. Ular fizioterapevtik, balneologik, iqlim bilan davolash va boshqa shifoxonalarga bo'linadi.

**Ambulatoriya** - Qatnab davolanadigan kichik tibbiy muassasa. Ambulatoriyalar ko'proq qishloq joylarida tashkil etiladi. Unda asosiy kasalliklar mutaxassislari ishlaydi. Shu bilan Ambulatoriya poliklinikadan farq qiladi.

**Poliklinika** – Davolash profilaktika muassasasi; katnab davolanadigan va uyida yotgan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatadi.

**Qishloq vrachlik punkti** - Davolash-profilaktika muassasasi, ma'lum hududga birlashtirilgan aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatadi.

**Elektrokardiogramma (EKG)** - yurak muskuli ishlayotganda hosil bo'lgan elektr impulslari yozib olingan egri chiziq. Elektrokardiograf yordamida qog'ozga yoki fotoplyonkaga tushiriladi.

**Fizioterapiya** - Klinik tibbiyotning bir sohasi; tabiiy (kuyosh nuri, havo, suv, shifobaxsh balchiq) va sun'iy fizik omillar (elektr toki, magnit maydoni,

sun'iy yorug'lik manbalari, ultratovush va b.) ta'siri mexanizmini o'rganadi va ularni davolashprofilaktika maqsadida qo'llash usullarini ishlab chiqadi.

**Maktabgacha ta'lim** - maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy tarbiya muassasalari.

**Maktab** - Majburiy ta'lim muassasasi. Mamlakat yoshlarida tabiat, jamiyat, dunyokarash, san'at va mehnat borasidagi milliy tushunchalar shakllantirishga asos buladigan bilim hamda ularning kasbiy yoki politexnik ta'limi olish uchun yetarli darajadagi kunikma va malaka beradi.

**Ta'lim** - Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi.

**O'qituvchi** - Turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilar bilan ta'limtarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis.

## QISQARTMALAR RO'YXATI

O'z MA - O'zbekiston Milliy arxivi

O'zR PAA - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi

O'zR PAA AVB - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Andijon viloyati bo'limi

O'zR PAA FVB - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg'ona viloyati bo'limi

AVDA - Andijon viloyati Davlat arxivi

FVDA - Farg'ona viloyati Davlat arxivi

NVDA - Namangan viloyati Davlat arxivi

km<sup>2</sup> - Kilometr kvadrat

m<sup>2</sup> - Metr kvadrat

ga - Gektar

mln - Million

mlrd - Milliard

km - Kilometr

MFY – Mahalla fuqarolar yig'ini

QVA - Qishloq vrachlik ambulatoriyasi

FAP - Feldsher-akusherlik punktlari

QVP - Qishloq vrachlik punkti

EKG - Elektrokardiogramma

UTT - Ultratovushli tekshiruv

DSENM - Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari

OITS - Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi

MTM - Maktabgacha ta'lim muassasasi

AL - Akademik litsey

KHK - Kasb-hunar kolleji

KHM - Kasb-hunar maktablari

HTBYU - Hunar-texnika bilim yurti

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1.1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

1.2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.

1.3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

1.4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

1.5. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

1.6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 592 b.

1.7. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.

1.8. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 452 b.

1.9. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

1.10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 300 b.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. – Toshkent: Adolat, 2017. – 112 b.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi

faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2018 yil 3 fevraldagi PQ-3504-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: Adolat, 2018. –B. 42.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari o'quv xonalarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida»gi 2017 yil 10 maydagi 265 son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: Adolat, 2017. –B. 58.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 13 maydagi 394 -sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: Adolat, 2019. – B.43.

## **II. Arxiv hujjatlari**

2.1. O'zbekiston Milliy arxivi. M. 44-jamg'arma – O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi. 975-jamg'arma – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Andijon viloyati bo'limi. 4141-jamg'arma – Andijon viloyati hokimligi.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg'ona viloyati bo'limi. 2048-jamg'arma – Farg'ona viloyati hokimligi.

2.5. Andijon viloyat davlat arxivi. 713-jamg'arma – Andijon viloyati hokimligi.

2.6. Farg'ona viloyat davlat arxivi. 1220-jamg'arma – Farg'ona viloyati hokimligi.

2.7. Namangan viloyat davlat arxivi. 908-jamg'arma – Namangan viloyati hokimligining Sog'liqni saqlash boshqarmasi.



### **III. Davriy matbuot**

#### **3.1. Jurnallar**

- 3.1.1. Jamiyat va boshqaruv (2000-2021 yy.)
- 3.1.2. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi (1991-2021 yy.)
- 3.1.3. Fuqarolik jamiyati (2016-2021 yy.)

#### **3.2. Gazetalar**

- 3.2.1. Xalq so‘zi, (1991-2020 yy.)
- 3.2.2. Yangi O‘zbekiston, (2020-2021 yy.)
- 3.2.3. Andijonnoma, (1991-2020 yy.)
- 3.2.4. Beshariq tongi, (2016-2017 yy.)

### **IV. Intervyular**

4.1. Shifokor otolaringolog Qambarova Nodiraxon Asqarovna Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani ko‘p tarmoqli poliklinikada uzoq yillardan buyon faoliyat yuritadi. Intervyu 25.10.2021 yilda yozib olingan.

4.2. Andijon viloyati Jalaquduq tumanida istiqomat qiluvchi pedagog Mamasidiq Xo‘jamov ko‘p yillar tumandagi 37 umumta‘lim maktabida direktor lavozimida faoliyat yuritgan. Intervyu 25.11.2021 yilda yozib olingan.

4.3. Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahrida istiqomat qiluvchi san‘atshunos Shoislomova Davlatxon Umarovna hozirda nafaqada. Intervyu 24.12.2021 yilda yozib olingan.

4.4. “Turon o‘quvchi yoshlar va nogironlar o‘quv ishlab chiqarish markazi” direktori, xalq deputatlari Marhamat tumani kengashi deputati, Ortiqali Xusanov. Intervyu 22.01.2022 yilda yozib olingan.

4.5. Jalaquduq tumanida istiqomat qiluvchi tadbirkor Otabek Odilov. Intervyu 23.01.2022 yilda yozib olingan.

4.6. Andijon tumani Orol qishlog‘ida istiqomat qiluvchi tadbirkor Qo‘chqorov Rustam Qurbonalievich. Intervyu 24.01.2022 yilda yozib olingan.

4.7. Jalaquduq tumani Teshiktosh qishlog'ida yashovchi Baxromjon Ibragimov. Intervyu 25.01.2022 yilda yozib olingan.

## V. Adabiyotlar

5.1. Jo'raev A. Qishloq va ijtimoiy hayot. – Toshkent: Mehnat, 1992. – 208 b.

5.2. Murtazaeva R.H. Mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 120 b.

5.3. Mualliflar jamoasi. Mustaqillik yillarida xalq ta'limi. – Andijon, 1997. – 198 b.

5.4. Atamirzaev O.B., Gentshke V., Murtazaeva R. Uzbekiston mnogonatsionalny: istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent: Ibn Sino, 1998. – 102 b.

5.5. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. Mustaqil O'zbekiston. – Toshkent: Mehnat, 1999. – 160 b.

5.6. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: 1999. – 160 b.

5.7. Alimova D.A. Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – Toshkent: Sharq, 2000. – 210 b.

5.8. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi. – Namangan, 2000. – 192 b.

5.9. Shokarimov S., Sulstonov A. Jannatmakon Andijon. – Toshkent: Islom Universiteti, – 2002. – 158 b.

5.10. Murtazaeva R.H. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'AJBNT, 2003. – 305 b.

5.11. Murtazaeva R.H. Millatlararo totuvlik-bag'rikenglik va taraqqiyot omili. – Toshkent: Akademiya, 2005. – 249 b.

5.12. Mualliflar jamoasi. Bugungi Andijon. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 92 b.

5.13. Ubaydullaeva R., Atamirzaev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. – Toshkent: Universitet, 2006. – 64 b.

- 5.14. Jalilov S., Komil S. Izboskan va izboskanliklar. – Toshkent: VEKTOR-PRESS, 2007. – 72 b.
- 5.15. Jo‘raev N., Fayzullaev T. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2009. – 340 b.
- 5.16. Jo‘raev N. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2011. – 489 b.
- 5.17. Bo‘rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 159 b.
- 5.18. Mualliflar jamoasi. Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 125 b.
- 5.19. Shamsutdinov R.T., Ishoqov A.A. Andijon tarixidan lavhalar. – Toshkent: Sharq, 2013. – 592 b.
- 5.20. Shamsutdinov R., Mo‘minov H. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2013. – 560 b.
- 5.21. Tursunboeva N. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 116 b.

## **VI. Xorijiy adabiyotlar**

- 6.1. Rumer B. Central Asia in transition: dilemmas of political and yeconomic development. – USA, 1996. – 286 p.
- 6.2. Kandiyoti D. Post-Soviet Institutional Design, NGOs and Rural Livelihoods in Uzbekistan. – Geneva: UNRISD, 2004. – 36 r.
- 6.3. Spoor M. Agricultural Restructuring and Trends in Rural Inequalities in Central Asia: A Socio-Statistical Survey. Programme on Civil Society and Social Movements. – Geneva: UNRISD, 2004. – 46 r.
- 6.4. Cunis Ye. Kazakstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan and Uzbekistan: country studies. – Washington, 2005. – 87 r.
- 6.5. Herman M. Sustainable Agricultural Reform - the Case of Uzbekistan. – UNDP, 2010. – 37 r.

## VII. Internet saytlari

- 7.1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining milliy ma’lumotlar bazasi
- 7.2. <https://president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
- 7.3. <https://uza.uz> – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi
- 7.4. [www.uzbekistonovozi.uz](http://www.uzbekistonovozi.uz) – «O‘zbekiston ovozi» gazetasi rasmiy veb-sayti
- 7.5. <https://dba.uz/> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi rasmiy veb-sayti
- 7.6. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi
- 7.7. [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi

## VIII. Dissertatsiya va avtoreferatlar

- 8.1. Jumaxonov Sh.Z. Namangan viloyati aholisi hududiy tarkibini takomillashtirish: Geog. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1998. – 156 b.
- 8.2. Zokirov S.S. Aholi zich joylashgan hududlarda shahar manzilgohlarining rivojlanishi (Andijon viloyati misolida): Iqt. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1996. – 250 b.
- 8.3. Ismailova Z.U. O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida qishloq turmush tarzi yangilanishining ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillari: Fal. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1999. – 230 b.
- 8.4. Qahharov M.A. Mustaqil O‘zbekistonda qishloq ijtimoiy-sinfiy tuzilmasining o‘zgarishi va yangi dehqon tipining shakllanishi: Fal. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1997. – 215 b.
- 8.5. Rahmatullaev Sh.M. Mustaqillik sharoitida Farg‘ona vodiysi shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar (1991 – 1996 yillar): Tarix fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2000. – 190 b.

8.6. Temirova Ch.X. O‘zbekiston qishloqlari rivojlanishining ijtimoiy-madaniy aspektlari: holati va muammolar (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida. 1991 – 2008 yy.): Tarix fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2011. – 198 b.

8.7. Xadjamuratova M.X. Farg‘ona vodiysining demografik tarixi (1991 – 2006 yy.): Tarix fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2011. – 185 b.

8.8. Haydarov Z.U. Namangan viloyatining sovet davri va mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi: qiyosiy tahlil: Tarix fan. nom. ... diss. – Namangan, 2017. – 180 b.

8.8. Xoshimov O‘.Q. Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysi viloyatlarida ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. –58 b.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>BIRINCHI BO‘LIM. ISTIQLOL YILLARIDA FARG‘ONA VODIYSIDA AHOLINI IJTIMOY HIMOYA QILISH VA ISH BILAN TA‘MINLASH MASALALARI HAMDA QISHLOQLARDA UY-JOYLARNING BUNYOD ETILISHI .....</b>	<b>5</b>
1.1. Vodiy qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishi .....	5
1.2. Qishloqlarda uy-joylar qurish, tabiiy gaz, elektr energiyasi hamda toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash masalalari .....	30
<b>IKKINCHI BO‘LIM. FARG‘ONA VODIYSIDAGI SOG‘LIQNI SAQLASH MUASSASALARI FAOLIYATI VA ULARNING QISHLOQ AHOLISIGA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH DARAJASI .....</b>	<b>51</b>
2.1. Tibbiy xizmat ko‘rsatish va aholi sog‘ligini muhofaza qilish .....	51
2.2. Qishloq vrachlik punktlarining barpo etilishi hamda ularning faoliyatidagi o‘zgarishlar .....	75
<b>UCHINCHI BO‘LIM. FARG‘ONA VODIYSIDA TA‘LIM MUASSASALARINING IJTIMOY HOLATI VA O‘RTA MAXSUS O‘QUV YURTLARI FAOLIYATI .....</b>	<b>95</b>
3.1. Vodiy qishloqlarida milliy ta‘lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi.....	95
3.2. Farg‘ona vodiysida o‘rta bo‘g‘in – akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bunyod etilishi hamda kadrlar tayyorlash tizimi .....	113
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>133</b>
<b>QISQARTMALAR RO‘YXATI .....</b>	<b>137</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>138</b>

## ОГЛАВЛЕНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ .....</b>	<b>3</b>
<b>ПЕРВЫЙ РАЗДЕЛ. ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ И ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И СТРОИТЕЛЬСТВО ЖИЛЯ В СЕЛАХ.....</b>	<b>5</b>
1.1. Социальная защита жителей долины и создание новых рабочих мест.....	5
1.2. Вопросы строительства жилья в селах, обеспечения природным газом, электричеством и чистой питьевой водой.....	30
<b>ВТОРОЙ РАЗДЕЛ. ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧРЕЖДЕНИЙ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И УРОВЕНЬ МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ СЕЛСКОГО НАСЕЛЕНИЯ...</b>	<b>51</b>
2.1. Предоставление медицинских услуг и охрана здоровья населения.....	51
2.2. Создание сельских врачебных пунктов и изменение в их деятельности.....	75
<b>ТРЕТИЙ РАЗДЕЛ. СОЦИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СРЕДНИХ СПЕЦИАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ.....</b>	<b>95</b>
3.1. Становление и развитие национальной системы образования в сёлах долины.....	95
3.2. Создание среднего звена образования в Ферганской долине - академических лицеев и профессиональных колледжей и система подготовки кадров.....	113
<b>ГЛОССАРИЙ .....</b>	<b>133</b>
<b>СПИСОК СОКРАЩЕНИЙ .....</b>	<b>137</b>
<b>СПИСОК ИСПОЛЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....</b>	<b>138</b>

## CONTENTS

<b>INTRODUCTION .....</b>	<b>3</b>
<b>FIRST SECTION. ISSUES OF SOCIAL PROTECTION AND EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE FERGANA VALLEY DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE AND CONSTRUCTION OF HOUSING IN VILLAGES.....</b>	<b>5</b>
1.1. Social protection of the inhabitants of the valley and the creation of new jobs.....	5
1.2. Issues of housing construction in villages, provision of natural gas, electricity and clean drinking water .....	30
<b>SECOND SECTION. ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS OF THE FERGANA VALLEY AND THE LEVEL OF MEDICAL SERVICE FOR THE RURAL POPULATION.....</b>	<b>51</b>
2.1. Provision of medical services and protection of public .....	51
2.2. Establishment of rural medical centers and changes in their activities.....	75
<b>THIRD SECTION. SOCIAL STATUS OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ACTIVITIES OF SECONDARY SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF THE FERGANA VALLEY.....</b>	<b>95</b>
3.1. Formation and development of the national education system in the villages of the valley.....	95
3.2. Creation of secondary education in the Ferghana Valley - academic lyceums and vocational colleges and a personnel training system.....	113
<b>GLOSSARY .....</b>	<b>133</b>
<b>LIST OF ABBREVIATIONS.....</b>	<b>137</b>
<b>LIST OF USED LITERATURES .....</b>	<b>138</b>